

O-114

ANVAR OBIDJON

# G'ORDAGI OLISHUV



**ANVAR OBIDJON**

# **G'ORDAGI OLISHUV**

*Qissa va hikoya*



**ZIYO NASHR**

**Toshkent**  
2019

UO'K: 821-512.133-32

KBK 84(56)6

O-14

**Obidjon, Anvar.**

O-14

**G'ordagi olishuv [Matn]: qissa va hikoya. / Anvar Obidjon. – T.: „Ziyo nashr“ nashtiyoti, 2019. – 144 b.**

ISBN 978-9943-5937-1-8

Iste'dodli adib Anvar Obidjonning „G'ordagi olishuv“ qissasi Alamazon va uning do'sti Eshmatning g'aroyib sarguzashtlari haqida.

Xazina qidirib Ajdarobodga tushib qolgan bu ikki og'aynining ko'rgan-kechirganlarini tasvirlashdagi yozuvchining mahorati sizni mahliyo qiladi.

Alamazon sizning sevimli qahramoningiz bo'lib qolishiga ishonamiz.

**UO'K: 821-512.133-32**

**KBK 84(56)6**

2330/1

301 ZECONIQ Aizly

ISBN 978-9943-5937-1-8

© Anvar Obidjon.

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2019.

# **ALAMAZON VA UNING PIYODALARI**

*Qissa*



*Ona yurtimning jasur  
farzandlariga bag'ishlayman*

## **TOSHTAQALIK QILICHBOZ YOKI MUQADDIMA**

Toshtaqa qishlog'i Yelkantog'ning tik va zabardast qoyalari bilan uch tarafdan qurshab olingen. Yuqoridan turib qarasangiz, qishloq afsonaviy devlar tulporidan tushib qolgan bahaybat taqaning o'rtasida turganga o'xshab ko'rindi.

Taqaning ochiq qismini Qo'chqorsoyning asov to'lqlinlari keskir shamshirdek to'sib turar, bu soy kunchiqardagi qoya ustidan taralib tushadigan sharsharaning davomi bo'lib, kunbotardagi o'rkach ostiga yetganda, aylana hosil qilgancha shimolga tomon burilib ketardi. Jannatariqdan oqadigan bir tegirmon suv sharshara bo'lib pastga tushgach, birdan ulkan soyga aylanib qolishi qishloqqa birinchchi marta kelganlarni qattiq hayronlikka solar, sharshara ostidan biqillab buloq chiqib turishi faqat shu yerda yashaydigan kishilargagina ma'lum edi.

Qishloqning pastqam imoratlar tobora siyraklashib borgan janubiy qismida Yelkantog' etaklariga qadaluvchi barra yaylov o'txo'rlar oldiga yoyib qo'yilgan ulkan dasturxondek yastanib yotardi. Tog' cho'qqilarini ostiga qurilgan pillapoyani eslatuvchi o'rkachlarning birinchisi pistazor bo'lib, uning kungay joylarida isiriqlar g'ujg'onlanib o'sar, bu yerning har bir giyohi shifobaxsh edi.

Ikkinci o'rkachga ko'tarila borganingiz sari, yolg'iz-yorti archalar uchrayotgandek tuyuladi, lekin nafasni

rostlab olish uchun biroz to‘xtalib, atrofga nazar solgan paytingizda qalin o‘rmon ichiga kirib qolganingizni sezib, birdan hayratga tushasiz. Engashvolib yuqoriga ko‘tari-lishning mana shunaqa g‘alati sehri bor.

Bu o‘rkachga qadam bosgan kishi yer yuzida nasli kamayib ketayotgan popukdor hilolkakliklarning tiniqib sayrashini eshitib, huzur qilganicha beixtiyor ayiqtovonlar og‘ushiga yonboshlaydi. Keksa ovchilar bu noyob parranda galasi Jandag‘orda qishlab, o‘sha joyda bolalashsa kerak, deb taxmin qilishar, chunki g‘or ichida hilolkakliklarning rangdor patlari to‘zg‘oqdek sochilib yotardi.

Undan keyingi o‘rkachni toshtaqliklar „kashta“ deb atashadi. O‘rkachda qizil, sariq, pushti lolalar oila-oila bo‘lib ochilar, bodroqdek gullagan chechaklar ko‘k mato ustiga sochilgan turfabo‘yoq qog‘oz tangachalarni eslatar, hatto bu yerning kapalaklari ham rango-rang edi. Yelkantog‘ning yam-yashil o‘rkachlari uzra qad ko‘tarib turgan kumush cho‘qqilar „kashta“dan yanada ko‘rkamroq ko‘rinar, bu manzaraga mahliyolanib boqqan kishining ko‘z o‘ngida sokin dengiz ufqini qamrab olgan sonsiz yelkanli qayiqlar tizmasi namoyon bo‘lardi.

Mustahkam qal’ani eslatuvchi bu jannatmakon qish-loqqa faqat bitta yo‘l orqali kirish mumkin edi. Qo‘chqor-soy ustiga qurilgan ko‘hna osmako‘prik Toshtaqaning faxriy darvozasi hisoblanadi.

Biz o‘zimizni o‘sha osmako‘prikda turgandek faraz qilaylik. Ko‘prikdan picha nariroqdagi yapasqi xarsang ustiga o‘tirib olib, ko‘piktil to‘lqinlarga oyoqlarini objuvoz to‘qmoqlaridek galma-gal chapillatib urayotgan qiyg‘irko‘z bola qissamizning bosh qahramoni Alamazondir.

„Alamazon“ toshtaqliklar shevasida gurkirab yona-yotgan gulxanni anglatadi. To‘y va bazmlarda uyqusiz-

likdan gandiraklab yuruvchi qishloq bolalari uchun davra o‘rtasidagi gulxanga moy sepilgan chog‘da „alamazo-o-n, gulduramazon“ deb chapak chalib irg‘ishlashdan ortiqroq zavq bo‘lmas, bu qiyqiriqlar muntazam ravishda qissamiz qahramonining jig‘iga tegib kelar, shu tufayli u biron bahoma topib, bu an’anaviy marosimni ommaviy shapatibozlikka aylantirib yuborish payida yurardi.

Alamazon uchta narsani xush ko‘radi: birinchisi – futbol o‘ynab charchagach, cho‘zilvolib kitob o‘qish; ikkinchisi – kitobda o‘qiganlari haqida miriqib xayol surish va xayol surishdan junbishga kelgan tuyg‘ularini qog‘ozga to‘kib she‘r mashq qilish; uchinchisi – oq qog‘ozga temilishdan ko‘zi tinganda dunyodagi barcha tashvishlaridan voz kechib, sillasi quriguncha yana to‘p tepish. Lekin kishi o‘z istaklariga osonlikcha erishganini hali hech kim ko‘rmagan. Bu fikrni jumladan, Alamazon ham tasdiqlashi mumkin. U to‘p tepaverib, tuproqqa belanib qaytgan chog‘da ayasidan „qulqocho‘zma“ oladi; yoshiga to‘g‘ri kelmaydigan kitoblarni o‘qigani uchun akasi tiraqaylatib quvib qoladi; xilvatroq joyga pisib olib she‘r mashq qilish va uzoqroqqa cho‘zilgan sang‘ishlar esa dadasingning shimdan kamar sug‘urishi bilan yakunlanadi. Bu ham yetmaganidek, bolakayning allaqachon to‘qsonni urib qo‘ygan buvisi har uchala holatda ham „Bu mahmadanining tizginini tortib qo‘yish kerak“, deb tergaguvchilarga dalda berib turadi. O‘zingiz sezib turibsizki, qahramonimizning me’dasiga tegib ketgan narsa mehribonlari tomonidan qilinadigan ta’qiblardir.

Hammadan ham odamlarga o‘xshab xohlagan kitobi ni tanlab o‘qiyolmasligi Alamazonga juda alam qilardi. Bolafaqir Chipollino, Buratino, Tom Soyer, Gek Finn,

Ravshanbek, Alpomish kabi qahramonlar bilan „Alifbe“ni yod olgandan buyon olishadi. „Robinzon Kruzo“ bilan „Maugli“ni azbaroyi boshqa durustroq kitob yo‘qligidan uch-to‘rt martalab o‘qib chiqdi.

Oxiri, bir kuni tavakkal qilib, akasining kitob taxmoniga hujum boshladi. Taxmonning Alamazon uchun taqiqlab qo‘yilgan qismidan „O‘tkan kunlar“ degan kitobni shartta sug‘urib oldi-yu, uch kun yayrab mutolaa qildi. Bu voqeа bundan rappa-raso ikki yil burun, u beshinchi sinfni tugallab, xuddi hozirgidek ta’tilga chiqqan paytda yuz bergen edi.

Kunlar o‘taverdi. U akasidan hadiksiray-hadiksiray „Sarob“, „Choliqushi“ va „El qizi“ni o‘qib chiqdi. „Anna Karenina“ning birinchi qismini tugallay deb turganda ni-hoyat, o‘sha xunuk ish sodir bo‘lib, akasi uni bexos qo‘lga tushirdi. Bu – qahramonimizni kelgusida kutayotgan o‘nlab ko‘rgiliklarning boshlanishi edi, xolos.

Bolalar uchun yozilgan kitoblardan Alamazon odamlarga yaxshilik tilashni o‘rgangan, haqiqat va e兹gulik yolg‘on va olchoqlik ustidan g‘alaba qilishi muqarrarligini tushunib yetgan edi. Kattalarga atalgan kitoblarni o‘qigan sayin unda odamlarga bevosita yaxshilik qilish istagi kuchaya bordi, haqiqat va e兹gulikning g‘alaba qozonishi uchun yolg‘on va olchoqlikka qarshi kurashish lozimligini tobora chuqurroq anglay boshladi. U odamlarga iloji boricha ko‘proq yaxshilik qilish va uning bu ishi kam deganda butun bir mamlakat miqyosida katta „shov-shuv“ga sabab bo‘lishini istardi.

Alamazonning yana bir g‘alati xislati shu ediki, biron-bir kitobni o‘qib chiqqach, undagi bosh qahramonga beixtiyor taqlid qila boshlardi. Masalan, u „Gamlet“ni

o‘qib yurgan pallada biroz parishonxotir va bosiq bo‘lib qoldi. Muallimlar, „Shumtakaga insof kirganga o‘xshaydi“, deb sevinib yurishganda u „Shum bola“ni o‘qishni boshlab yubordi-yu, yana aynib ketdi. „Spartak“ni tugatgandan keyin esa yog‘och qilich bilan sinfdoshi Karim ko‘chirmachining boshini yorib qo‘ygani haqida butun qishloqqa „mish-mish“ tarqaldi. Bundan xabar topgan maktab qilichbozlik to‘garagining rahbari, „Menga mana shunaqa tirishqoq talaba kerak edi“, deb uni zo‘rlab to‘garakka a’zo qildi.

Dadillik va chapdastlik Alamazonning tug‘ma qobiliyati edi. Ko‘p o‘tmay u o‘zi istamagan holda (uning ko‘ngli hamon futbolni tusardi) maktabda dovrug‘ taratgan shamshirchi bo‘lib qoldi. Boshlang‘ich sinfdagi bolalar uni ko‘rganda, „Ana, eng zo‘r qilichboz kelyapti“, deb o‘zaro shivirlashib qo‘yishardi. Lekin, qilichbozlikdan qancha obro‘-e’tibor topgan bo‘lmasin, raqibga „ukol“ sanchish o‘zgalar darvozasiga to‘p kiritishchalik zavq berolmasdi unga. Shu boisdan bo‘lsa kerak, Alamazon bora-bora to‘garakdagi mashg‘ulotlarga nomuntazam keladigan bo‘lib qoldi. „Alvido, qurol!“ degan kitobni o‘qib chiqqandan keyin esa, qilichbozlikdan butunlay voz kechib, yana futbolga berilib ketdi.

Yanglishmasam, siz bilan biz hozircha Qo‘chqorsoy ustidagi osmako‘prikda turibmiz. U yoq-bu yoqni kuatishda davom etaylik. Alamazondan to‘rt qadamcha narida so‘ppayib o‘tirvolib, soy yoqasida shig‘il-shig‘il pishgan ituzumlarni kaplab yutayotgan lavoqqina bola bosh qahramonimizning injiq piyodasi Eshmat ishma bo‘ladi.

Eshmat o‘zini ortiqcha urintirib yuradigan laqma bolalardan emas, faqat bitta narsani xushlaydi va bor-yo‘g‘i

bittagina narsani yoqtirmaydi. U yashashni to‘yib-to‘yib ovqatlanish deb tushunadi va shu nuqtayi nazardan qarab, kavshanishni haddan ziyod yaxshi ko‘radi.

Maktabga qabul qilinmasdan avval Eshmat biron narsani astoydil yomon ko‘rmagan. Lekin sinfga „Arifmetika“ o‘qituvchisi kirib kelgan birinchi kundayoq dunyoda odamlarning asabini egovlash uchun ataylab yaratilgan yovuz vositalar mavjudligini u darhol fahmlab yetdi. Qitmir arifmetik raqamlar mujmal algebraik belgilarga aylana borgani sari Eshmatning matematikaga bo‘lgan munosabati tobora sovuqlasha boshladi, oxiri bu fanni insoniyatning dushmani deb bildi.

Endi osmako‘priordan asta uzoqlashaylik-da, kelgusida g‘aroyib voqealarни boshdan kechirishi lozim bo‘lgan qahramonlarimizni o‘z hollariga qo‘yaylik.

## **ESHMATNING FRENSIS BO‘LGANI**

- Nimalarni o‘ylayapsan, ey, Alamazon? – ituzumni kaplayotib so‘radi Eshmat.
- Xazinani.
- Iye-iye, qanaqa xazina?
- Qanaqa bo‘lardi, rostakami-da, – oyog‘ini suvdan olib, sherigi tomonga o‘girildi Alamazon. – Nima, kitobni o‘qib bo‘lmadingmi hali?
- O‘qib ko‘rdim.
- Shundan keyin ham xazina to‘g‘risida o‘ylamayapman degin?

Alamzon ta’tilning dastlabki kunlarida Jek Londonning „Uch qalb“ degan kitobini o‘qib chiqqan, qorong‘i g‘or vahimalarini zarracha pisand qilmaydigan, hatto o‘lim

dahshatidan ham titramaydigan quvnoq va qaysar xazina qidiruvchilar jasorati uni qattiq hayajonga solgandi. Shundan so‘ng „Uch qalb“ni maqtab-maqtab Eshmatning qo‘liga tutqazdi. Qiziq! U kitobni o‘qib tugatibdi-yu, baribir ituzumdan boshqa narsani o‘ylamayapti.

– Yo‘q narsaga boshimni og‘ritib jinni bo‘pmanmi? – kavshanganicha javob qildi Eshmat. So‘ng lunjidagini yutib, qo‘shib qo‘ydi. – Ochig‘ini aytSAM, o‘sha xazina axtaradig‘onlaring menga yoqmadi. Tilla topaman, deb o‘lib ketishlariga bir bahya qoldi-ya. Tag‘in och qopketishgani ni aytmaysanmi.

– Bir o‘ylab ko‘rgin-a, – jahlini ichiga yutib, iloji boricha silliqroq gapirishga tirishdi Alamazon, – hinduning g‘orida xazina bo‘ladi-yu, o‘zbeknikida bo‘lmaydimi? Qu log‘imni garovga tikib aytamanki, o‘zimizning Jandag‘orda ham xazina bijib yotibdi. Uni topadigan odam yo‘q, xolos.

Alamazonning oftobda qoraygan yuzlarida kuldirgich o‘ynadi.

– O‘sha xazinani topib olsak bormi, heh-hey, odamlarga qancha yaxshiliklar qilish mumkin bo‘lardi-ya!

Keyin u, asosan, qanday yaxshiliklar qilish mumkinligini sanay boshladi. Birinchi galda yaylov etagiga o‘n ming kishilik stadion quriladigan bo‘ldi.

– Iye-iye – taajjubdan ko‘zları olaydi Eshmatning, – qishlog‘imizdagи odam ja borsa ikki mingtadir. Boshingga urasanmi munaqa stadionni?

– Keyinchalik odam ko‘payib ketadi, – sira ikkilanmay bashorat qildi Alamazon. – Masalan, Orif tog‘aning o‘n bitta bolasi bor. Uning har qaysi bolasi yana o‘n bittadan bola ko‘radi. Bolalarining bolalari yana o‘n bittadan. Hisoblab ko‘r-chi.

Eshmat o‘zini matematika darsida o‘tirgandek his etib, aftini bujmaytirdi. Alamazon o‘zicha xomcho‘t qilib ko‘rsa, bunaqada odam juda ko‘payib ketarkan. Qishloqda esa joy tor. Shunda u topilishi mo‘ljallana-yotgan xazina hisobidan birmuncha ko‘pqavatli uy qu-rib tashlash kerak degan qarorga keldi. Marmar devorli kattakon choyxona qishloq qariyalari ko‘p to‘planadigan guzarda qad ko‘taradigan bo‘ldi. Hamma ko‘chalarga asfalt yotqizilib, Qo‘chqorsoy ustidagi ko‘prik yangilanishi kerak edi. Ko‘prikning panjaralari sof kumush-dan bo‘larmish. Eshmat shu to‘polonda qishloqqa besh qavatli oshxona ham qurib qo‘yish kerakligini qistirib o‘tdi.

– Ahmadali otaga atab terak bo‘yi haykal o‘rnatamiz, – qat‘iy ahd qildi Alamazon.

Butun umri boshlang‘ich sinflarga dars berish bilan o‘tgan Ahmadali Obidiy bundan ikki yilcha burun, pensiya chiqishiga bir oygina qolganda qo‘qqis vafot etgandi. Uning sobiq o‘quvchilaridan ikkitasi urushda qahramon bo‘lgan, bittasi hozirda vazir, yana bittasini shahardagi yog‘ zavodida direktor deyishadi. Uzoqqa borib o‘tirmaylik, shaxsan Alamazonning o‘zini ham birinchi sinfda Ahmadali ota o‘qitgan.

„Yana nima qilsam ekan? – o‘ylanib qoldi Alamazon. So‘ng o‘zicha qo‘l siltab qo‘ydi. – Ha, mayli, xazina topilgandan keyin tuzukroq o‘ylab ko‘rarman. Mirzaqand piyon vaysaganidek, puling ko‘paygan sari sarfing ham oshib boraveradi“.

– Boramizmi, oshna? – Eshmatning ko‘ziga tikildi Alamazon.

– Qayaqqa?

– Qayoqqa bo‘lardi, xazinani topgani-da.

– O‘zing boravur, – iyak otib ming‘irladi Eshmat. – G‘orda pishirib qo‘yibdimi?

– Qo‘r quoq! Tag‘in seni Frencis deb chaqirmoqchi bo‘lib yuribman-a. Hayf senga bu nom.

„Uch qalb“dagi xazina qidiruvchilar orasida ikki asosiy qahramon bo‘lib, ulardan birining ismi Genri, ikkinchisini-ki Frencis edi. Frencis! Agar imkonini topsa, Eshmat o‘zining „Ishma“ degan xosiyatsiz laqabini jon-jon deb Frencisiga almashtirgan bo‘lardi. U o‘ylanib qoldi.

Eshmatga bu nomni va‘da qilishdan oldin Alamazon ham anchagina bosh qotirgandi. Uning fikriga ko‘ra, Eshmat na Genrilikka loyiq edi, na Frencislikka. Ikkala nomga ham faqat Alamazonning o‘ziga munosib edi. Ammo insof yuzasidan bittasini baribir Eshmatga berishga to‘g‘ri kelardi.

„Mayli, unga bittasini beraman, – ko‘nglidan o‘tkazdi Alamazon. – Lekin mendan ortganini oladi“.

U avval Frencislikni tanladi. Frencis – aqli, botir. Buning ustiga aslzoda. Genri-chi? U ham mard va jasur bo‘lsa-da, Frencisdek sermulohaza emas.

Shu payt kitobdag‘i bir voqeа dabdurustdan Alamazonning esiga tushib qoldi. Unda, yengilganning qulog‘ini kesib olish sharti bilan bo‘lgan olishuvda Genri Frencisdan g‘olib kelgan va raqibining qulog‘ini kesmay oliyjanoblik qilgan edi. Birgina shu narsa Frencisning bor afzalliklarini sariq chaqaga chiqarib qo‘ydi. Alamazon Eshmatdan ko‘ra madaniyatsizroq bo‘lishga chidashi mumkin edi, ammo olishuvda kelib-kelib shu ishkambadan mag‘lub bo‘lish-dek isnodni o‘z gardanida ko‘tarib yurolmasdi. Xullas, u Genrilikni tanladi.

– Darrov jirrakilik qilavurma-da, – dabdabali laqabni o‘zlashtirib olish umidida keskin muloyimlashdi Eshmat. – Jandag‘oringda tilla bormikin o‘zi?

- Bor. Ishonmasang, qulog‘imni garovga qo‘yaman. G‘orning oxirida Zimistonsaroy degan joy bor deyishadi. Nazina o‘sha yerda bo‘lishi kerak.

- Sen olvoladig‘on narsalarimizni lo‘nda gapirma-yapsan, – g‘orga borishga rozi ekanligini bildirish bilan birga, nafsi uchun qayg‘urishni unutmadi Eshmat. – Nima, qornimiz ochmaydimi?

– Tashvishlanma, men piyodalarimning g‘amini yeb qo‘yanman, – Alamazon shunday deya xarsang ustiga chiqib, qaddini rostladi. Keyin boshini baland tutib, tanta-navor ohangda e’lon qildi. – Tayyorlan, Frensis! Muqadas yurishni boshlaymiz. Oldinda – Jandag‘or!

Ular ertasi kuni barvaqt safarga otlanishdi. Pistazordagi changallarga bet-qo‘lini tatalatib yurmaslik uchun Alamazon Eshmatni kunchiqardagi qoyalarga tirmashgan ilonizi so‘qmoqqa yetakladi. Ular sharshara yonidan yuqoriga ko‘tarilib olishgach, Jannatariq yoqalab Yelkantog‘ga chiqa boshlashdi. Bu ariq Jandag‘orming shundoqqina ustidan oqib o‘tardi.

## ZIMISTONSAROY

G‘orning ichi sovuq va namxush edi. O‘zidan kuchliroqlarga yem bo‘lgan hayvonlarning qoqmoch suyaklari oyoq ostida qalashib yotar, hilolkakliklarning to‘zg‘oq patlari kishi nafas olayotgan paytda goh labga kelib yopishar, goh burunni qitiqlardi.

Tugmachiroqlarni yoqib olgan xazina qidiruvchilar g‘orga sarbozlardek kekkayib kirishgan bo‘lsa, jinday o‘tgach engashib, keyinroq bukchayib yurishga majbur bo‘lishdi. Oxiri sirkdagি qiziqchilarga o‘xshab, emaklay boshladilar.

– Ke, oshna, picha tamaddi qilvolaylik, – ancha emaklashgach, tuynukning kengroq yerida to‘xtalib dedi Amazon. – Balki, bunaqa qulay joy boshqa uchramas.

Eshmat hansiraganicha, indamay yonboshladi. Amazon tugmachiroqni yoqib, kovakdag'i tokchaga qo‘yidda, osmaqopchiqning og‘zini ochdi. Qattiq nonga qo‘shib ozginadan kalla go‘shti va tuxum yeyishdi. Keyin suvdonga yopishishdi.

Ovqatlanib bo‘lishgach, g‘orning tobora torayib, tuynukka aylanib borayotganini nazarda tutgan Amazon osmaqopchiqni shu yerda qoldirib ketish kerak, degan qarorga keldi.

– Suvdonni olib, cho‘ntaklarga ozginadan qattiq non solvolamiz, – dedi u buyruq ohangida.

Eshmatning Frensislikdan ko‘ngli sovib borayotgandi.

Bu yerda bekordan bekor emaklab yurish g‘irt ahmoqlik ekanligini ochiq gapirishga botinolmagan Eshmat qurbaqaga o‘xhab o‘zimizni xor qilib yuramizmi, degan ma’noda gap boshladi va silliqqina qilib, orqaga qaytish haqida taklif kiritdi.

– Galvars! – shu zahoti uni jerkib tashladi Amazon. – Biz orqaga qaytsak, Ahmadali otaga kim haykal o‘rnatadi? Stadion-chi?

– Jichcha shoshilmasang, davlatning o‘zi bizga kelishgan bitta stadion qurib berardi.

– Davlatga o‘ligingni ham ortvol, – o‘shqirdi Amazon. – Sendaqa tekinxo‘rlar ko‘payib ketsa, davlatning uyi kuydi deyaver. Kimligingni aytaymi hozir?

Eshmat „kerakmas“ degandek noxush qo‘l siltadi. Agar Amazon istasa, xohlagan odamini har qanday yo‘l bilan aybdor qila olishini u yaxshi bilardi. „A“ sinfda o‘qiydigan Bo‘tavoy degan bolaning bo‘yniga yo‘q narsadan ayb qo‘yanini Eshmat o‘z ko‘zi bilan ko‘rgandi.

O'shanda Alamazonning behiga otgan toshi qaytib tushib, daraxt tagida turgan Bo'tavoyning peshanasini g'urra qilgan edi. Surishtiradigan bo'lsangiz, devonadan tortib donishmandgacha gunoh Alamazonda deb aytadi. Alamazon esa, Bo'tavoyni yupatish o'rniga birdan unga dag'dag'a qilib qolsa bo'ladimi!

– Nega fizikani o'qimaysan? – deya do'q ura boshladi u Bo'tavoya. – Nega dars vaqtida anqayib o'tirasan?

Bo'tavoy dars paytida anqayib o'tiradimi, yo'qmi – bunisini bilmaymiz-u, lekin Alamazonning gapidan keyin u haqiqatan ham anqayib qoldi. Eshmat ham g'urra bo'lган boshga fizikaning qanday daxli bo'lishi mumkinligini tushunolmay garang edi. Har holda daxli bor ekan.

– O'qishim bilan nima ishing bor? – ko'zyoshini arta turib chiyilladi Bo'tavoy. – Nima demoqchisan?

– Fizikadan baloni ham bilmaysan demoqchiman.

– Bekorlarni aytibsan! – aytayotgan gapi o'z boshiga kulfat bo'lib yog'ilishini xayoliga ham keltirmay shang'iladi Bo'tavoy. – „Besh“ga bilaman o'sha fizikangni.

– Bundan chiqdi, yerning tortish qonunini ham bilar ekansan-da, – battardan qizishdi Alamazon. – Voy, mug'ambir! Voy, muttaham! Tepaga otilgan toshning yerga qaytib tushishini bilarkansan-ku!

Bo'tavoyning tili g'o'ldirab qoldi. Bundan foydalangan Alamazon po'pisani yanayam kuchaytirib yubordi.

– Nega daraxtning tagidan qochmading? Nega men otgan toshning tagiga qasddan burningni tiqasan? Yo meni dadamga kaltaklatmoqchi bo'luvdingmi? Niyating shumidi hali?

Bechora Bo'tavoy o'shanda nima deyishini bilmay, ko'zi go'layganicha turib qoluvdi.

Eshmat ana shularni hisobga olib, Alamazon bilan bahslashib o‘tirmadi.

– Iye-iye, darrov qizishavurma, – dedi u, tezdayoq yuvoshlanib. – Shunday... bir aytdim-qo‘ydim-da.

G‘or tobora torayib bordi. Ular endi echkiemar singari qorinlarini yerga ishqab emaklay boshladilar. Buning ustiga, toza havo kamligi tufayli nafas olish ancha og‘irlashib, xazina qidiruvchilarning kiyim-boshlari quyilib kelayotgan terdan shilta bo‘lib ketdi.

– Ke, endi qaytovraylik, – yana iltijo qildi Eshmat. – Bu turishda biror joyda qisilib qopketmaylik tag‘in.

– Qo‘rqma, tuynuk hali keng, – dedi Alamazon. – Xazina endi uncha uzoq bo‘lmasa kerak.

– Meni haliyam anchagina laqillatding, – nihoyat, ko‘nglidagini ochiq-oydin to‘kib soldi Eshmat. – Munaqa sassiq joyda tilla bo‘larkanmi?

– Sen xudbinsan!

– Nima desang diyavur, men qaytaman.

– Sotqin! – Alamazonning jazavasi tutib qoldi. – Hayf senga Frensislik, sen Eshmat ishmasan!

– Frensingni pishirib yegin!

– Shunaqami? Unda jo‘nayqol! – baqirib berdi Alamazon. So‘ng oldinga emaklashda davom etarkan, qo‘shib qo‘ydi. – Tezroq ket, qorangni boshqa ko‘rmayin. O‘zi havo yetishmay turibdi, sen uni battar buzyapsan.

Eshmat orqaga qaytishini ham, oldinga emaklashini ham bilmay, ikkilanganicha ancha vaqt turib qoldi. Oldinga emaklash xatarli, orqaga yolg‘iz qaytish esa vahimali edi. U nochor olg‘a siljidi.

Tuynukning oxiri shunaqayam tor ediki, kallasini Zimistonsaroy tomonga chiqrganicha, zambarakka solingen o‘qdek qisilib qolgan Eshmatni Alamazon zo‘rg‘alatdan ichkariga sug‘urib oldi. Bu yer kishining bahri dilini ocha-

digan darajada salqin va bahavo edi. Eshmat to‘yib-to‘yib nafas olarkan, kalamushning inidek tor tuynukda havo yo‘qligidan bo‘g‘ilib o‘lmanining sababini nihoyat, tu-shunib yetdi.

– Guvullayotgan nima? – xavfsirab so‘radi u, shilingan yelkalarini silayotib. – Chirog‘ingni yoqvor-chi. Meniki anavi tort-tortda majaqlanib ketdi.

– Bu suvning guvullahshi, – Alamazon tugmachiroq nurini ulkan g‘or shipidan guvullab tushayotgan shalolaga to‘g‘rilagan chog‘da, u kumush narvondek yarqirab ketdi. G‘ordagi oromijon muhitning sababchisi – ana shu zilol shalola hosil qilgan serko‘pik hovuz birdek limillab turar, ortiqcha suv qayerga sizib ketayotganini bilib bo‘lmasdi. Devorlari po‘panak bosib yotgan bu g‘or o‘zining shipga borib taqalgan archasimon tosh ustunlari, qator-qator xonalarni eslatuvchi son-sanoqsiz kovak-kandiklari bilan hashamatli va huvullagan saroyga o‘xshab ketardi. Tevarak-atrofda yarqiran biron narsa ko‘rinmagach, Eshmatning xunobi oshdi.

– Tilla qani? – so‘radi u hovliqib.

– Saroyni topdik, uniyam topamiz, – beparvo javob qildi Alamazon.

Xazina qidiruvchilar duch kelgan kovakni bir boshdan timirskilashga tushishdi. Kalla suqilmagan kovaklar soni kamaygan sari Eshmatning to‘yib-to‘yib yig‘lashga bo‘lgan xohishi shuncha kuchaya bordi. Oxirgi kovak ham diqqat bilan titkilanib, bezovta qilingan kaltakesakning zorlanib chirillashi eshitilgan mahalda uning ko‘zlaridan yosh siza boshladi.

– Hech bo‘lmasa, bitta pachoq qumg‘on topganimiz-dayam alam qilmasdi, – piqilladi Eshmat. – Endi nima degan odam bo‘ldik?

– Buncha po‘ng‘illaysan, hey ishma! – o‘shqirib berdi Alamazon. Toshlarni titkilayverib ko‘chib va qonab ket-

gan tirnoqlaridagi og‘riq zo‘rayib, shu tobda uning jahli chiqib turgandi.

Shundan so‘ng u Zimistonsaroyning chag‘ir devorlarini tugmachiroq yorug‘ida qaytadan ko‘zdan kechira boshladi. Tuynukning qarama-qarshi tomonidagi pastdan shipgacha cho‘zilgan yoriqqa ko‘zi tushib, yaqinroq bordi. Alamazon chiroq nurini ichkariga qaratdi va bir qarich kenglikdagi bu yoriq ikki quloch joygacha torayib borgandan keyin eshikdek jipslashib qolganini ko‘rdi. Yoshligida buvisidan eshitgan Alibobo haqidagi ertak qo‘qqis yodiga tushib, ik-ki-uch qadam ortga tisarildi-da: „Sim-sim, och eshigining!“ – deb qichqirdi. Tosh o‘rnidan siljimagandan keyin ham Alamazon umidsizlikka tushmadi.

– Bilasanmi, xazina qayerda, – qaysarlik bilan Eshmatni shalola tarafga yetakladi u. – Ana shu hovuzning tagi oltinga to‘lib yotipti. Ishonmasang, qulog‘imni garovga qo‘yaman.

Hujum qiluvchilarning fikriga ko‘ra, taxminan, Zimistonsaroy o‘ramida yotgan xazinani o‘lja qilish uchun erta tongda Jandag‘or og‘zidan boshlangan jang-u jadal endi hovuzda davom ettirildi. Mazkur vaziyat o‘pkaga iloji boricha ko‘proq havo to‘plab, mumkin qadar chuqurroq sho‘ng‘ishni talab etardi. Oxiri shu narsa aniqlandiki, hovuz tubidan olib chiqilgan bir necha hovuch „namunalar“ tashqi ko‘rinishidan Qo‘chqorsoydagi shag‘allarga judayam o‘xshab ketarkan.

Muzdek suvga sho‘ng‘iyverib dildirab qolgan xazina qidiruvchilar shosha-pisha kiyimlariga burkanishdi.

– Endi dorini ishga solaman, – oxirgi o‘qi qolgan jangchidek asabiy qiyofada cho‘ntagini kovlay boshladi Alamazon. – Balki, tog‘am mendan xafa bo‘lar, lekin boshqa ilojim yo‘q...

Mashhur professor Oq‘abek Turkoniy Alamazonga

tog'a bo'lardi. Professor dam olgani Hindistonga ketayotib, singlisini yo'qlab o'tish uchun kecha Toshtaqaga kelgandi. Chamasi, u ertaga kechki payt shahar aeroportiga yetib borishim kerak, deyayotgandek bo'luvdi.

Alamazon kecha g'orga borish haqida Eshmat bilan kelishib olgandan so'ng, uyga qaytib, tog'asining yonida ancha gaplashib o'tirdi. Bir vaqt professor cho'ntagidan kumush quticha chiqarib, uni asta tokchaga qo'ydi. Amazon uning nima ekanligini so'radi.

– Dori, – dedi tog'asi va jilmayganicha qo'shib qo'ydi. – Uni ichgan kishi xuddi ertaklardagidek niyat-maqsadiga yetadi.

– Do'xtir tog'angda ana shunaqa ajoyib dorilar bor, – kuldil Alamazonning oyisi. – Shuning uchun ham ishlari doimo oldinga yuradi.

Alamazonning allamahalgacha uyqusi kelmadi. Uning miyasida, „O'sha dorini ichib olsang, xazinani albatta topasan“, degan so'z qayta-qayta takrorlanar, ichiga bir juft sarg'ish tugmadori solingen kumush quticha ko'zi oldida suratdek qotib turardi.

„Har ehtimolga qarshi dorilarni olvolsammikan? – o'yladi u. – Yo so'ramay olganim uchun tog'am xafa bo'larmikin? Be-ye, do'xtirlarda nima ko'p, dori ko'p.“.

– Iye-iye, – ko'zlarini joydirab, Alamazonning qo'lidagi sarg'ish tugmachalarga tikildi Eshmat. – Nima buning?

– Dori deyapman-ku. Buni ichgan niyatiga yetadi.

– Zap opqochasan-da.

– Ishonmasang, o'zingga. Men hozir ichaman-u, niyatimga yetaman.

Biron narsani totib ko'rish imkoniyatini shu vaqtgacha qo'ldan boy bermay kelgan Eshmat, tugmachalarga suqlanib qaradi.

– Ikkalasiniyam o'zing ichvorasanmi, Amazon?

– Bittasini sen ichasan, – ko‘nglingdagini sezib turibman, degandek unga mug‘ambirona ko‘z tashladi Alamazon. – Chunki, ikkalamizning niyatimiz bir.

Ular dorilarni ichib olishgach, murod-maqсадларига yetishdan oldin hovuz bo‘yida yonboshlab, biroz hordiq chiqarmoqchi bo‘lishdi.

– O‘ziyam rosa charchabmiz-ey, – pishilladi Eshmat. – Cho‘zilib yotish biram xush yoqyaptiki.

Bu paytda Alamazon ham o‘zini sarxush his qilayotgan edi. Uning etlari yoqimli jimirlab, paylari tobora bo‘shashib borar, butun vujudini to‘yib-to‘yib uqlash istagi qamrab olayotgandi.

## QONXO‘R QOYALAR

Momaqaldoqni eslatuvchi gulduroq tovushdan Zimistonsaroy larzaga keldi.

– Iye-iye, – qulog‘ini ding qilib, Alamazonning pinjiga suqildi Eshmat. – Yer qimirlayaptimi?

Alamazon tugmachiroq nurini gulduroq tovush kehayotgan tomonga to‘g‘riladi va boyo o‘zi: „Sim-sim, och eshigingni!“ – deb qichqirgan joydagi xarsanglar ikki tomonga siljib borayotganini ko‘rib, dong qotib qoldi.

Xarsang siljishdan to‘xtagach, momaqaldoq ham tinib, uning o‘rnini zirilloq tovush egalladi. Bu tovush bo‘sh paqir ichiga tushib qolgan saraton qo‘ng‘izning zo‘r berib qanot qoqishini eslatardi.

Xazina qidiruvchilar siljuvchi xarsanglarga yaqinroq borib, bu joyda bir kishi zo‘rg‘a sig‘adigan torgina yo‘lak paydo bo‘lganini ko‘rishdi. Yo‘lakning har ikki tomonida qoyalarda kamalakrang nurlar jilolanib turardi.

– Gavhar shunaqa tovlanadi, – tajribali zargarlardek

ishonch bilan gapirdi Alamazon. So‘ng hayajondan tovushi titrab, Eshmatni olg‘a yurishga da’vat etdi. – Muqaddas yurish davom etadi, to‘lpoq piyodam. Oldinda – xazina!

Eshmat oyog‘i tortib-tortmay unga ergashdi. Ular oldinga yurganlari sari yo‘lak kengayib bordi, ayni chog‘da zirilloq tovush tobora avjga minayotgandi.

„Bu o‘sha ochko‘z o‘rmanchik! – „Uch qalb“dagi qonxo‘r o‘rgimchakni esladi Eshmat. – Tovushiga qaraganda, og‘zi tandirdan kichik bo‘lmasa kerak“.

Yo‘lak ichidagi harorat qadamma-qadam oshib borayotgani bois ular terga botib ketishdi, bora-bora issiqlik etni achishtiradigan darajaga yetdi, birozdan so‘ng sochlari jizillab kuyayotganini his qilishdi. Nafas olish juda og‘irlashib ketdi.

– Yana o‘n qadam yoursak, sariyog‘ga o‘xshab erib ketaimiz, – issiqliqdan yuzlari qizarib qichqirdi Eshmat.

Alamazon yengi bilan peshanasidagi terlarini artib, yuqoriga – zirilloq tovush kelayotgan tomonga qaradi. Chamasi, issiqlik ham o‘sha tarafdan ufurayotgandi. Devorlarda tovlanayotgan kamalakrang nurlar gavharlardan emas, balki juda baland joyda zirillab yonayotgan qandaydir narsadan taralayotganini u birdan anglab yetdi. Devor terak bo‘yi yuksakkikkacha tik borib, keyin o‘ng yoqqa og‘ib ketgani tufayli nur taratayotgan narsani pastdan turib ko‘rib bo‘lmastidi. Alamazon umidsizlikdan bo‘shashib, asta devorga suyandi, shu zahoti „uh“ degancha yelkasini changalladi. Devor oftobda qolgan temir-dek jizg‘in edi.

– Bu jahannamdan tezroq jilish kerak, – jizg‘in va tap-taqir jahannam haqida buvisidan eshitgan gaplarni eslab, Eshmatning dilidagini aytdi Alamazon. – Jahannamda gavhar bo‘lmaydi.

Shu payt zirilloq tovush keskin susaya boshladi. Devordagi jilokor nurlar ham asta-sekin xiralashib, issiqlik pasayib borayotgandek tuyuldi. Xazina qidiruvchilar nima voqeа yuz berayotganini anglab ulgurmay, yana mo-maqaldiroy yangradi. Tepadan mayda toshchalar do'ldek quyila ketdi. Eshmat suvdonni tashlab yuborib, ikkala qo'li bilan boshini to'sdi. Devorning yuqori qismi o'ng tomonga og'ib ketgani uchun tosh yomg'irlari faqat chap devor bo'y lab yog'ilayotgandi. Bu qulaylikdan foydalan-gan Eshmat birinchi bo'lib o'ng devor yoqalab qochishga tushdi.

Landavurlik kishiga har qadamda pand beradi. Oldinda duppa-durust shataloq otib borayotgan Eshmat birdan toshga qoqinib ketib, yerga chalpak bo'lib yiqildi. Buning ustiga shoshilishda, Alamazon uning qoq belidan bosib o'tdi-yu, endigina o'midan qo'zg'alayotgan Eshmat yana yerga qapishib qoldi.

– Senga nima bo'ldi, Eshmat? – Alamazon tugmachi-rog'ini yerga qo'yib, uning qo'ltig'idan ko'tardi. – Qani, tura qol. Hademay Zimistonsaroya yetvolamiz.

Eshmat inqillab o'rnidan turgach, bir qo'li bilan boshini pana qilib, ikkinchi qo'lini jarohatlangan tizzasiga tiragan ko'yi oqsoqlanib oldinga yurdi. Alamazon engashib, tugmachiroqqa qo'l cho'zdi-yu, hayratdan so'r-rayib qoldi. Devorga qadalib turgan tugmachiroq tosh quyqumlarini surganicha asta sudralib borayotgandi. Alamazon devor-larga diqqat bilan razm soldi. Ikki zabardast qoya bir-biri-ga tobora yaqinlashib kelayotganini ko'rib, yuragi orqaga tortib ketdi. Yo'lakning boshi allaqachon berkilib qolganligini payqagandan keyin yuragi battar gupullab, „Nima bo'lsayam, ichkariga, ichkariga qarab yurish kerak“, degan fikr boshida quyundek charx ura boshladi.

– Eshmat, qayt orqaga! – jon-jahdi bilan qichqirdi u. – Qayt! O'lasan!

„O'lasan!“ degan so'zdan qattiq ta'sirlangan Eshmat hakkalaganicha darhol ortga qaytdi.

– Vey, nima deyapsan? – so'radi u gezarib.

Alamazon vaziyatni lo'nda qilib tushuntirarkan, ikki tarafdan qisib kelayotgan qoya Eshmatning ko'ziga bahaybat og'zini imillab yopayotgan qonxo'r maxluq bo'lib ko'rindi.

Ular halloslaganlaricha yana ichkariga qarab yurishdi. Oqsayotgan Eshmatning qo'ltig'iga kirib olgan Alamazon uni sudragudek bo'lib jadal yurishga undar, tezroq harakat qilish lozim edi.

Alamazon yerda yotgan suvdonni ko'rmay dang'illatib tepib o'tarkan, boyta o'zi jahannam deb atagan joyga yetib kelishganini angladi. Bundan bir necha daqiqa oldin bu yerda arava sig'gulik yo'lak bor edi, endi esa bir qulochcha joy qolgandi, xolos.

Xazina qidiruvchilar changdan yo'tala-yo'tala to'xtovsiz olg'a intilishar, qayoqqa borayotganlarini o'zлari ham bilishmas edi. Ular dunyodagi jamiki lazzatlardan ming marta shirinroq bo'lган hayot ilinjida butun ong va vujudlari bilan oldinga, faqat oldinga intilishayotgandi.

## AJAL PANJASIDA

Kutilmaganda, yuqoridan do'ldek quyilib turgan toshchalar oqimi asta-sekin to'xtab, mayda-mayda iliq suv tomchilari toma boshladи va birozdan so'ng rasмана yomg'iriga aylandi. Chang sepsilib, nafas olish ancha yengillashgan sharoitda xazina qidiruvchilar yanada jadalroq harakat qila boshladilar.

Yovuz qoyalar esa hamon ularni ikki tarafdan qisib kelayotgandi. Yonma-yon yurishning iloji qolmagach, Eshmatga yordam berish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan Alamazon podachidek orqaga o‘tvolib, „Chaqqonroq yur, chaqqonroq!“ – deya yarador piyodasini qistashga tushdi.

Ular yo‘l-yo‘lakay umid bilan oldinga tikilishar, lekin yo‘lakning oxiri ko‘rimmasdi. Bir-biriga judayam yaqinlashib qolgan qoyalar orasida ko‘ndalang yurishga majbur bo‘lishgan mahalda, „Endi tamom bo‘ldik“, deb o‘yladi Alamazon yuragi dukullab.

– G‘orda o‘ladig‘onga o‘xshaymiz! – nafasi bo‘g‘ziga tiqilib xirqiradi Eshmat va bo‘g‘in-bo‘g‘inlaridan bo‘shashib, o‘zini yerga tashladi.

– Nega yotvolding? – Eshmatning yelkasidan tortib qichqirdi Alamazon. – Tursang-chi, to‘nka!

– Tillalaringga qo‘silib gumdon bo‘l endi, – Eshmat bir siltanib, uning qo‘lidan chiqib ketdi. – Menga tegma! Tegma!

Alamazon yig‘lamas, lekin o‘lim dahshati uni ham ancha madorsizlantirib qo‘ygandi. Omadsiz Genri yomg‘irlar sovitib qo‘ygan devorga suyanib, jon talvasasida hiqillab yotgan soxta Frengisga dil-dilidan achinganicha turib qoldi. Bu paytda shundayinam juda xiralashib ketgan kamalak-rang nurlar batamom so‘nib, g‘orni qorong‘ilik qopladi. Bu yanada vahimali edi.

Alamazon tugmachiroqni yoqib, o‘zining poyonsizligi bilan ularni o‘limga mahkum etayotgan berahm yo‘lakka mungli nazar tashladi. Chiroq nuri qoyalar ostini yoritgan damda uning qiyg‘ir ko‘zları so‘nggi umid uchqunidan olmosdek chaqnab ketdi. Bir-biriga yaqinlashib kelayotgan qoyalarning pastki qismi shuvshigan bo‘lib, bu kovak

qadamma-qadam yuqoriga kengayib, ichkariga chuqurlashib borgandi. Alamazon bir qarashdayoq qoyalar jips-lashganda ularning ostida tuynuk hosil bo‘lishini anglab yetdi.

„Bu yerda hosil bo‘ladigan tuynukka odam sig‘maydi, – o‘yladi u, – tezroq oldinga siljish kerak“.

– Biz tirik qolamiz, oshna! – butun g‘orni boshiga ko‘tarib qichqirdi Alamazon. – Joningdan umiding bo‘lsa, oldinga yur!

Eshmat jonidan umidvor edi. U yaradorga xos bo‘lma-gan chaqqonlik bilan o‘rnidan turib, to‘pig‘iga chiqib qol-gan suvni shaloplatganicha oldinga hakkaladi.

– Tezroq, tezroq! – uning yelkasidan tinmay turtkilay boshladi Alamazon. – Lallaymasang-chi, ishma!

Bu bo‘ralashlar o‘z foydasiga aytilayotganini payqagan Eshmat turtkilardan xafa bo‘lmay, jon-jahdi bilan likong-lab borardi. Qoyalar xazina qidiruvchilarning ko‘krak va kuraklariga yaqinlashib qolgan chog‘da Alamazon Esh-matning yelkasiga qattiq musht urdi.

– Yot!

Eshmat gursullaganicha o‘zini yerga tashladi.

– Nega chalpak bo‘lib olding? – yana kuyukdi Alamazon. – Emakla! Boshingni ko‘tarmay emakla, to‘nka!

Ular tobora kengayib borayotgan kovaklar bo‘ylab emaklay ketishdi. Nihoyat, momaqaldiroq kuchayib, ik-kala qoya qarsillaganicha bir-biriga urildi. Yomg‘ir taqqa to‘xtab, hamma yoq birdan jimjit bo‘lib qoldi. Shu sukunat ichida o‘zining tirik ekanligini his qilgan Eshmat sevin-ganidan yana yig‘lab yubordi.

Tuynuk kengaya borib, oxiri kishi tik yursa bo‘ladigan g‘orga aylandi. Ozgina yurishgach, g‘orning bir chetidan tarnov bo‘lib tushayotgan suvni ko‘rishib, chanqovbosti

qilishga oshiqishdi, lekin suv negadir qaynoq edi. Ularning hafsalasi pir bo'ldi. Alamazon cho'ntagini kovlashtirib uch dona qattiq non qalamchasini topdi, ikkitasini Eshmatga berdi.

– Menimcha, Yelkantog‘ orqasidagi biron ta daradan chiqsak kerak, – dedi u nonni huzur qilib so'rarkan.

– Bu tomonlardayam cho'pon-mo'ponlar bordir, – endi uncha oqsoqlanmay borarkan, og'zi suvlashib ming'irladi Eshmat. – Bir pishloqxo'rlik qiladig'on bo'ldik, a?

Alamazon nasiya gaplarga hech qachon „ha“ degan emasdi, bu safar ham indamadi. „Bu ishkambaga ovqat bo'lsa bas, – nonni shimib borayotib, xayolidan o'tkazdi u. – Shundan boshqa sherik qurib ketuvdimi menga?“

Alamazon ko'pincha Eshmatdan nolib yurishiga qaramay, bo'sh vaqtining talay qismini u bilan birga o'tkazardi. Bunga sabab, birinchidan, Alamazon yashaydigan oila qishloq markazidan ancha chetda joylashgan yetti xonodonning biri bo'lib, bu atrofda uning Eshmatdan boshqa tengdoshi yo'q edi. Ikkinchidan, spartaklikka ishtiyoqi baland qahramonimiz o'zining itoatkor piyodalariiga ega bo'lishni tun-u kun orzu qilar, Eshmatning go'l va bo'ysunuvchanligi uning uchun ayni muddao edi.

Eshmat ikkinchi qalamchani ham yamlab bo'lган paytda g'or yorug'lasha boshladi. Bora-bora tugmachiroq yo-qib yurishga hojat qolmadi. Balo-qazolardan omon qolib, bu mudhish g'ordan sog'-salomat chiqib borayotganiga qaramay, Alamazonning ko'ngli g'ash edi.

„Tayyor g'ordan xazina topolmay qaytyapmiz-a, – alam bilan o'yladi u. – He, attang, endi hamma ish davlatning yelkasiga tushadigan bo'ldi“.

## TIRTIQ VA SHILPIQ

Ular g'ordan chiqibоq, hayratdan angrayganlaricha to'xtab qolishdi. Alamazon o'zini yuzlab projektorlar nuri qalashib ketgan ulkan sahna qarshisida turgandek his qildi. Agar bu chindanam sahna bo'lsa, u shunchalar zo'r mahorat bilan bezatilgan ediki, ko'rinib turgan narsalarning hammasi tabiiy ekanligiga kishining ishongisi kelardi. Ufqqa ilohiy tus ato etgan qizg'ish tuman, tuman ostidan siyliqib chiqqan pastqam adirlar va bu adirlar qurshovida yastanib yotgan ko'm-ko'k vodiy kishini ohanrabodek bag'riga chorlar, Alamazon o'zi sezmagan holda bu fusunkor og'ushga tezroq otilishni istab turardi.

G'ordan biroz chetroqdagi bahaybat xarsang ustidan tushayotgan shovvaning guvullashi, shovva ostidan boshlanib,adirning bir parcha kamalakrang tuman butunlay to'sib qo'ygan qismiga singib ketuvchi soy suvining jimirlashi ham tabiiy edi. Faqat sahna ustida charaqlab turgan son-sanoqsiz yulduzlarning soxtaligi yaqqol sezilib turar, bu yulduzlar orasida oyning yo'qligi noma'lum sahna bezatuvchining birdan bir xatosi edi.

Sehrlangandek qotib qolgan xazina qidiruvchilar nogahon shildiray boshlagan toshlar tovushidan seskanib o'zlariga kelishdi. G'orning o'ng tarafidagi jarlikdan qurollangan ikki sipohi chiqib keldi va nayza o'qtalgan ko'yi uch-to'rt qadam narida to'xtalishib, ularga boshdan oyoq razm solishdi.

„Qayerga kepqoldik o'zi? – battar hayratlanib o'yladi Alamazon. – „O'rta asrlar tarixi“-ku bu!“

Sipohilardan biri devsifat qomati borligidan taltaygancha bolakaylarga g'o'dayib boqar, uning oyog'i tagida o'ralashib qolmaslikka tirishayotgan pakanasi esa, qizil

chopon ichida kildirab, kattakon sariq salsa ostida buk-chayib turardi. Novchasining labi tirtiq, pakanasining ko'zi shilpiq edi.

– Xix, tfu!

Uchrashuv marosimi hech bir milliy lug‘atda qayd etilmagan, lekin barcha millatga birdek tushunarli bo‘lgan ana shu „xalqaro so‘z“ bilan ochildi.

– Qimirlama, ho‘p-pa! – tupurib bo‘lgach, tumshug‘i ilgakdek qaytarilgan etigini yerga do‘pillatib buyruq berdi Tirtiq.

– Ho‘p-pa! – takadek irg‘ishlab, chiyilladi Shilpiq ham.

– Ashqal-dashqalingni tashla, xo‘p-pa!

– Ho‘p-pa!

Alamazon gap uning qo‘lidagi tugmachiroq ustida borayotganini fahmlab, „qurol“ini asta yerga tashladi.

– Kimsan ikkalang? Xix, tfu! Nima qilib yuribsanlar bu yerda?

– Nima qilib yuribsanlar, junboshlar?

Rangi bo‘zdek oqarib ketgan Eshmat mung‘ayganicha g‘o‘ldiradi:

– Shunday, aylanib...

„Qochoqlar! Yosh bolalarni qo‘rqtib, xumordan chiqishmoqchi, – g‘ijinib o‘yladi Alamazon. – Senlarga mayna bo‘lish uchun ataylab g‘ordan o‘tib keladigan ahmoq endi tug‘iladi“.

Kir-chir ust-boshlarga burkanib olgan irkit sipohilar ning ahvolini ko‘rib, bular o‘rdani tashlab qochgan askarlar bo‘lsa kerak, deya o‘zicha taxmin qilib qo‘ygandi u.

– Bundan balandroq do‘qlarni ham eshitganmiz, – sipohilarning ko‘ziga tik boqdi Alamazon. – O‘zlaring kim bo‘lasizlar?

Tirtiq baroq qoshlarini naq to‘rt enli yuqori ko‘tarib,

mushukning dumidek keladigan uzun mo'ylovini silaganicha Alamazonga o'qrayib qaradi. Shilpiqning qizg'ish ko'zlar Tirtiq bilan bolalar o'rtasida tinimsiz g'ildirar, chamasi, u sheringining hukmini kutayotgandi.

Chaqchaygan ko'zlar xiyol qisilib, baroq qoshlar tomidan po'stak tashlangandek yana o'rniga qaytib tushgach, Tirtiq „heh“ deb kulib qo'ydi. Bu yerga kelgandan beri rasmiyatçilikka ko'nikolmay betoqat jil panglab turgan Shilpiqqa ko'ngil yozib olish uchun nihoyat, bahona topildi.

– Xix-xix xiy-y-y, – Alamazonga barmog'ini bigiz qilib qiyqirdi u. – Bu junbosh bizning kimligimizni so'rayapti. Endi sen savolga javob berishing kerak. Va-a-a...

U qorin quchib kular kan, baqato'n bosgan hovuzni eslaturvchi ko'zlaridan itbaliqdek lipanglab yosh toma boshladi.

Alamazon esa qo'qqis berilgan ikkinchi zarba bilan ularning xashagini ochib tashlashga urindi.

– Ikkalangiz ham qochoqsiz!

Shilpiqning kulgisi tomog'ida tiqilib qoldi. Tirtiq bu safar pinagini ham buzib qo'ymadi. U, „xiyla ovsar borsanov“, degandek Alamazonga diqqat bilan picha tikilib turdi.

– Yaxshiyamki, qornim to'q, – burnini jiyirib, masxaromuz gap boshladi u. – Yo'qsa, sen zumrashani sixga tortardim-da, bir o'tirishda xomtalash yeb tashlardim. Vox-xox-xo...

– Qornim och bo'lganda, men ham bitta-yarimtangi yeb qo'yardim, – to'tiqushlikni davom ettirdi Shilpiq. So'ng o'zini vahshiy ko'rsatishga tirishib, asirlarga tish g'ijirlatdi. Rangi o'chib ketgan Eshmatning ko'ziga boqib ko'ngli sal taskin topgan bo'lsa, Alamazonning hamon gerdayib turganini ko'rib xo'rlici keldi.

– Senga gap ta’sir qiladimi, surbet? – qo‘rqmaguning-cha qo‘ymayman, degandek jirrakilik bilan Alamazonga yaqinlashdi u. – Hazillashyapti deb o‘ylayapsan-da, a? Sharutta yeb qo‘ysam, attang qilib yurmagan tag‘in.

– E-e, – beparvo qo‘l siltadi Alamazon, – baribir ye-yolmaysiz.

Shilpiq nayzasini jahl bilan yerga do‘qillatib, surnay-day shang‘illadi:

– Nega ye yolmas ekanman, junbosh?

– Odam odamni yemaydi-da.

Chindan ham odamni ye yolmasligi Shilpiqqa judayam alam qildi shekilli, asabiy tipirchilab, ayyuhannos soldi:

– Men... odammasman! Men... ye yeman odamni! Men... men...

– Yum og‘zingni, ho‘p-pa! – kalvakliging bilan mening obro‘yimni ham ikki pul qilding, degandek sherigini jerkib tashladи Tirtiq va o‘sha jahl bilan Alamazonga yuzlanib, jiddiy qiyofada so‘radi:

– Qayoqdan kelyapsanlar, yaramaslar?

Tirtiqning sovuq ko‘zlarida haqiqiy yovuzlik belgisi yaqqol aks etib turardi. Allaqachon tizzasi qaltiray boshlagan Eshmat, „Jon oshnajon, shular bilan o‘chakishmagan“, degandek Alamazonni asta turtib qo‘ydi.

„Robinzonning Jumavoyini tiriklayin yemoqchi bo‘lganlar ham odamlar edi, – o‘yladi Alamazon. – Har holda sal-pal ehtiyot bo‘lish kerak“.

U birdan muloyimlashib, Tirtiqqa samimiy jilmayib qaradi.

– Mana, siz bilan yayrab gaplashsa bo‘ladi, – „poxol solish“ni boshlab yubordi u, – chunki anavi chiyildoqqa o‘xshagan pandavoqi emassiz.

Shilpiq alamdan uvlaganicha ko'k belbog'iga qistirig'liq turgan xanjarga qo'l cho'zdi-yu, sherigining „Kisht!“ deganini eshitib, darrov shashtidan qaytdi. Tirtiq o'z shaxsiga qaratilgan maqtovning davomini eshitish maqsadida Alamazonga umidvorlik bilan ko'z qadadi.

– Zo'r odamligingizni shundanam bilsa bo'ladiki...

„Maugli“dagi lagabardor chiyabo'ri Taboqiga taqlid qila boshlagan Alamazon Tirtiqni zo'r berib shishirishga tushdi. Tirtiq boshidan do'ldek yog'ilayotgan poyma-poy maqtovlarni hech bir o'ng'aysizlanmasdan qabul qilar, Shilpiqning esa hasaddan ko'zlar suzilib borayotgandi. U „Ko'rmayin ham, kuymayin ham“ degandek, maqtovxo'r sherigidan uzoqlashib, tevarakda bir zum ivirsib yurgach, Eshmatni sekingina yoniga imladi. Eshmat oyog'i qaltiraganicha unga yaqinlashdi.

– Menden qo'rqa sanmi, yo'qmi? – ko'zlarini soqqadek o'ynatib, past tovushda o'dag'ayladi Shilpiq.

Eshmat yelkasi yonidan Alamazon tarafga mo'raladi. U avvallari ham, ya'ni matematika o'qituvchisi qaltisroq savol bergen paytda, Alamazonga ana shunday umidvorlik bilan qarab qo'yardi. Hamrohining Tirtiqqa „poxol solish“ bilan ovora ekanligini ko'rgan Eshmat, bo'ynini qisganicha asta ming'irladi:

– Qo'rqa man.

Undan ham qo'rqa digan odam borligidan sevinib ketgan Shilpiq shosha-pisha yana bir pog'ona yuqori ko'tarildi.

– Seni yeb qo'ysammikin?

– Meni yemang, jon tog'ajon!

– Mayli, yemayman, – darrov muruvvat qila qoldi Shilpiq.

– Rahmat, tog'ajon. Judayam yaxshi odamga o'xsha-yapsiz.

Alamazonning Tirtiqqa tinmay uzatib turgan „masalig‘i“ga nisbatan ancha ta’msiz bo‘lsa-da, bu ham har holda maqtov edi. Shilpiqning chehrasi yorishdi.

Yaxshi gap bilan itning og‘zidan suyakni olish mumkinligiga ishonch hosil qila boshlagan Alamazon bu vaqtida Tirtiqni haddan ziyod yalpaytirib tashlagandi.

– Yomon bolaga o‘xshamaysan, – mammun lab yalab qo‘ydi, maqtovlardan qorni to‘yan Tirtiq. – Lekin, xafa bo‘lma-yu, baribir sizlarni xufiya ishlar boshlig‘i Fisqiddin Makru Marazning ixtiyoriga topshirishimiz kerak. Vazifamiz shunaqa, xix, tfu!

– Nega endi?

– Chunki ikkalang Ajdaroboddan yuborilgan josussanlar. Aytmasanglar ham aqlim yetib turibdi.

„Ajdarobod yana qayer bo‘ldi? – o‘yladi Alamazon, – „O‘rta asrlar tarixi“da bunaqa joy yo‘q edi, shekilli“.

– Yana uch kundan keyin o‘rnimizga boshqa soqchilar kelishadi, – davom etdi Tirtiq. Keyin g‘orning quyirog‘idan boshlangan chakalakzor o‘rtasida elas-elas ko‘zga tashlanib turgan kulba tomonga qo‘l cho‘zib dedi:

– Ungacha ho‘ o‘sha hujrada, Humo Xartum bilan yashab turasanlar.

– Kim u... Humo Xartum?

– Jinniroq bir chol, – xiyol tirjayib qo‘ydi Tirtiq. – Bir paytlar hamma unga egilib salom berardi. Keyin, omadi ketdi-yu, hamma uni masxara qiladigan bo‘ldi. Xix, tfu! Senlarni unga qo‘shmaslik kerak edi-yu, boshqa iloj yo‘q. U jinnining aljirashlariga qulq solmanglar.

Tirtiq sherigini poyloqchilikda qoldirib, tutqunlarni so‘qmoqdan pastga boshladи.

– Qani, ketdik, ho‘p-pa!

- Ho‘p-pa! – quvlik bilan uning gapini takrorladi Alamazon va Eshmatga qarab qichqirdi:
- Shimni balandroq ko‘tar, to‘lpoq piyodam. Muqadas yurish davom etadi. Oldinda – Humo Xartum!

## HUMO XARTUM

Humo Xartum deganlari mirzaterakdek novcha va ingichka bir chol ekan. Uning noksimon kallasi bo‘yin ustida emas, yelkalari orasida qistirig‘lik turganga o‘xshardi. Sipohi bolalarni ergashtirib hujraga kirib borganda u qandaydir juldur kitobni shosha-pisha taxmon ustiga qo‘yayotgan edi.

– Qalaysan, chol? – do‘rilladi Tirtiq. – Ajdarobodlik josuslarni ushладик. Kulbangda kun ko‘rib turishar. Keyin bularni Tandirga olib ketamiz.

„Tandir“ so‘zini eshitib kapalagi uchgan Eshmat ko‘zi jovidirab Alamazonga qaradi, uning beparvo turganini ko‘rib, g‘ashi keldi.

Chol josuslarga razm solmoqchi bo‘ldi-yu, lekin ochiq eshikdan tushib turgan nурдан ko‘zi qamashib, ularning aft-angorini tuslab ololmadi.

– Senga aytib qo‘yay, bularing juftakni rostlab qoladigan bo‘lishsa, ketidan quvib yuradigan ahvolim yo‘q, – javobgarlikni bo‘ynidan soqit qildi Humo Xartum.

– Qayoqqa ochishardi, – „xix“ deb qo‘yib, qayerga tupurishini bilmay turgach, bir yutinib, so‘zda davom etdi Tirtiq. – Issiqtg‘orning og‘zida biz turibmiz. Ajdarobodga boradigan bitta-yu bitta yo‘l – Qoratuynuk. U yerni posh-sholikning kamonchilari qo‘riqlashyapti.

Chol qovog‘ini uyib, boshini quyi soldi. Chamasi, josuslarni saqlab berishdan ko‘ra zarurroq ishlari ko‘p edi.

Tirtiq bolalarni tashqariga chiqarib yuborib, cholga tugmachiroqni uzatdi.

– Josuslardan o‘lja oldik. Sandiqqa sopqo‘y.

Sipohi chiqib ketgach, chol tugmachiroqni qiziqib ko‘zdan kechira boshladi. Uni avval qulog‘iga yaqin tutib silkib ko‘rdi, so‘ng shishasini avaylab chertdi, oxiri botinib-botinmay tugmachani bosdi. Hujra devorida chaqmoq chaqnagan-dek bo‘ldi-yu, chol chiroqni qo‘lidan tashlab yubordi. Picha o‘ylanib turgach, miyasida qo‘qqis paydo bo‘lgan fikrdan qattiq hayajonga tushib, halloslaganicha tashqariga chiqdi. U bolalarni sinchkovlik bilan boshdan oyoq ko‘zdan kechirdi, kela solib Eshmatning ko‘ylak va shiminini siypaladi, uning oyog‘idagi botinkaga butun diqqatini berib tikildi.

– Qayoqdan keldilaring? – Eshmatga murojaat qilayotgan onda uning xira tortgan ko‘zлari bir lahza yorqin chaqnab ketgandek bo‘ldi.

– Biz... biz... – g‘o‘ldiradi Eshmat. – Shunday...

– Sizga aytishdi-ku, – Eshmatning joniga oro kirib, gapga aralashdi Alamazon. – Ajdarobodlik josuslarmiz.

– Yolg‘on! – Alamazonga o‘girilib qichqirdi chol.

Alamazon Tirtiq bilan suhbatlashib o‘tirgan paytdayoq o‘rta asr timsolidagi qandaydir boshqa bir olamga kelib qolishganini anglab yetgan, masala ravshanroq bo‘lgunga qadar o‘zimiz haqda hech narsa gapirmay turish kerak degan qarorga kelib, buni yo‘l-yo‘lakay Eshmatga ham shipshitib qo‘ygandi.

– Bo‘lmasa, qayerdanmiz? – nahotki, bu telba biron narsani payqayotgan bo‘lsa, degandek xavotirlanib so‘radi Alamazon.

– Yolg‘on gapiryapsan! – uzun va qaltiroq barmog‘ini Alamazonga bigiz qildi chol. – Sizlar yorug‘ dunyoning odamlarisiz!

Qiziq-ku, – jilla pinak buzmay zARBANI daf qildi Alamazon. – Yorug‘ dunyo deganingiz nimasi?

Eshmat ham qatordan qolmaslik uchun „iye-iye“ deb qo‘ydi, so‘ng ko‘zini choldan olib qochib, ustma-ust burun tortdi.

Sallamno-o-o! – yoqa ushlab Alamazonga termildi chol. – Shu yoshingda-ya? Boshing omon bo‘lsa, sendan vo nomdor arbob, yo bedavo kazzob chiqadi. Toshasablibing, surbetliging shundan dalolat berib turibdi.

Alamazonning allaqachon to‘qsonni urib qo‘ygan bUVisi, „Bu mahmadana qirq yoshli odamning gapini gapiradi-ya“, deb kuyunishida jon bor edi. Keksaqari bu bolakay „taqiqlangan“ kitoblardan birmunchasini o‘qib chiqishga ulgurgani, xatti-harakati va nutqida o‘sha kitoblardagi qahramonlarga taqlid qilishni yoqtirgani uchun bo‘lsa kerak, ko‘pincha o‘zini vazmin, salobatli tutar, yoshiga xos bo‘lmagan balandparvoz gaplarni toblab-toblab ishlatardi. Lekin o‘yin qaroqlik va xayolparastlik, baribir, uning bolaligini oshkor qilib qo‘yardi.

Humo Xartum qovog‘ini uyib, sekin orqaga burildi. Tuyadek lo‘killab hujrasiga kirib borarkan, ostonada bir zum to‘xtalib yana ortga o‘girildi-da, alamzadalik bilan dedi:

– Marhum otamni chaqimchi sifatida hamma yomon ko‘rardi. Otam qoldirgan meroslardan faqatgina uning shu xislatini olmaganman. Yashirgilaring kelayotgan bo‘lsa, mening ham hech kimga indamaganim bo‘lsin. Lekin sizlarning yorug‘ dunyo odamlari ekanligingiz Ona yulduzning boqiyligi kabi haqiqatdir.

Shunday deya u ichkariga kirdi va qorong‘i hujra ichra bir lahza ko‘zga chalinib turgach, tosh devor qa‘riga sharpa misol singib ketgandek tuyuldi.

– Voy jinni-ye, yorug‘ dunyodan kelgansizlar deydi-ya, – ming‘irladi Eshmat. – Nima, hozir u dunyoda yuribmizmi?

– Biz tomonlarni bular „Yorug“ dunyo“ deb atashsa kerak, – dedi cholning ketidan parishon tikilib qolgan Amazon. – Ammo, bu chol jinni emas.

– Gapirasan-da, – qo‘l siltadi Eshmat. – Ko‘rmadingmi, sal bo‘lmasa botinkamni yechvolardi.

– To‘nka! – Eshmatning anqovligidan achchiqlandi Amazon. – Gamletni ham esi ko‘pligi uchun jinni deyishgan. Choldan kechirim so‘rash kerak, bildingmi?

U sheringining javobini kutib o‘tirmay, hujraga qarab yurdi. Eshmat shumshayganicha unga ergashdi.

– Bizni kechiring, Humo Xartum, – dedi Amazon, ostonadan hatlayotgan Eshmatni ham qatorga qo‘sib. – Biz...

– Meni ismim Humo Xartum Ali Abdurahmon, – uning gapini bo‘ldi chol. – Sen meni „hazrat Humo“ deb chaqir. Chunki men shu mamlakatdagi jamiki o‘rmalagan zot-u, ularning podshohidan ham ming karra aqlliman.

Eshmat, „aytmovdimmi“, degandek Amazonga ma’nodor qarab qo‘ydi.

– Biz yorug‘ dunyoning farzandlarimiz, – faxr bilan ma’lum qildi Amazon. – Siz to‘g‘ri topdingiz, hazrat Humo.

Chol yarq etib bolalarga qaradi. Chamasi, qaysar-padarlarning bunchalar tez insofga kelishini kutmagandi. Hayajondan ko‘zlariga yosh to‘lgan hazrat Humo tutqunlarni qayta-qayta quchoqlab, galma-gal o‘pa ketdi. U yorug‘ dunyo, quyosh, oy, ko‘m-ko‘k osmon va chiroyli bulutlar haqida pala-partish savollar berar, goh mehr to‘la ko‘zlarini bolalarga qadaganicha birpas jimib qolar, ora-

„ishqilib, men miyasi aynigan qariyani aldamayap-  
alarni“, deya so‘rab qo‘yardi.

Shu g‘ordan bir kunmas bir kun yorug‘ dunyo odamlari kelishini bilardim, – chol ko‘z ostidagi ajinlar-  
ga to‘planib qolgan tiniq yoshni artib, mungli jilmaydi. –  
‘Shu bois, quvg‘indi bo‘lganimdayoq to‘g‘ri shu yerga –  
Eng‘orga yaqinroq joyga ko‘chib keldim. Lekin yorug‘  
dunyo odamlarini ko‘rish menga nasib qilmay qolishidan  
qo‘rqardim. Axir, necha zamonlardan beri bu g‘ordan biz  
tomonga hech kim o‘tib kelmagan.

Mana, biz keldik, – boshqalar eplay olmagan ishni biz  
uddaladik, degan ohangda gap qotdi Alamazon.

– Dohiy eshakka sallamno, – deb qo‘ydi chol tovushi  
qaltirab va shu zahotiyoy qo‘l siltadi. – Til qurg‘ur o‘rga-  
nib qolgan-da. Men ham boshqalardek ahmoq bo‘lib, bir  
umr shu zotipast maxluqqa sig‘inib kelibman-a.

– Qanaqa maxluqqa? – Alamazon cholning og‘ziga  
tikildi.

– Eshakka-da.

Hazrat Humoning es-hushi joyidaligiga hanuz shub-  
hada bo‘lgan Eshmat, uning bu gapidan keyin „Endi  
ishongandirsan“, degandek Alamazonga zimdan qarab  
qo‘ydi.

– Eshakka deysizmi? – Eshmatning ishorasiga parvo  
qilmay, taajjublanib so‘radi Alamazon.

– Bizning Yulduzistonda hamma eshakka sig‘inadi, –  
afsus-nadomat bilan bosh tebratdi chol. – Bobokalonla-  
rimiz dastlab bu yerga kirib kelishgan paytda o‘z dini, o‘z  
Xudosini chala-chulpa taniydigan yoshda bo‘lishgan...

Chol gapini tugatmay, o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

– Ha, mayli, bu to‘g‘rida keyinroq gapirib berarman.  
Avval sizlarni mehmon qilishim kerak. Ataylab yorug‘

dunyodan kelib, Humo Xartum Ali Abdurahmonning ziyofatida bo‘lmaslik – uyat.

Mehmonlar ham bu marosimni orziqib kutishayotgan di. Dasturxonga non, yaxna go‘sht, turshak va meva qon tortilib, uchta bo‘s sh kosa bilan jigarrang suyuqlik to‘ldirilgan ko‘za keltirib qo‘yildi. Hazrat Humo choy deb uzatgan sovuq ichimlik limonli qandchoyni eslatardi.

Ziyofat davomida mehmonlar churq etmay o‘z vizi falarini sidqidillik bilan va kutilganidan birmuncha 100 uddalashdi. Ularni uzlusiz ravishda choy bilan ta‘minlab turgan mezbon bolalarning ism-shariflarini so‘rab olishga zo‘rg‘a botindi. Birozdan so‘ng dasturxonda ushoq, suyak va danaklargina qoldi. Yorug‘ dunyoliklar mevaqoqlarini hech bir chiqindisiz tanavvul qilishdi.

– Hazrat Humo, ishqilib, bor-budingizni talamon-tandir qilmadikmi? – qorni to‘ygandan keyingina cholning iqtilsodiy ahvoli bilan qiziqli Alamazon.

– Juldur choponda bo‘lsam ham, sizlarga o‘xshagan mehmondan yana o‘ntasini boqishim mumkin, – kosadagi choyni ho‘playotib kulib qo‘ydi chol. – Hozir sizlarni o‘zimning xo‘jaligim bilan tanishtiraman. Keyin Yulduziston to‘g‘risida gaplashsak ham bo‘ladi.

Bolalar cholga ergashib tashqariga chiqishdi. Ular chakalakzor oralab borisharkan, hazrat Humo shakarqa mishga o‘xshagan o‘simlikni ko‘rsatib, uning choy ekanligini aytdi. Bu o‘simlikning bir parchasi sovuq suvgan tashlab qo‘ylsa, butunlay erib, tap-tayyor choy hosil bo‘larkan.

Picha yurishgach, chakalakzor tugab, bug‘doyzor boshlandi. Qizig‘i shundaki, bu mamlakatda ekin sug‘orish, don sochish degan gaplar yo‘q ekan. Bug‘doylar o‘zi unib chiqib, o‘zi pishib yotaverarkan.

Onqaga qaytib kelishgandan keyin chol hujra yonidagi qo‘llegirmonda bug‘doy tortib ko‘rsatdi. Qo‘llegirmondan picha narida qaynoqbuloq bo‘lib, yulduzistonliklar go‘shtini to‘p’ridan to‘g‘ri shu buloqda pishirishar, xamirni ham avvalda qorisharkan.

Buloqning suvi salgina sho‘r bo‘lgani uchun masal-hiqning tuzini o‘zi rostlab qo‘ya qolarkan.

Mamlakatda yuzlab mana shunaqa buloqlar bor, – izoh berdi chol. – Buloq qayerda ko‘p bo‘lsa, o‘sha joyda odamlar zinch yashashadi.

Buloqning yonginasiga qo‘yilgan ko‘ktoshning ajoyib surasiyati bo‘lib, u kechqurunlari ilimiliq turar, kunduzi esa haddan ziyod qizib ketar, yulduzistonliklar nonni shu toshliga yopar ekanlar. Bunday toshlarni o‘sha Issiqtarning tepe qismidan ko‘chirib kelisharkan.

„Bu toshga go‘sht yopib yesang, rosayam mazza bo‘ladidi da“, deb o‘ylab qo‘ydi Eshmat, so‘ng o‘sha masal-hiqning manbayini surishtirdi. – Go‘shtni qattan olasiz, hazrat Humo?

Chorvam yo‘q, – javob qildi chol. – Lekin bu yerda parrandalar ko‘p. Ularga tuzoq qo‘yaman.

Chol qo‘li bilan soy tarafni ko‘rsatib, qo‘shib qo‘ydi:

Bu tomonlar mevazor. Bekorchilikda bir aylanib kesizsizlar.

Bu yerda hech kim och qolmas ekan, – atrofga havas bilan qarab qo‘ydi Alamazon. – Faqat, qishga ko‘proq don yamlab olishingiz kerak, hazrat Humo. Xohlasangiz, biz yordam bervoramiz.

Qish? Nima u? – so‘radi chol.

„Nahotki, bu yerda qish ham bo‘lmasa?“ – deya taajublanib o‘yladi Alamazon va dars berayotgan muallim-dek o‘zini erkin tutib, zavq-shavq bilan tushuntira boshladи:

– Qish, bu – qahratton. Havo sovib ketadi, yer muzlaydi, ekin-u maysalar quriydi, daraxtlar yoppasiga barg tashlaydi. Odamlar besh qavatdan kiyim kiyib olishsayam, tishlarini takillatib dildirayverishadi, dildirayverishadi.

– Bizda sovuq va issiq suv bor, ammo sovuq havo yo‘q, – o‘z mamlakati nomidan gapira boshladi chol ham, – Yulduzistonda hech bir ekin yoppa qurib ketmaydi, hech bir daraxt butkul yalang‘ochlanib qolmaydi. Bug‘doyzorda bitta poya qurisa, yonidan boshqasi unib chiqadi, daraxtdan qovjirab uzilgan barg o‘rnini endigina nish urib kelayotgan yangi kurtak egallaydi.

„Zap g‘alati mamlakat ekan-da, – o‘yladi Alamazon. – Yorug‘ dunyo odamlari buni sezib qolgudek bo‘lishsa, qu-log‘imni garovga tikib aytamanki, yopirilib kelishadi. Ana o‘shanda, hatto mehmondo‘st hazrat Humo ham bir paytlar g‘or og‘zida ularning yo‘lini poylab o‘tirganidan qattiq pu-shaymonlangan bo‘lardi“.

Alamazon bu g‘aroyib mamlakat haqida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lishga oshiqar, chol aytib berishni va’da qilgan Yulduziston mavzusidagi hikoyaning boshlanishini sabrsizlik bilan kutardi.

Hazrat Humo yorug‘ dunyoliklarni hujraga taklif qildi.

## QO‘TIRLAR SULOLASINING INQIROZI

Humo Xartum shahanshoh Qo‘tir To‘rtinchining hukmronligi davrida tug‘ilib voyaga yetdi. Uning otasi saroya bosh ayg‘oqchi lavozimini egallab turgani uchun, ular mashhur la’l qasrning shinam xonalaridan birida istiqomat qilishar va shahanshohlik tomonidan yaratilgan qator imtiyozlardan bahramand edilar. Humo hukmdorning yakka-yu yagona o‘g‘li Qo‘tir Beshinchi bilan tengdosh bo‘lib, ular

saroyda bir ustoddan ta’lim olishar, bo‘sh vaqtlarini doimo birga o‘tkazardilar.

Qo‘tir Beshinchchi yigirma bir yoshga to‘lgan paytda otasi og‘ir kasallikdan vafot etdi, o‘g‘il taxtga o‘tirdi va ertasi kuniyoq Humo Xartum Ali Abdurahmonni bosh vazirlik mansabiga tayinladi. Podshoh ko‘pchilik bilan ken-gashmay turib, mamlakat miqyosida hech bir ishni amalga oshirmsadi. O‘zining mulohazaliligi va tadbirkorligi bilan keyinchalik hazrat Humo deb nom olgan bosh vazir uning birinchi maslahatchisi edi.

Qo‘tir Beshinchining qirq yillik hukmdorlik davrida yurt farovonlashib, viloyatlar ko‘rkamplashdi, ilm-u fan sohiblari qadr topib, ma’rifat yuksaldi, ma’murchilik oshib, qurilishlar avj oldi.

Yulduziston ikki yirik viloyatdan iborat bo‘lib, shulardan biri – Tandir o‘zining oltin saroy va la’l qasrlari, ko‘rkam kumush binolari, gavhar favvoralari, son-sanoqsiz marmar haykallari bilan ajralib turardi.

Ikkinchi viloyat – Ajdarobod esa, asosan, Qo‘tir Beshinchining hukmdorlik davrida kengaydi va obodonlashdi. Bu xushmanzara joydagi pastqam toshkapalar o‘rnida yaraqlagan kumush va marmar binolar qad ko‘tardi.

Yaylovlarda, chakalakzorlarda tarqoq holda yashab keelayotgan oilalarning asosiy qismi markaz atrofida to‘planib, viloyat aholisi keskin ko‘paydi.

Baland, sip-silliq qoyalar tizmasidan iborat bahaybat devor Tandir bilan Ajdarobodni bir-biridan ajratib turar, viloyatdan viloyatga faqat Qoratuynuk deb ataluvchi ulkan tuynuk orqaligina o‘tish mumkin edi.

Don, go‘sht, meva va kanop mamlakatning asosiy boyligini tashkil etib, asosan, Tandir shahri atrofida uyulib

yotgan la'l, oltin, gavhar singari yarqiroq toshlardan saroj qasrlarini bezash, taqinchoqlar yasash uchungina foy-dalanilardi. Yulduzistonning eng qadrli moli kanop edi. Kanop Ajdarobod va Tandir viloyatlarining juda kichik qismida o'sar, biror o'simlikni ko'chirib ekish, ekin maydonini kengaytirish bu mamlakatda hali odat tusiga kir-magandi. Bo'zchilar kanopdan yupqa va qalin gazlamalar to'qishib, ularni turli giyohlar yordamida har xil ranglarga, jumladan, oq rangga ham bo'yar edilar.

Aholining katta qismini dehqon, chorvador va sohibkorlar tashkil etar, bu yurtning kosib-hunarmandlari bo'zchi, me'mor, naqqosh, miskar, duradgor, kulol, etik-do'z, bichuvchi kabilardan iborat edi. Sozanda, xonanda, shoir, suratkash, haykaltarosh, ayniqsa, tabiblar el ichida eng nufuzli kishilar hisoblanishardi.

Qo'tir Beshinchı uzoq vaqtgacha farzand ko'rmadi. Uning xotini malika Maston bosh lashkarboshi Burbulit Idrik Ibrohimning opasi bo'lib, judayam ustomon va mug'ambir ayol edi.

Shahanshoh oxiri Ajdarobod viloyati hokimi Nodim Ulug'ning yosh va suluv singlisi malika Ruzvonga uylan-di. Saroya yosh kelin paydo bo'lgandan keyin, taqdirning taqozosi bilan, malika Maston ham kutilmaganda homilador bo'ldi-yu, malika Ruzvonning ko'zi yorishidan uch kun avval uni ham to'lg'oq tutdi. Shunday qilib shahanshoh birin-ketin ikkita o'g'il ko'rdi. Kattasini Fonus, kichigini Feruz deb atay boshladilar.

Malika Maston shundan keyin boshqa farzand ko'rma-di, malika Ruzvon esa yana bitta qizlik bo'ldi. Unga Xazina deb ism qo'yishdi.

Qari va johil malika Mastonning haddan ziyod taltang-latishi natijasida shahzoda Fonus ishyoqmas, injiq va ovsar

bo‘lib ulg‘aya boshladi. U yuz-qo‘lini yuvish, yechinib-ki-vinish, hatto burniga kelib qo‘ngan pashshani haydashga ham erinar, muallimlardan yuz dimog‘-firoq bilan saboq olar, kamon otish va qilichbozlik mashqlaridan umuman bosh tortardi.

Shahzoda Feruz, aksincha, bosiq, odobli va tirishqoq edi. Uning suxandonligi, zehn-farosatining o‘tkirligi saroy olimlarini hayratga solardi. U o‘n yoshidayoq kammon o‘qini halqaga bexato sanchadigan bo‘ldi, o‘n bir yoshida qilichbozlik san’atini puxta egallab, ustodlarini ham qoyil qoldirdi. Uning aniq va chaqqon harakatlari bir paytlar Yulduzistonagi eng shovvoz qilichboz hisoblangan Barri Barakaning takrorlanmas uslublarini eslatardi.

Singlisi Xazina esa o‘zining qo‘g‘irchoqday yoqim-toyligi, shirinso‘zligi va pokiza xulq-atvori bilan saroydagilar mehrini qozongandi.

O‘g‘illari o‘n ikki yoshga to‘lganda Qo‘tir Beshinchı qo‘qqisdan vafot etdi. Shundan so‘ng toj-taxt talashishlar boshlandi. Shahanshoh taxtni Feruzga vasiyat qilib qoldirgan bo‘lishiga qaramay, bosh lashkarboshi Burbulit Idrik Ibrohim o‘z jiyanini yoqlab chiqib, Feruz Fonusdan uch kunlik kichik, mamlakat taqdirini mushtdek bolaga ishonib topshirish aqldan emas, degan da’voni ilgari surdi.

Bosh vazir Humo Kartum Ali Abdurahmon, Ajdar-obod viloyati hokimi Nodim Ulug‘ va shu viloyat lashkarboshisi Palaxmon polvonlar shahanshohning vasiyati buzilmasligi kerakligini talab qilishdi. Lekin xufiya ishlar boshlig‘i Fisqiddin Makru Maraz, bosh ayg‘oqchi Isom Ittu Iskabtopar, Tandir viloyati hokimi Hoshim Heziddin Xum va ana shu viloyat lashkarboshisi Shalamon Shildir kabilardan iborat nufuzli kuchlarni o‘z atrofiga to‘plab

olgan Burbulit oxiri g‘olib chiqib, taxtni shahzoda Fonus egallaydigan bo‘ldi.

Bundan qattiq ranjigan Nodim Ulug‘ singlisi va jiyonlarini olib Ajdarobodga jo‘nadi. Palaxmon polvon o‘z lashkarlari bilan unga ergashdi. Shu tariqa Yulduziston o‘z tarixida ilk bor ikki hokimlikka bo‘linib, Tandir va Ajdarobod viloyatlari o‘rtasida qo‘riqlanadigan chegara paydo bo‘ldi.

– Mana, ikki yildirki, kuminiz o‘sha injiq go‘dakka qolgan, – chuqur xo‘rsinib qo‘ydi Humo Xartum. – Bu davr ichida oddiy avomning ahvoli juda og‘irlashib ketdi. Yangi podshoh eng serhosil mevazorlarni, eng sero‘t yaylovlarni, eng bo‘liq bug‘doyzorlarni o‘z arbob-ula-molariga taqsimlab berdi. Saroydagagi bir to‘p laganbardor mashshog‘-u shoirlarni hisobga olmaganda, ilm-u fan ahli xor bo‘lib, san’atkorlarni hech kim qadrlamay qo‘ydi. Yurtimizning o‘tmishini o‘zida mujassamlashtirgan shohna san’at asarlarini o‘qish, o‘qitish taqiqlab qo‘yildi. Yurt iflos xandaqqa, yetti pushti pokiza o‘tgan xalq irkit maxluqqa aylandi. Xullas, Isqirt Birinchining poyqadami el-yurt uchun qutlug‘ kelmadni.

– Isqirt Birinchi dedingizmi? – so‘radi Amazon. – Kim u?

– Bu o‘sha Fonusning yangi dabdabali ismi, – zahar-xandalik bilan so‘z qotdi chol. – Mamlakatning tobora gul-lab-yashnashiga sababchi bo‘lgan Qo‘tirlar sulolasini tugab, yurtga faqat pushtsizlik, isnod keltiruvchi Isqirtlar davri boshlandi.

– Yetti pushti pokiza o‘tgan xalq! – cholning boyagi gapini alohida urg‘u bilan ta’kidlab, o‘ylanib qoldi Amazon. – Yetti pushti pokiza...

## ISQIRTLAR MAMLAKATI

Toj-taxt uchun boshlangan mojaro Burbulit tarafdori foydasiga hal bo‘lgan kuni quvonchdan o‘zini saroyga sig‘dirolmay qolgan malika Maston omadli shahzoda Fonusni o‘pib-yalab erkatalishga tushdi.

– Ertaga ertalab senga toj kiydirishadi, shiringinam, – ro‘molchasi bilan endilikda Qo‘tir Oltinchiga aylangan Fonusning burnini arta turib gap boshladi malika. – Endi oldingda hamma yetti bukilib ta’zim qiladi, sen bo‘lsang kekkayib turaverasan. Kekkayib turgin, xo‘pmi?

– Tog‘am ham menga ta’zim qiladimi? – zavqlanib ming‘irladi Fonus.

– Burbulitmi? – o‘z ukasining nomini nazar-pisandsiz tilga oldi malika. – Buyursang, oyog‘ingni yalaydi.

Shundan so‘ng malika unga hammomda yaxshilab yuvinib olishi lozimligini aytdi. Fonusning kapalagi uchib, bunga o‘lsa ham rozi emasligini ma’lum qildi. Malika odamlarning ko‘ziga shu ahvolda ko‘rinish uyat ekanligini uqtirib, hech bo‘lmaganda yuz-qo‘lingni yuvib olishing kerak, deb turib oldi. Fonus malikaning yuragiga g‘ulg‘ula solib, yuvinadigan bo‘lsam, podshohlik qilmayman, deyishgacha borib yetdi. Bu mojaroning ustiga Burbulit kelib goldi.

– Yuvin degandan keyin yuvingin-da, – xotin bilan erkakning gapi o‘rtasida ot bilan eshakcha farq borligini opasiga ko‘rsatib qo‘yish uchun jiyanini dabdurustdan o‘dag‘aylashga tushdi u. – Ertaga toj kiyasan-a, tirmizak!

– Bor, toshingni ter! – kutilmaganda unga shang‘illab berdi Fonus. – Toj kiyganidan keyin senga oyoqlarimni yalashni buyuraman.

Burbulit Idrik Ibrohimdek takabbur va sovuqqon banda bu gapni eshitib, xiyla dovdirab qoldi. U o‘zining qarshisida tirmizak bo‘lishiga qaramay, agar istasa, ertaga chindan ham kir oyoqlarini yalatishi mumkin bo‘lgan hukmdor turganini chuqur his qildi.

– Nimalar deyapsiz, jiyan? – tezdayoq hovridan tushib, jiyanini umrida birinchi marta sizlay boshladi Burbulit. – Shunchaki jigarchilik qilib aytdik-qo‘ydik-da. Xohlasangiz yuvining, xohlamasangiz...

– Xohlamatayman!

– Balli! Mana bu haqiqiy shahanshohning zardasi, – Burbulit soxta tirjayish bilan malika Mastonga yuzlandi. – Hali ko‘rasiz, opa, jiyanimdan shunday bir hukmdor chiqadiki, bunaqasini hali ko‘hna Yulduziston ko‘rmagan, qaytib ko‘rmaydi ham.

Bu gapdan so‘ng Fonus ancha yumshadi.

– Sizni bosh vazir qilib olsam kerak, – dedi u Burbulitga napisand boqib.

– Voy, „Olsam kerak“ deganing nimasi, shiringinam? – o‘g‘lini yengil-yelpi tergab qo‘ydi malika. – Seni taxtga o‘tqizguncha tog‘ang ozmuncha kuyib-pishdimi? Yuvinib ol, degani – senga jon tortishgani. Saroydagilar jiyanining isqirtligidan kulishmasin deyapti-da.

– Kulishadi? – xonani boshiga ko‘targudek bo‘lib shang‘illadi Fonus. – Unda men o‘shalarning o‘zlariniyam yoppasiga isqirt qilaman!

Ertasi kuni u ishni shundan boshladi. Toj kiydirish marosimi tugagach, taxtga durustroq o‘rnashib ulgurmey, o‘zining dastlabki farmonini e’lon qildi. Farmon juda qisqa bo‘lib, unda: „Viloyatdagi hamma hammomlar ayamasdan majaqlab tashlansin!“ deyilgan edi. Shahanshohlikning bu keskin tadbiri tufayli mamlakatga keladigan naf nimadan

iborat ekanligini tushunolmay qolgan arbob-ulamolar o‘zaro visir-visirni boshlab yuborishdi.

Jim! – taxtdan yiqligudek bo‘lib qichqirdi yangi xo‘pon. – Hammang bilib qo‘y, buguncha indamayman, er-tadan boshlab kir-chir yurmagan odam saroyda ko‘zimga ko‘rimmasin. Bu – bittasi. Ikkinchisi – men endi shahzoda Fonus ham, Qo‘tir Oltinchi ham emasman. Men – Isqirt Birinchiman. Hammang shunaqa deb chaqirasan! Xo‘s, qaysiningda gap bor?

Hech kim churq etmadidi. Endilikda bosh vazirlik lavozimi ni egallab turgan Burbulit Idrik Ibrohim rangi oqaribroq ket-gan bo‘lishiga qaramay, xoqonga sipolik bilan ta‘zim qildi.

Saroyning ertangi kunidan ko‘ngli to‘q xoqon endi mamlakatdagi avomni tartibga solish haqida qayg‘ura boshladidi. Birozdan so‘ng o‘nlab jarchilar bozor va guzarlarda shahan-shohlikning yangi farmonini ovoza qilishga tushishdi:

– He-he, he-e-ey! Esliklar-u nodonlar, xafalar-u shodonlar, go‘ng hidlagan cho‘ponlar, gul hidlagan juvonlar, eshitmadim demanglaro-o-v! Isqirt Birinchi padari oliylari mamlakat aholisiga katta g‘amxo‘rlik ko‘rsatib, bugundan e’tiboran ularni yuvinish va cho‘milishdek mushkulotdan butunlay ozod qiladilar. Avomga berilgan bu ulgurji imtiyozdan bahramand bo‘lmay, o‘zining pokiza badani bilan shahanshohlikning saxovatini haqorat qilgan yurt g‘animlari darhol qamoqqa olinib, tavbasiga tayanganicha do‘pposlanadi. Qasddan yuvinayotgan yoki cho‘milayotgan paytda qo‘lga tushirilgan baliqpadarlar esa xavfli g‘alayonchi sifatida achigan zindonga tashlanadilar. He-he, he-e-ey!!!

Saroy arboblari tuni bilan uxlamay chiqishdi. Ular shoshilinch ravishda iloji boricha durustroq irkitlashish choralarini ko‘ra boshladilar. Chunki ular o‘zla-

rini qanchalar rasvolashtirishsa, xoqon oldida shuncha ko‘p e’tibor qozonishlarini sezib turishardi. Biri tinmay qum-tuproqqa yumalar, ikkinchisi badaniga yelim surtib keyin ustidan chang to‘zg‘itar, yana boshqa birovi uqalanadigan qoratosh bilan vujudini ishqalashga kirishgandi. Aslida, avval suvga sho‘ng‘ib olib, so‘ng qoratosh surtilsa, ish ancha oson ko‘chgan bo‘lardi. Lekin u hali qoratosh surtishga ulgurmay turib qo‘lga tushgudek bo‘lsa, cho‘milayotgan xavfli g‘alayonchi sifatida zindonga tashlanishi turgan gap edi. Shahanshohlik dasturxonidan tegadigan ulgurjiroq sarqit evaziga o‘z onasini badnom qilishdan ham qaytmaydigan sotqin ayg‘oqchilar har qadamda izg‘ib yurishardi.

Arbob-ulamolar ertasi kuni axlat titib charchagan po‘mqarg‘alarday qatorlashib, xoqon huzuriga kirib kelishdi.

– Mana endi hammamiz bir xilmiz, – tumshug‘ini yuqori cho‘zgancha, bo‘ridek uvlab kula boshladi Isqirt Birinchi. – Endi bir-birimizdan kuladigan joyimiz qolmadidi. Uv-uv-uv-uv...

Taomilga ko‘ra, keliboq, xoqonning o‘ng yonboshidan joy olgan Burbulit Idrik Ibrohim qoratosh timdalagan do‘rdoq lablarini ishshaytirib, tavoze bilan bosh egdi. Boshqalar shatmoq burunlarini yerga tekkizgudek bo‘lib ta’zim qilishdi. Shundan so‘ng bir kechadayoq qorayaloqqa aylanib ulgurgan saroy shoiri Dutoriy uch-to‘rt qadam oldinga chiqib, shahanshohga qaytadan ta’zim bajo keltirgach, bezlanib dedi:

– Agarkim joiz desalar, sumanruxsor shahanshimizning nusrati huvaydolariga bag‘ishlab hijo qilgan g‘azalimni o‘qib berurdim.

– Qani, o‘qi-chi, – taltayganicha ruxsat berdi Isqirt Birinchi.

Dutoriy hoshiyador sallasiga qistirig‘lik qog‘ozni olib o‘pgach, g‘azalni o‘qishga kirishdi:

*„Yuvilmagan betingiz muncha chiroyli...“*

Shoir o‘z odatiga ko‘ra biroz to‘xtalib, chetdan yo‘g‘iladigan rag‘batlarni kutdi. Lekin bu haqoratomuz misra arboblarning ensasini qotirib qo‘ygan bo‘lsa kerak, ular miq etmay turishaverdi. Birinchi bo‘lib hushini yig‘ib olgan Burbulit: „Ofarin!“ deya xitob qilarkan, da-dilroq bo‘lsalaring-chi, degandek pastdagilarga o‘qrayib qo‘ydi.

Dutoriy ikkinchi misrani o‘qidi:

*„Mog‘or bosgan etingiz muncha chiroyli...“*

– Barakalla! – xirilladi bosh ayg‘oqchi Isom Ittu Iskab-topar.

– Hay-hay-hay! – deb tebrandi lashkarboshi Shalamon Shildir.

Bundan ko‘ngli ko‘tarilgan Dutoriy keyingi baytni zavq-shavq bilan kuyladi:

*„U yoningiz kir erur, bu yoningiz kir,  
Oldingiz va ketingiz muncha chiroyli...“*

Arboblar bu safar ancha uyushqoqlik va dadillik bilan xitob qilishdi:

– Ofarin!

– Tasanno!

– Hay-hay-hay!

Asilzodalar yangi tartibga juda tez moslashishdi. Ammo o‘sha kiborlar „qalang‘i-qasang‘ilar podasi“ deb atovchi oddiy avomni irkitlikka ko‘niktirish ancha mush-

kul ko‘chdi. „Madaniylashtirish“ning dastlabki paytla-rida qamoqxona va zindonlar mahbuslarga to‘lib ketdi. Tavbasiga tayanganlar zudlik bilan ozod qilinib, ularning o‘rniga qaysarlarning yangi turkumi haydab kelinar va beayov kaltaklanardi.

Oradan bir yilcha vaqt o‘tgach, aholining asosiy qismi shahanshohlikning yangi imtiyozidan to‘la-to‘kis foydalana boshladи. Dux kelgan taqdirga tan beravermay-diganlar toifasi esa hanuz qamoq va zindonlarda azoblanib yotishardi.

— Siz Nodim Ulug‘ bilan Ajdarobodga ketsangiz bo‘lar-di-ku, — taajjublandi Alamazon.

— Ketavurmabsiz-da, hazrat Humo, — gap qistirdi Eshmat ham.

— Birga ketamiz, deb Feruzning menga yopishib ol-ganini ko‘rsangiz edi, — o‘sha soniyani g‘amgin yodga oldi chol. — Men bo‘lsam, unga bu yerda qolayotganimning sababini aytolmay qiynalardim.

Chol o‘rnidan turib, tokchadagi sarg‘ayib va titilib ketgan juldur kitobni oldi. Kitobning varaqlari o‘ta da-g‘alligiga qaraganda, kishilar qog‘oz yasashni hali uncha bilmagan davrlarda yozilgan edi.

— Meni bu yerda qolishga majbur etgan narsa mana shu kitob, — deya chuqur homuza tortib qo‘ydi chol. — Buni yorug‘ dunyodan ilk marta Yulduzistonga kirib kelgan bobokalonlarimizdan biri Majiddin Ravshaniy yozgan.

## BIRINCHILAR

Qo‘tir Beshinchining vafotidan bir hafta oldin, Humo Xartum saroy hammomidan chiqib kelayotgan chog‘da go‘lax unga mana shu juldur kitobni tutqazdi.

Eski toshkapani buzayotib topib oldim, – dedi go‘lax. – juda qadimiylitobga o‘xshaydi.

Bosh vazir Humo Xartum Ali Abdurahmon kitobning dastlabki betiga ko‘z yogurtiboq: „Sallamno-o-o!“ deb qo‘ygan bo‘lsa, ertasi kuni go‘laxni chaqirtirib, unga sarpo kiydirdi.

Humo Xartum dastavval kitob bilan batafsil tanishib chiqib, puxta mushohada qilib olgach, o‘zini ayrim savollarga javob qaytarishga qodir deb bilgandan keyingina, bu noyob topilma haqida shahanshohga gap ochishni maqsad qilgan edi. Bevaqt o‘lim tufayli Qo‘tir Beshinchibu sirdan voqif bo‘lmay qoldi.

Bu kitob topilgunga qadar barcha yulduzistonliklar kabi Humo Xartum ham o‘zi tug‘ilib o‘sgan mana shu ulkan g‘orni olam deb tushunardi. Keyinchalik u o‘zini bahaybat qo‘yxona ichida ivirsib yurgan befarosat maxluqdek his qila boshladи.

Bolakaylor bilan yorug‘ dunyo haqida, ularning Jandag‘or og‘zidan boshlanib, Issiqaq‘orda davom etgan kechinmalari to‘g‘risida gaplashgandan so‘ng cholning bu kitobga bo‘lgan e‘tiqodi yanada ortdi. Yorug‘ dunyoning tabiatini, Jandag‘orning tuzilishi, Issiqaq‘ordagi siljuvchi xarsanglar haqida bolalar bergen ma’lumot Majiddin Ravshaniyning kitobida bayon etilgan gaplariga deyarli mos tushardi, lekin yorug‘ dunyo odamlarining turmush sharoiti to‘g‘risidagi yangi va eski ma’lumotlar o‘rtasida juda katta tafovut bor edi.

Ravshaniyning „G‘urbatnama“ kitobi tinch va obod Toshtaqa qishlog‘iga bir gala ochko‘z xorijiyarning begona tilda shovqin-suron ko‘targanlaricha qo‘qqis bostirib kirishi tafsiloti bilan boshlangan edi. Uning dastlabki sahifalarida o‘rkach ustida poda boqib yurgan qishloqi bolalarning bosqinchilar ta‘qibi ostida Jandag‘orga qarab

qo'chganliklari, kurak va oyoqlariga kamon o'qi sanchilib yiqilganlarning zorlanib chinqirishlari, ulardan bor-yo'g'i to'qqiz nafari g'orga sog'-omon yetib kela olgani tasvirlangandi.

Keyingi sahifalarda bayon qilinishicha, yovning ta'qibi davom etayotganini sezgan bolalar dahshatdan eslari og'gudek bo'lib, tobora g'orning ichkarisiga qarab qocha boshlashibdi. Tor tuynukdan o'tib, bir tomonda shalola guvullab turgan ulkan g'orga kirishgach, devorlarida kamalakrang nurlar jilolanuvchi yo'lakni uchratishibdi. Qayerdandir kelayotgan zirilloq tovushga birpas qulq solib turishgach, jon ilinjida yana oldinga qarab yugurishibdi.

Omon qolganlarning yo'l boshlovchisi o'n bir yoshlар chamasidagi Jabroil ismli bola edi. U o'z tengdoshi, Ruqiy'a degan qizning to'rt yoshli ukasi Madumarni opichlab olgan, qolganlar – yoshlari to'qqiz-o'n atrofidagi o'g'il-qizlar esa issiqdan nafaslari bo'g'ilganicha uning ketidan chopib borishardi.

Yana boshqa boblarda hikoya qilinishicha, Yulduzistonni kashf etganlar dastlabki oylarda juda qiynalishibdi. Ular, asosan, meva, xom bug'doy va yovvoyi parrandalar tuxumi bilan ovqatlanishar, tandirdan yangi uzilgan non teztez tushlariga kirib turarkan. Onasining kenjatoyi bo'lgani uchun hanuzgacha emib yurgan Madumar: „Buvimga boraman, bувимга“, deya har kuni tиqilinch qilar kan.

Bolalar qaynoqbuloq va ko'ktoshning xususiyatini bilib olganlaridan keyin ishlari birdan yurishib ketibdi – ularning dasturxoniga pishirilgan go'sht, qaynatilgan tuxum va non kelib qo'shilibdi.

Shunga qaramay, ular allaqachon kultepaga aylangan qishloqlarini sog'inishar, vahshiylarcha qirib tashlangan

ota onalari va bolalarni eslashib ezilishar, bunday paytda 11 yurtni dushmanlardan saqlay olmagan landavur podshohlarini ayamay qarg‘ashga tushishardi.

Bizning poshshomiz ham yo‘q, – deb qolibdi bir kuni bolalardan biri. – Dunyoda bunaqa mamlakat bo‘lmasa kerak.

Shunda tili chuchuk Madumar gerdayib turib: „Men poshshoman“, debdi. Hamma kulib yuboribdi. Bir vaqt Jabroil g‘alati taklif kiritibdi:

– Kelinglar, shuni poshsho qilib qo‘ya qolaylik, – debdi  
u. Baribir uni boqishimiz kerak.

Shundan keyin barchaga ermak topilib qolibdi. „O, podshohim, tustovuq ovlashga ijozat bersalar!“ – uning qarshisida tiz cho‘kib yolg‘ondan iltijo qilardi biri. „Baliqni xomicha yeysizmi, pishiribmi?“ – bosh egib so‘rardi boshqasi va shohning: „Pishirib ber“, degan javobini eshitib, qotib-qotib kulishardi.

Qizlar ba’zida uni xarsang ustiga o‘tqizib, atrofida holdan toyguncha raqs tushishar, so‘ng, „Endi picha dam olsak maylimi, shohim“, deya qiqirlashganicha ruxsat so‘raganlarida tug‘ma ovsar Madumar qovog‘ini ochmasdan asta bosh qimirlatib qo‘yardi.

Oxiri hazilning tagi zil bo‘lib chiqibdi. Madumar o‘z nonini o‘zi topib yeydigan yoshga yetgandan keyin ham taxtdan tushishni istamabdi. Toshtaqa dayoq mushumzo‘rligi bilan dong taratgan Jabroil uning opasi Ruqiyaga uylangandan keyin esa, boshqalarning podshohga tobeligi yanada ortib, natijada Yulduzistonning birinchi haqiqiy shahanshohi paydo bo‘libdi.

Ravshaniy bundan keyingi sahifalarda Yulduzistoniga kelganiga yigirma yildan ko‘proq vaqt o‘tgach, o‘ttiz belgidan iborat harflar majmuasini tuzib, o‘zining va bosh-

qalarning farzandlarini savodli qilishga bel bog‘laganini ayтиб о‘тган edi.

Ular bunga qadar yorug‘ dunyoga qaytish umidida Yulduzistonning barcha kovak-kandiklarini timirskilab chiqishibdi. Ozodlikdan umidlarini uzishib, taqdirga tan bergenlaridan so‘ng, kelajak avlod bu yerdan chiqolmagani holda nurafshon olamga armon bilan talpinib yashamasliklari uchun bolalariga yorug‘ dunyo haqida so‘zlamaslikka ont ichishibdi.

Mamlakatda qachonlardir yorug‘ dunyo sari yo‘l ocha oladigan qudratli kuchlar yuzaga kelishiga umid qilgan Ravshaniy o‘zining uzoq surriyotiga atalgan bu kitobni Yulduzistondan tashqarida inson orzusidek bepoyon olam borligi, ular yashab turgan yurt esa o‘sha cheksizlikning bug‘doy donasidek kichik bir zarrasi ekanligini ma’lum qilish bilan yakunlagan edi.

Majiddin Ravshaniy yillar o‘tib tiriklik, sevgi va xohish zamirida vujudga keladigan yuzlab oilalar ehtiyoji uchun bu mitti maskan torlik qilib qolishidan jiddiy tashvishlangan, Yulduziston farzandlarining kelajagi uchun yoniqib qayg‘urgan birinchi inson edi.

## ESHMAT ISHMANING KASHFIYOTI

– Demak, yorug‘ dunyo sari yo‘l hozircha bitta, – Majiddin Ravshaniyning „G‘urbatnoma“sinи yopib, o‘yga cho‘mdi Humo Xartum. – U ham bo‘lsa – Issiqt‘or.

– To‘g‘ri, yo‘l bor edi, – noumid bosh silkib dedi Alamazon. – Endi berkilib qoldi.

– Issiqt‘or ravshaniylar o‘tgandan keyin ham berkilib qolgan edi, – dedi chol. – Sizlarga qaytadan ochildi. Bu yo‘l o‘n ikki yildan keyin yana ochiladi.

Ishmatning ensasi qotib, ko‘zлari olayib ketdi.

Voy, vu-u-y! Yana ikki oylarda biz mакtabga bo‘libdi omiz-ku, hazrat Humo.

Qayoqqa shoshilyapsan? – miyig‘ida kuldil Humo Xartum. – O‘n ikki yildan keyin Issiqt‘or ochildi ham devlik. Ammo bu yorug‘ dunyoga yo‘l tayyor degan gap emas.

Issiqt‘or ustidagi ko‘ktosh har o‘n ikki yilda bir marta kuyardi. Bu hodisa qachon sodir bo‘lishini saroy olimlari „Majiddin jadvali“ga asoslanib aniq aytib berishar, lekin aholi ko‘ktosh kuyadigan kunni olimlarning jadvalisiz ham yaxshi bilardi. Chunki toshkuydi boshlanishidan picha oldin mamlakatdagi borliq hayvon va parandalar jon halpida o‘zlarini pana joylarga urishar edi. Ulardan o‘rnak olgan odamlar zudlik bilan uy-uylariga tarqalishib, bu bezarar yong‘inning tugashini betoqat kutib yotishardi.

Mamlakat osmonidagi eng nurafshon yulduz – Onayulduzning nur ustuni, odatda, soyning yuqori qismi tomon siljib borib, shovvadan biroz yuqori ko‘tarilgan paytda birdan so‘nib qolardi. Ko‘ktosh kuyadigan kunda esa, bu nur yanada yuqoriroq ko‘tarilib, Issiqt‘orning ustki qatlamigacha yetib borardi. Shundan keyin mamlakat shunaqayam charog‘on bo‘lib ketardiki, bu hodisani birinchi marta kuzatayotgan yosh bolalarning ayrimlari borliqni birdan alanga qopladi, deb o‘ylab dodlab yuborishardi. Bir necha daqiqadan so‘ng Yulduzistonni qamrab olgan nurafshonlik asta-sekin so‘na boshlardi.

– Issiqt‘or ustidagi ko‘ktosh nega faqat nur tushgan pallada kuyadi? – taajjublandi Humo Xartum. – Qoya-larni ikki tarafga surib yuboradigan kuch nahotki, o‘sha ko‘ktosh bo‘lsa?

“...” qichqirdi Alamazon. – U issiqliqdan kengayadi. Ondorimni garovga qo‘yib aytishim mumkinki, tagida er qovalarni o‘sha ko‘ktosh siljitadi.

Issiqliqdan kengayadi? – hayratlandi chol.

– Ha, kengayadi, – takrorladi Alamazon. – Keyin, sovuqdan torayadi. Masalan, taxtachaga orasidan tanga bemalol o‘tadigan qilib mix qoqamiz. Keyin tangachani qizdirsak, u boyagi mixlar orasiga sig‘may qoladi...

Humo Xartum „Fizika“dan andak tahlil ko‘rgach, uning qarshisida yorug‘ dunyoning bolakayi, lekin Yulduzistonning yetuk olimi o‘tirganini payqab qoldi.

Keksa va yosh olim allamahalgacha qizg‘in suhbat qurishdi, yorug‘ dunyo fani yutuqlariga tayangan holda ayrim g‘aroyib hodisalarining sirini yechib, Yulduziston haqida iloji boricha aniq tasavvur hosil qilishga muvaffaq bo‘lishdi. Eshmat esa matematika darsida o‘tirgandek, avval esnay boshladи, so‘ng pishillab uyquga ketdi.

Keyinchalik Yulduziston nomini olgan bu ulkan g‘orda insonlar kirib kelmasdan bir necha asrlar ilgari ham hayot mavjud bo‘lib, bunday muhitning yuzaga kelishiga, asosan, Onayulduz va suv sababchi edi. Onayulduz – g‘or shipida qachonlardir hosil bo‘lgan tuynuk, u g‘orga quyosh nurini olib kirgan. Tuynuk quyosh yo‘nalishiga nisbatan tasodifan judayam qulay joydan o‘pirilgan bo‘lib, undan tushib turgan nur Yulduzistondagi soy suvlari yuzasidan Issiqliq‘or tarafga qarab bir necha soat davomida harakat qilardi va har gal tepadagi ko‘ktoshlar qatlamiga yaqinlashgan vaqtida birdan yo‘qolib qolardi.

Tuynuk g‘orga quyosh va oy nurini olib kirgan bo‘lsa, soy uni yorug‘likka aylantirdi. Onayulduz nuri suv sathida jilolanib turgan mahalda Yulduziston shipidagi yirqiroq ma’danlarda (balki, olmoslardir) minglab prizmalar

hosil bo‘lib, o‘sha kuchsiz nur qudratli yorug‘lik dara-jisiga yetardi.

Onayulduzdan quyosh nuri tushib turganda mamlakat ulqi qizg‘ish tovlanar, oy nuridan esa kulrang tusga kirar, yorug‘ dunyoda tim qorong‘i bo‘lgan paytda Issiqt‘or us-tidagi ko‘ktosh o‘zida to‘plangan yorug‘likni yurt bilan baham ko‘rardi.

Yorug‘likka o‘ta ta’sirchan bo‘lgan bu noma’lum ma’-dan – ko‘ktosh o‘ziga ilk bor yorug‘lik nurini qabul qilgan davridayoq benihoyat katta kuch bilan „kerishib“, atrofidagi tosh qatlamlarini qattiq larzaga solgandi. Quyosh nuri so‘nib, toraya boshlagan damda ustki qatlamdan ajralib, ostki xarsang-ga do‘ppidek kiyilib qolgan edi. U yoniga kengaygan chog‘da o‘sha ostki xarsangni tars ikkiga bo‘lib yuborgan, natijada, tabiatning mo‘jizasi bilan ma’lum bir vaqtda ochilib-yopilib turadigan bahaybat tosh darvoza hosil bo‘lgandi.

Tosh darvoza ochilgan taqdirda ham bu yoqdan yorug‘ dunyoga o‘tishning iloji yo‘q edi. Chunki ko‘ktosh darvozaning Yulduziston tarafidagi qismida joylashgan bo‘lib, bu tomondan borgan kishi hali g‘orga kirib ulgurmayoq jizg‘anak bo‘lib qolishi turgan gap edi. Yorug‘ dunyodan keluvchilarni halokatdan saqlab qoladigan omilning birinchisi ko‘ktoshning uzoqligi bo‘lsa, ikkinchisi – Alamazon bilan Eshmat ajal changalidan qutulib qolgandan keyin uchratgan, g‘or devoridan tarnov bo‘lib tushayotgan o‘sha issiq suv edi. Chamasi, qoya oralig‘idagi asriy tarnovchalardan sizib kelib, Issiqt‘or yonidagi shovvada birlashuvchi o‘nlab irmoqlardan biri berkilib qolar va qayerdadir ulkan havza bo‘lib to‘plana boshlardi. Tosh darvoza yopilayotganda esa to‘planib qolgan suv toshqin hosil qilganicha ko‘ktosh ustiga yopirilar va uning odatdagidan tezroq sovushiga sababchi bo‘lardi. Bu toshqinning bir qis-

mi tosh darvoza devorlarini yuvib oqa boshlar, qizib yotgan xarsangda peshma-pesh bug'lanayotgan suv qoyaning pastki qismiga yomg'ir tomchilari sifatidagina yetib kelardi. Hamma narsa o'z o'rniga qaytgach, irmoq yana avvalgi o'zanini topib olardi.

Bosiriqib qolgan Eshmat cho'chib ko'z ochgan onda Humo Kartum bilan Alamazon quyosh nuri ko'ktoshga nega faqat har o'n ikki yilda bir marta uralishi ustida bosh qotirishayotgandi.

– Buvam rahmatli odam har o'n ikki yilda bir muchal yashaydi, deb aytuvdi, – uyqusirab turib gap qistirdi Eshmat. So'ng „Bor gapim shu, o'rtoqlar“, degandek yana boshini burkab oldi.

Alamazon yarq etib Eshmat tarafga o'girildi va beg'am sheringining nafas olishiga monand ko'tarilib-pastlayotgan ko'rpa chaga tikilganicha bir zum o'ylanib qoldi. U bundan bir necha oy oldin yorug' dunyodagi bir qo'shnisi guzarda o'tirgan chollarga muchal haqida nimalarnidir uqtirayotganini tasodifan eshitib qoluvdi, hozir o'sha gapni eslashga harakat qildi.

„Ilgarigi odamlar ham anoyi bo'lishmagan, – degandi o'shanda qo'shnisi, – ular muchalni har o'n ikki yilda takrorlanadigan tartibda tuzishgan. Oradan yuz yillar o'tib ma'lum bo'ldiki...“

– Sen katta kashfiyot qilding, Eshmat! – qaytadan xurak ota boshlagan sheringini turtkilab qichqirdi Alamazon. So'ng, shosha-pisha ko'zlarini ishqalayotgan Eshmatga parvo qilmay, Humo Kartumga yuzlandi. – Har o'n ikki yilda Yupiter Quyoshning atrofida bir marta aylanib chiqadi. Tushunyapsizmi, hazrat Humo?

– Tushundim ham deylik, – uning so'zini bo'lgisi kelmay javob qildi chol. – Xo'sh, keyin nima?

Alamazon peshanasini tirishtirganicha bosh qashib qo'ydi.

– Ko'ktoshning har o'n ikki yilda kuyishi shundan-mikin, deb turibman. Tag'in, kim biladi, balki, boshqa sababi bordir?

Yotishdan oldin Alamazon tashqariga chiqib, biroz sayr qildi. Oy nurining kichik bir parchasi bilan ulkan g'orni charog'onlashtirib turgan Onayulduzga termilib, yorug'dunyo nafasini his etdi-yu, badan-badanlari yoqimli jimirlab ketdi. Yulduzistonagi barcha toshlarni bir joyga qalaganda ham bu olis tuynukka yetib bo'lmasdi.

„Nahotki, yorug'dunyoga boradigan boshqa yo'l yo'q? – o'yladi Alamazon. – Parrandalar bu yerga Onayulduz orqali kirib kelishgan, deb taxmin qilaylik. Lekin qo'y-echkilar, ayniqsa, eshak qayerdan paydo bo'pqoldiykin? Balki, bir zamonlar kattaroq g'or yo'l mavjud bo'lib, keyinchalik zilzilalar natijasida berkilib qolgandir...“

Soy tomondan baliqlarning shapir-shupur sakrashlari eshitildi, hilolkakliklar tiniqib sayray boshlashdi.

## ESHAKNING DOHIY BO'LGANI

Humo Xartum mehmonlari bilan nonushta qilib o'tirganda tashqaridan Tirtiqning an'anaviy „xix, tfu“si eshitildi.

– Tezroq yig'ishtirininglar, zumrashalar, – hovlida turib buyruq qildi u, – hozir Tandirga jo'naymiz.

Alamazon bilan Eshmat bittadan tugun orqalab tashqariga chiqishdi. Ularning ketidan kitoblarni qo'ltiqlab olgan Humo Xartum ko'rindi.

– Men Tandirga ko'chib ketyapman, – deya o'z maqsadini tantanavor e'lon qildi chol. Endi uning Issiqtg'or yaqinida qiladigan ishi qolmagandi.

Tirtiq joslardan olingan o'ljani (tugmachiroqni) surishtirgan edi, chol, „Tag‘in bu odamni zaharlaydigan narsa bo‘lmasin“, deb o‘ylab, uni soyga tashlab yuborganini aytdi.

– Xix, tuf! Shunaqayam qo‘rroq bo‘lasanmi, chol? – jahl bilan to‘ng‘illadi Tirtiq va ularni oldinga o‘tishga im-ladi. – Qani, ketdik bo‘lmasa, ho‘p-pa!

– Ho‘p-pa! – shang‘illadi Shilpiq ham.

Ular soy yoqalab yo‘lga tushishdi. Chakalak, mevazor va bug‘doypoyalarni ortda qoldirib, Qoratuynuk yaqiniga kelishgach, shoxlari tarvaqaylagan chinorsimon bukri daraxt ostiga o‘tirib, hordiq chiqara boshlashdi.

Shunda Eshmat Tirtiqa murojaat qilib, asta ming‘irladi:

– Maylimi, anavi do‘nglikning orqasiga o‘tib kelsam?

– Do‘nglikning orqasida pishirib qo‘yibdimi? – jerkib berdi Tirtiq.

Eshmat ko‘zlarini bo‘zraytirib, tarvuznusxa qornini siladi.

– Mayda-chuyda ishim bor demaysanmi, junbosh, – unga qarab tirjayib qo‘ydi Shilpiq. – Bora qol, ho‘p-pa.

Eshmat do‘nglikning orqasiga o‘tib ulgurmay, xum-dek boshiga mog‘or salsa chandigan pakana kishi qili-chining uchini yerga sudraganicha ularning yoniga keldi. U Qoratuynuk yaqinidagi kamonchi-chegarachilar sardori Kandir Kalta edi. Sipohilar darhol o‘rinlaridan turib, unga ta’zim qilishdi-da, ajdarobodlik joslarni Tandirga olib ketishayotganini aytishdi.

– Haliyam tirik ekanlar-da, – bemalol yonboshlab yotgan Humo Kartumga qarab burnini jiyirdi Kandir Kalta. – Kishi hazar qiladigan toza oyoqlar bilan qayoqqa ketyaptilar? Zindongami? Unda, ko‘rpa-yostiq ortiqchalik qilmasmikan?

Humo Xartum chegarachilar sardoriga masxaraomuz nazar tashladi.

– Tovushing ancha tanish, – deya gap boshladi u. – Adashmasam, bundan ikki yil oldin oyog‘imni uqalab o‘tirib, meni rosa maqtagan eding.

– Hey, chol! – qilichining sopiga qo‘l yogurtib qichqirdi Kandir Kalta, lekin negadir uni qinidan sug‘urishga jur’at etolmay, lablari titriganicha so‘zsiz turib qoldi.

– Shu jinni bilan o‘chakishib nima qilasiz, sardor, – Kandir Kaltaga xushomadgo‘ylik bilan taskin berdi Tirtiq, so‘ng „xix, tfu“ deb chetga bo‘yin cho‘zdi.

– Jinni – jinni-da, – yaldoqlandi Shilpiq ham.

Kandir Kalta o‘zini bosib olish uchun qo‘ynidan nosqovoq chiqarib, nos kapladi-da, „Ma, chekvol“, deya qovoqni Tirtiqqa uzatdi. Tirtiq nosni otib olgach, atrofiga kungurador sadaf qadalgan qovoqni zavq bilan ko‘zdan kechirdi.

– Usta Xalil bezaganmi deyman buni? – so‘radi u g‘o‘ldirab.

– Ha, yaqinda yasab berdi, – uning gapini tasdiqladi sardor. – Avvalgisini qo‘limdan soyga tushirib yuborsam bo‘ladimi.

Alamazon xuddi shunga o‘xshagan nosqovoqni ilgari ham qayerdadir ko‘rgan edi. U yana biroz o‘ylansa, qayerda ko‘rganini aniq eslab olishi mumkin edi, lekin chegarachilardan birining jonholatdagi qichqirig‘i uning fikrini bo‘ldi.

– Og‘aynila-a-r, qaranglar, qaranglar! – qo‘li bilan do‘nglikni ko‘rsatib, ayyuhannos sola ketdi chegarachi. – Dohiyni minib yuribdi!

Hamma do‘ng tomonga qaraganicha dong qotib qoldi. Eshmat daydi eshaklardan birining yoliga mahkam

yopishib olib, ustida zo‘r-bazo‘r ilashib turar, bunday haqoratga ko‘nikmagan „dohiy“ esa o‘zini shakkok bandadan xorij qilish maqsadida tinmay shataloq otardi. Oxiri Eshmatning oyog‘i osmondan bo‘lib, gursullagani-cha yerga yiqildi. U lat yegan chig‘anog‘ini silab, asta o‘rnidan turarkan, pastdan o‘ziga hayrat va g‘azab bilan tikilib turgan o‘nlab kishilarga ko‘zi tushdi-yu, joyida so‘rrayib qoldi.

– Ushlanglar muttahamni! – qat’iy buyruq berdi Kandir Kalta.

Shunda Shilpiq bir qadam oldinga chiqib, qo‘llarini ikki yonga yoyganicha qichqirdi:

– To‘xtanglar, ho‘p-pa! Biz uni janob Fisqiddin Makru Marazning qo‘liga tirik topshirishimiz kerak.

Xufiya ishlar boshlig‘ining ism-sharifi tilga olingandan so‘ng, Kandir Kaltaning shashti pasaydi.

– Mayli, unga tegmanglar, – deya qo‘l siltab qo‘ydi u. – Uning o‘zi Parvardigorning qahriga uchraydi.

Endi bu yerda uzoq turib bo‘lmasdi, yana yo‘lga tushishdi. Ko‘m-ko‘k yaylov boshlanib, ular yoyilib yura boshlashgan paytda Alamzon Humo Xartumni chetroqqa imladи.

– Eshak qanaqasiga dohiy bo‘lib qolgan o‘zi? – yelkasi-dagi tugunchani bir siltab olib so‘radi u.

Chol kinoyali jilmayib, moshkichiri soqolini silagani-cha bir necha qadam indamay yo‘l bosdi, keyin asta hikoya qila boshladi.

Majiddin Ravshaniyning „G‘urbatnoma“sida bayon etilishicha, ular Yulduzistonga kirib kelgan dastlab-ki kunlardan birida yosh Madumarning yaylovda o‘tlab yurgan qari eshakni emayotganini ko‘rib qolishibdi-yu, bolakayning ham, eshakning ham rosa ta’zirini berishibdi. Madumar ulg‘ayib, podshoh bo‘lgach, bu isnoddan

qutulish uchun eshakni dohiy deb e'lon qilibdi va mush-tumzo'r pochchasi Jabroilning yordamida boshqalarni ana shu maxluqqa sig'inishga majbur etibdi. Eshak dohiy bo'lgach, uni emgan Madumarni avliyo deb atay bosh-labdilar.

Humo Xartum hikoyasini tugallagan mahalda minglab yulduzlardan hosil bo'lgan nurlar tumani aro devorlari turli rangda yaraqlab turgan muhtasham saroy va binolar g'ira-shira ko'zga chalina boshladи. Ular Tandirga juda ya-qinlashib qolishgandi.

Yo'lovchilar shaharga kirib borishdan oldin yana bir marta dam olvolish uchun cho'ponlardan qolgan tash-landiq toshkapa yoniga cho'zilishdi.

– Bu ahvolda sizlarni saroya olib borishgayam uyaladi kishi, – to'ng'illadi Tirtiq. – Badanlaring top-toza. Sal odam-ga o'xshab olsanglar-chi. Kirliklaring hurmati balki, zindon-ga tashlashmay, shunchaki qamab qo'yishar. Xix, tfu!

– Zindon nimaligini bilasanlarmi, junboshlar? – vahimali ohangda gap qotdi Shilpiq. – Aytib qo'yay, hov, zindon – zax, qop-qorong'i bir joy.

– Shaharga yaqin qoldik. O'zimni qanaqasiga darrovda kir qilvolaman? – zindonni ko'z oldiga keltirib, po'killab qolgan Eshmat Alamazon bilan maslahatlashib o'tirmay, o'z joni uchun qayg'urdi.

– Bu qiyinmas, junbosh, – jonkuyarlikni davom ettirdi Shilpiq. – Mana bu maysalarni badaningga ishqalasang, bir zumda bizdan ham chiroyliroq bo'pqolasan.

Eshmat ozgina maysa yulib olib, uni bilagiga surtib ko'rgan edi, etining o'sha qismi po'palang bosgan osh-qovoq tusida tovlandi.

– Zindonda ovqatniyam mo'ndaroq berishmasa kerak, – mungli qiyofada Alamazonga yuzlandi u. – Ozgina

tasqara bo‘lvolsak nima qipti? Xo‘p desang, senga o‘zim maysa surkab qo‘yardim.

„Bu qo‘rroq baribir ularga sotilib ketadi, – yig‘lamsi-rab turgan Eshmatga boqib o‘yladi Alamazon. – Ishqilib, meni sotmay tursa bo‘ldi. Usiz ham bir kunim o‘tar“.

– Bilaman, sen ovqat yemasang judayam qiynalib ketasan, – achchiqlanganini sezdirmay gap boshladi u. – Sen surkayver. Men... Qani, ko‘ramiz-da.

Eshmat biroz ikkilanib turdi, so‘ng ko‘ylagini yechib ishga kirishdi. Saldan keyin kulrang maymun qiyofasiga kirib olgach, Alamazonga qarab, „Hohlamasang, o‘zing-dan ko‘r“, deya po‘ng‘illab qo‘ydi. Alamazonning kulgisi qistadi, ayni paytda negadir Eshmatga rahmi keldi.

Ular yo‘lga chiqishga shaylanishgan chog‘da Humo Xartum Tandirga bormay, mana shu toshkapada qolishga qaror qilganligini bildirdi.

– Bir kunim o‘tib turar, – dedi u Alamazon bilan xushlashayotib. – Ajabmaski, yaxshi kunlarni ko‘rib o‘lsam.

Yorug‘ dunyo farzandining ruhi baland edi.

– Yaxshi kunlarni ko‘rasiz, hazrat Humo, – quvlik bilan jilmaydi u. – Qulog‘imni garovga qo‘yib aytamanki, yetti pushti pokiza xalqni kirlikdan men qutqaraman.

Humo Xartum sofdil va dovyurak bolakayga bir daqiqa mehr bilan tikilib turdi.

– Qiyin, xatarli bo‘lsa ham, seni bu yo‘ldan qaytarishga haqqim yo‘q, – Alamazonga umidvor boqib gapirdi chol. – Eng avvalo, nima qilib bo‘lsayam, avomning oldida Isqirt Birinchining obro‘yini to‘kish kerak. O‘z xoqonini mas-xaralashga botingan xalq uni taxtdan ag‘darib tashlashdan ham toymaydigan bo‘ladi.

– Mayli, ishni shundan boshlayman, – Yulduziston ahli uning farmonlariga muntazir turgandek bamaylixotir

so‘zladi bolakay. So‘ng Humo Xartum bilan quchoqlashib xayrplashdi.

„Odamlarni zo‘ravonlardan qutqarish qanday yaxshi narsa-ya, – yo‘l-yo‘lakay yuragi to‘lqinlanib o‘ylab borardi Alamazon. – Men endi haqiqiy Spartak bo‘laman. Men – Spitamenman!“

Qalbini sarkardalik nashidasи chulg‘ab olgan Alamazon butun bir xalqni ozodlikka olib chiqish qandaydir xazinalar bilan bir to‘p kishilarga yaxshilik qilishdan million karra faxrliroq ekanligini umrida birinchi marta yurak-yurakdan his etayotgandi.

– Boshingni balandroq ko‘tar, shatmoq piyodam, – xomush odimlab borayotgan Eshmatning yelkasiga turrib qo‘ydi u. – Muqaddas yurish davom etadi. Oldinda – Tandir!

## ISQIRT BIRINCHI

Ajdarobodlik ikki jesusning hibsga olingani to‘g‘risidagi xabar Fisqiddin Makru Marazni behad quvontirib yubordi. Chunki, endilikda mamlakat aholisining asosiy qismi irkitlanib bo‘lgan, ayrim pokizalarning mayda-chuya xurujlari haqidagi xabarlar xoqonni ortiqcha tashvishga solmay qo‘yan, xufiya ishlar boshlig‘ining faoliyati tobo ra e’tibordan chetda qolib borayotgandi.

– Mana bu boshqa gap, – qo‘llarini bir-biriga ishqadi Fisqiddin. – Saltanat xavfsizligi uchun naqadar kerakli odam ekanligimni faqat xoqonga emas, butun saroy ahliga ham bildirib qo‘yaman endi.

Hozir bu ishni amalga oshirishning ayni payti edi. Saroydagi ishratxonada shahanshohga oziq tish chiqqani munosabati bilan katta bazm bo‘layotgandi.

U shosha-pisha ishratxonaga kirib kelgan damda shoir Dutoriy shahanshohga atab yozilgan g‘azalning so‘nggi baytini o‘qiyotgan edi:

*„Ey Dutoriy, onangga suykanmagil ko ‘p,  
Sening pushtipanohing – Isqirt Birinchi“.*

Ishratxonaning o‘rtasiga yozilgan dasturxonlardagi nozne‘ matlarni tinimsiz kavshab o‘tirgan saroy arboblari – g‘azalni eshitganlar-u, eshitmay qolganlar taomilga ko‘ra „Ofarin!“, „Tasanno!“ deya bir-bir javrab qo‘yishdi.

Xufiya ishlar boshlig‘ining, „Yurt boshiga katta falokat tushib turibdi-yu, sizlar aysh-ishratdan bo‘shamaysizlar“, degan ma’noni anglatuvchi zardali qiyofada shoh sari yo‘nalganini ko‘rib, dutor-g‘ijjagini nag‘maga shaylagan sozandalar, sho‘xi-kofar xonish oldidan tomoq qirib turgan xonandalar, xiromonga endigina qadam juftlagan raqqosalar birdan tisarilib qolishdi. Arbob-alamolar ovqat chaynashdan to‘xtashib, Fisqiddin Makru Marazning navbatdagi sovuq xabaridan ogoh bo‘lish uchun qulqlarini ding qilishdi. Jivanining yonida gerdayib o‘tirgan Burbulit Idrik Ibrohim silamoqchi bo‘lgan mo‘ylovining bir tomonini barmoqlari orasiga qistirganicha harakatsiz turib qoldi. U xufiya ishlar boshlig‘iga: „Nahotki mening ishtirokimsiz shahanshohga biron yangilikni aytishga jur’at qilgan bo‘lsang“, degandek xo‘mrayib qarab turardi. Bosh vazir bilan zimdan ko‘z urishtirib olgan Fisqiddin uning nigohidagi ana shu ta’nani darrov uqib oldi. U taxt oldidagi pillapoyaga qovoq boshini tekkizgudek bo‘lib xoqonga ta’zim bajo keltirgach, ko‘zlarini chaqchaytirganicha burro-burro qilib gap boshladи:

– Saltanatimiz bobokalonlari bo‘lgan jamiki hukmdorlarning eng odili, eng donosi Siz padari oliylariga Muqaddas eshakdan omad tilab, bir necha kalima so‘z aytishga ijozat so‘raydurman.

– Mayli, – dedi Isqirt Birinchi, burnini yengiga arta turib. – Gapir-chi.

– Mamlakatimiz oroyishining buyuk jonkuyari bosh vazir Burbulit Idrik Ibrohim janoblarining maxfiy topshirig‘iga binoan har ehtimolga qarshi Issiqtg‘or yaqiniga pistirma qo‘ygan edim. Zukko-yu tadbirkor bosh vazirning Ajdaroboddan Issiqtg‘or tarafga lahim qazilishi mumkinligi to‘g‘risidagi taxmini isbotlanib, aynan o‘scha joyda ikki xavfli josus hibsga olindi.

Xufiya ishlar boshlig‘i gapni tugatib, Burbulitga mug‘ambirona qarab qo‘ydi. Ko‘ngli taskin topib, ni-hoyat, mo‘ylovini silay boshlagan bosh vazir unga minnatdorchilik bilan ko‘z suzdi. Bundan: „Men uchun shu yog‘i yetadi, endi o‘zingni o‘ylayver“, degan ma’noni anglagan Fisqiddin Makru Maraz bo‘rttirmani yanada kuchaytirdi:

– Alohiba ta’lim-tayyorgarlik ko‘rgan ikki fidoyi sipohi o‘ta mug‘ambir josularni ustomonlarcha qo‘lga tushirib, mamlakatni besaranjom qilishi mumkin bo‘lgan katta ofatning oldini olgani, shahanshohlik manfaati yo‘li-da mislsiz qahramonlik ko‘rsatganligi uchun ularning har biri o‘ttiz boshdan qo‘y bilan mukofotlanishga loyiq deb hisoblayman.

Isqirt Birinchi ko‘zlarini javdirab Burbulitga qaradi. Burbulit xufiya ishlar boshlig‘i ikkala „fidoyi“ sipohiga bit-tadan qo‘y berib, qolganlarini o‘z podasiga qo‘sib yuborishini payqab turgan bo‘lsa ham, rozilik bergen ma’noda bosh irg‘adi.

– Bo‘pti, beramiz, – burnini tortib qo‘ydi Isqirt Birinchi. – O‘sha josuslarni ko‘rsat-chi bizga.

Xufiya ishlar boshlig‘ining ishorasi bilan saroy yaso-vullari josuslarni turtkilagancha ichkariga olib kirishdi. Isqirt Birinchi ularni qiziqish bilan ko‘zdan kechirarkan, Eshmatga boqib chehrasi ochilgandek bo‘ldi va undan so‘radi:

– Ko‘rinishdan durust bolaga o‘xshaysan-u, nega unaqa... joususlik qilasan? Boshqa ish qurib ketuvdimi senga?

Eshmat dam Alamazonga, dam shahanshohga qarab tili g‘o‘ldirab turgan onda Burbulit uni jerkib berdi.

– Padari oliylari senga so‘z isrof qilyaptilar. Javob ber, haromi!

– Hali shuni jesus deyapsizlarmi? – Eshmatga bar-mog‘ini bigiz qilib, birdan qah-qah otib kula boshladi Amazon. – Bu Eshmat ishma-ku! Shatmoqligi bilan Ajdarobodda hammaga masxara bo‘lib yurardi. Yuvvosh bola bo‘lgani uchun rahm qilib, o‘zibop mamlakatga yetaklab keldim.

– Aytdim-ku, bittasi yaxshi bolaga o‘xshaydi deb, – bilag‘onligidan faxrlanib chiyilladi Isqirt Birinchi. – Nima, meni kallam ishlamaydimi?

Shahanshohning ahmoqona muruvvatidan bezovtala-na boshlagan Fisqiddin Makru Maraz, „bittasini qo‘ldan chiqarganim ham yetar“, degandek shosha-pisha Alamazonga dag‘dag‘a qila ketdi:

– Xo‘sh, hali o‘zim ham jesus emasman dersan? Senga ishonib bo‘pmiz, ablah pokbadan.

– Men jousuman, bu – to‘g‘ri.

Xufiya ishlar boshlig‘i yengil nafas olib qaddini rostla-di va ayni paytda Burbulitga umidvor qarab qo‘ydi.

Fisqiddin josuslardan birining qo‘ldan chiqib ketgанига qattiq achinayotganini sezgan Burbulit shahanshoh тарафга egilib, o‘z ro‘molchasi bilan uning burnini artarkan, Eshmatni ko‘rsatib dedi:

– Bu surbet bizni laqillatayotgan bo‘lmasin tag‘in. Josuslar judayam tullak bo‘lishadi.

– Uning kirligini qarang, tog‘a, – Eshmatni yoqlab injiqlandi Isqirt Birinchi. – Ko‘rinib turibdi, u o‘zimizni-kilardan.

Yana picha jahlini chiqarsa, jiyanining ho‘ngrab yig‘lab yuborishidan cho‘chigan Burbulit tezda to‘nini teskari kiydi.

– Gapingiz to‘g‘ri, padari oliylari. Har holda bir sinab ko‘raylik degandim-da.

– Ha, bo‘pti, uni sinab ko‘ramiz, – Isqirt Birinchi tog‘asiga rozilik bildirib, Eshmatning ko‘ziga tikildi. – Qani, menga ayt-chi, Eshmat Ishma, haligi... Nodim Ulug‘ qanaqa odam?

– Umi? – yer ostidan Alamazonga qarab, birpas chaynalib qoldi Eshmat. Alamazonning „Bu yog‘ini boplayver endi“, degandek boqib turganini ko‘rib ruhi ko‘tarildi. – U... U – hammomga tushgan taka!

– Uv-uv-uv-uv, – tizzasiga urib kula boshladи Isqirt Birinchi.

Saroy arboblari birin-ketin unga jo‘r bo‘lishdi:

– Xi-xi-xi-xi.

– Vah-hah-hah-ha.

– Xo‘x-xo‘x-xo‘x-xo‘.

– Qiy-yov!

Isqirt Birinchi kulgidan o‘zini bazo‘r to‘xtatib, gerday-ganicha so‘radi:

– Endi ayt-chi, men kimman, men?

– Siz... Siz – Yulduzistonagi eng zo‘r, eng esi ko‘p, eng yaxshi bolasiz, – dastlabki muvaffaqiyatdan yanda ruhlanib, baralla sayray ketdi Eshmat. – Siz menga o‘xshagan musofirlarga odamgarchilik qipturasiz. Akamsiz!

– Nima deding, haromi? – hali ham ishni chappasiga aylantirib yuborish mumkinligidan umid qilib, Eshmatga o‘shqirdi Burbulit. – Zabardast zakovati bilan butun bir mamlakatni tebratib o‘tirgan shahanshohga sen yalang-oyoq o‘zingni uka qilib ko‘rsatmoqchimisan hali?

Lekin Eshmat haddan ziyyod rasvo aft-angori bilan shahanshohni o‘ziga tamoman maftun qilib olgandi.

– Tegmanglar musofirga! – o‘jarlik bilan chinqirdi Isqirt Birinchi. – Bechora menga suyanyapti. Shunday ajoyib bolani zindonga tashlab bo‘ladimi?

– Siz g‘oyat muruvvatlisiz, ofarin! – yana tezdan sharoitga moslashib oldi Burbulit.

Tevarakdan ham „Ofarin!“, „Tasanno!“, „Hay-hay-hay!“ degan xitoblar yangradi.

– Ke bu yoqqa, Eshmat Ishma, – karami beqiyosligi bilan boshqalarni yanayam qoyil qoldirishga tirishib, Eshmatga quchoq ochdi shahanshoh. – Ke, oshna bo‘lamiz.

Eshmat Alamazonga o‘ng‘aysizlanibroq qarab qo‘ygandan so‘ng, qo‘pol harakatlar bilan shahanshohning bag‘riga otildi.

– Faqat, o‘pishmaymiz, – Eshmatni ogohlantirdi Isqirt Birinchi. – Betimizdagи kirlar erib ketmasin tag‘in.

Xoqon musofir oshnasini oyog‘i ostidagi gilamchaning bir chetiga o‘tqazib, chap qo‘lini uning o‘ng yelkasiga tira-ganicha xufiya ishlar boshlig‘iga yuzlandi.

– Endi anovi joususning niyatini bilaylik-chi.

Fisqiddin Makru Maraz tergovni joususning ism-sharifi ni so'rashdan boshladi. Uning ismini bilib olgach: „Qonun bo'yicha to'liq ayt!“ – deb o'shqirdi.

– Amazon-gulduramazon, – o'ylanib o'tirmay javob qildi quv bolakay.

– Ha-a-ash, padar la'natı Amazon Gulduramazon, – tishlarini omburdek g'ijirlatib so'radi xufiya ishlar boshlig'i Fisqiddin, – yuvinish va cho'milishdan ozod etilgan baxtiyorlar mamlakatiga qanday yovuz niyatlar bilan kelgansan?

– Men shahanshohning tojini o'g'irlashim kerak edi, – bir zumda „niyat“ni ham to'qib tashladi Amazon.

– Buni senga kim buyurdi?

– Shahzoda Feruz.

– Feruzga... Feruzga – cho'ponning qalpog'i – irshayib chiyilladi Isqirt Birinchi. – Uv-uv-uv-uv!

Dasturxon atrofida o'tirganlar shu zahoti unga jo'r bo'lishib, qiyqiriq ko'targanlaricha maza qilib kulishdi. Xufiya ishlar boshlig'i ham ko'pchilikka qo'shilib iljayib qo'ygan bo'lса-da, yana darrov jiddiylashib, joususni tergashda davom etdi. U Alamazonдан bu ishni qanday amalga oshirmoqchi bo'lганни so'radi. Amazon hamma shirin uyquda yotgan paytda saroy yasovullarining ko'zini shamg'alat qilib, tojni o'marib ketishni mo'ljallaganligini aytди.

– Joususning niyati naqadar xatarli ekanligini endi anglab yetgandirsiz, janob arbob-ulamolar, – g'urur bilan qoshlarini kerib, atrofdagilarga murojaat qildi Fisqiddin Makru Maraz. – Baxtiyorlar mamlakati hukmdori tojsiz qolishining o'zi olamshumul falokatdir. Lekin bu o'sha mudhish kechada ro'y berishi mumkin bo'lgan boshqa bir fofia oldida hech gap emas. Bu pismiq jousus, hatto, shahanshohning o'zini...

Fissqiddin gapni shu yerda picha to'xtatib, shahanshohga zimdan bir qarab qo'ydi. So'ng yana arbob-ulalom-larga yuzlanib, so'zlashda davom etdi.

– Ha, u hatto shahanshohning o'zini chavaqlab ketishi mumkin edi.

– Zindonga! – dahshatdan ko'zlar olayib, asabiy holatda chinqirdi Isqirt Birinchi. – Tezroq zindonga tashlang uni!

Alamazon ikki barzangi yasovulning nayzalari orasida ishratxona eshididan chiqib borarkan, uning ortidan temilib qolgan Eshmat yig'lab yuborishdan o'zini zo'rg'a tiyib turardi. Uni qancha balolarga giriftor qilgan bo'lmasin, jasur do'stini baribir yaxshi ko'rardi.

## ALAMAZONNING SAG'IR PIYODALARI

Yasovullar arqonshotini ishlatib o'tirishga erinishib, zindonning panjara-qopqog'ini ochiboq Alamazonni pastga itarib yuborishdi. U gursullaganicha namxush poxolning ustiga tushdi va birpas qayishib turgach, lat yegan tizzasini asta ishqalay boshladi.

Alamazonning ko'zi qorong'ilikka ko'nikib ulgurmey, shundoqqina yonginasidan xirilloq tovush eshitildi.

– Kimsan, veys turxat?

Alamazon butun Yulduzistonga mashhur nomni tilga olayotgandek kekkayib o'z ismini aytди.

– Voy vo'-o'-y, o'zing zindonda bo'lsang ham burning osmonda-ku, – devorga chaplanib turgan sharpaning kalla qismida bir juft ko'z chaqnadi. – Qani, mahmadanachilik qilmay, beriroq kel-chi. Aytmoqchimanki, uvushib ketgan oyoqlarimni bir uqalab qo'ysang.

– Avval o'zimning tizzamni uqalab olay, – qaysarlik bilan bamaylixotir javob qildi Alamazon.

Qorong‘ida mushuknikidek yonib turgan ko‘zlar ostida endi tirjayish shaklida yiltillayotgan tishlar ham paydo bo‘ldi.

– Qo‘nishni bilmasang, uchib nima qilarding?

Zindonda hayqiriq ko‘tarildi. Endilikda qorong‘ilikka ko‘zi ancha moslashib qolgan Amazon ortga o‘girilib, bu tarafda ham ikki mahbusning cho‘zilib yotganini ko‘rdi. Bu yerdagilarning hammasi, taxminan, o‘zi qatori bolalar ekanligini sezgan Amazon ularga qo‘silib birga-birga kula boshladi. Sal o‘tmay apoq-chapoq bo‘lib ketishgach, Amazon ularning ismini surishtirdi.

– Yetimchada ism nima qiladi, – dedi boyta oyog‘imni uqalab qo‘y, degan bola. – Meni yoshligimdan Shal pang deb chaqirishadi. Chunki, burnim puchuq bo‘lsayam, qu-loqlarim kattagina. Bular aka-uka sozandalar. Kattasining laqabi Shippak, kichkinasini – Masalan. Hammamiz yetimchamiz.

Bu yetimchalar to‘yma-to‘y yuradigan sayoq yallachilar bo‘lib, tashlandiq toshkapada birga yashashib, topganlarini o‘rtada baham ko‘risharkan. Bir kuni badanlari haddan ziyod qichishqoq bo‘pketib, soyda ham birga cho‘milishayotgan paytda har yerda hozir-u nozir ayg‘oqchilar ularni qo‘qqis tutib olishibdi.

– Bizni zindonga tashlashgan mahalda bu yer odamlarga liq to‘la edi, – ijirg‘anib esladi Shal pang. – Aytmoqchimanki, og‘zing suvslashsa, o‘rningdan turib o‘zing o‘tirgan joyga tupurishga to‘g‘ri kelardi. Xayriyat, ular birin-ketin tavba qilishib, bizga joy bo‘shatib ketishdi.

– Sizlar-chi? – so‘radi Amazon. – Nega tavba qilib qo‘ya qolmadilaring?

– Eshitishimizga qaraganda, Isqirt Birinchining oyo‘g‘ini o‘pmasang, tavbang ijobat bo‘lmasmish, – deya chet-

ga tuflab qo‘ydi Shalpang. – O‘sha iflos mushukning terisini yalash bizga zarur keptimi!

Bolalar ning qaysar va dovyurakligi Alamazonga yoqib qoldi. „Bunaqa piyodalar bilan hech qachon dog‘da qolmaysan“, deb o‘ylab qo‘ydi u. Ayniqsa, kichkintoy Masalan, nihoyatda yoqimtoy bo‘lib, haqiqatan ham har ikki gapning bittasida „masalan“ degan so‘zni qo‘shib aytar, quvnoq va ochiqko‘ngil edi. U zaxga ko‘nikolmay, biroz betob bo‘lib qolgan, tunlari o‘xhib-o‘xhib yo‘talar, shunga qaramay, sheriklarining birkesarligidan nolishni xayoliga ham keltirmasdi.

Shippak badqovoq bo‘lsa ham, dadil va to‘g‘riso‘z edi. Shalpangning aytishicha, uning biron davraga kelib qo‘shilgani yoki turib ketganini hech kim payqamay qolar, sharpasiz yurishga odatlangani tufayli Shippak degan laqab orttirgan ekan.

Alamazon tuni bilan o‘ylanib chiqdi. Qanday bo‘lmasin, bu mamlakatning sodda va bo‘ysunuvchan aholisini tezroq oyoqqa turg‘azish, asrlar davomida farishtalardek pok, halol yashab kelgan elatning qoniga irkitlik mikroblarini yuqtira boshlagan zo‘ravonlar saltanatini tag-tomiri bilan qo‘porib tashlash lozim edi. Alamazon bu holni soddagina qilib, „Yetti pushti pokiza o‘tgan xalqni kirildan qutqarish“, deb ta‘riflardi o‘zicha.

„Eng oldin Isqirt Birinchining obro‘yini to‘kish kerak, – Humo Xartumming xushlashuv oldidagi nasihatini esladi Alamazon. – Avval odamlarni unga qarshi qayrab ko‘raylik-chi, qolgani bir gap bo‘lar“.

Ertalab u o‘zining sag‘ir do‘sstariga bir iloj topib bu yerdan qochish zarurligini aytди.

– Qochganing bilan qayoqqa borarding? – Alamazonning taklifini noxush qarshi oldi Shalpang. – Uzog‘i bilan

bir haftada ayg‘oqchilarga yem bo‘lasan. Aytmoqchimanki, mamlakatda yashirinadigan durustroq joy yo‘q.

– Nega berkinadigan joy yo‘q deysan? – gapga aralashdi kichkintoy. – Masalan, xo‘ haligi o‘raqduuq-chi?

– Aqlingga balli, Masalanvoy! – birdan sevinib ketdi Shal pang. – Darrov esimga kelmaganini qara-ya!

Sayoq yallachilar bir kuni to‘ydan qaytishayotib, soy bo‘yidagi toshloq joyga kelishganda Shippakning bir oyog‘i qandaydir teshikka tushib ketibdi. Qarashsa, bitta odam zo‘rg‘a sig‘adigan bu teshikning tagi besh-olti kishi bemalol uzala tushib yotishi mumkin bo‘lgan o‘ra ekan. Bolalar o‘shanda o‘raqduuq teshigini katta chag‘ir tosh bilan yopib ketganlaricha, u tomonga qaytib yo‘llari tushmagandi.

– O‘shanday zo‘r joy turganda, bu og‘ilxonada nima qilamiz? – sheriklarining yuragiga o‘t tashladi Alamaz on. – Zindondan tezroq kovushni sudrab qolish kerak.

Ular qanday qilib qochish haqida bosh qotirishdi. Tirnoqlab lahim kovlab bo‘lmassi. Mabodo, biron asbob topilgan taqdirda ham, bu juda uzoq vaqtga cho‘ziladigan ish edi.

Kutilmaganda Alamazonning kallasiga g‘alati bir fikr kelib qoldi.

– Topdim! – deb qichqirdi u Shal pangning biqiniga turtib. – Sen Shippak polvonning yelkasiga minasan, men sening yelkangga minaman.

– Maqsadingga tushunayotgan bo‘lsam o‘lay agar, – deya angrayib boqdi Shal pang. – Aytmoqchimanki, nega endi mening yelkamga minarkansan?

– Xohlasang, meni yelkamga mina qol, – kului Alamazon. – Lekin, bilib qo‘y, qancha balandda bo‘lsang, shuncha shaloplab yiqlasan.

Buni kesatiq deb tushungan Shal pang jilmayib qo‘ydi. Aslida, g‘aroyib ho‘qqabozlik o‘yinini boshlashga shaylanayotgan Alamazon unga gapning to‘ppa-to‘g‘risini aytib qo‘ya qolgandi.

Bu – jazolanuvchilar ko‘payib ketgan paytlarda shoshilinch qurilgan qo‘shimcha zindonlardan biri bo‘lsa kerak, unchalar chuqur emasdi. Alamazonning mo‘ljaliga ko‘ra, agar uch kishi ho‘qqabozlardek bir-birining yelkasiga minib olsa, eng tepadagi odamning panjara-qopqoqqa bemalol bo‘yi yetishi mumkin edi. Yasovullar uni zindonga tashlashayotganda panjara-qopqoqning hech qanaqa qulfi yo‘qligi va panjara girdiga bog‘langan arqonshoti qopqoqning shundoqqina yoniga turmaklab qo‘yilganini Alamazon yaxshi eslab qolgandi.

– Eng tepadagi ho‘qqaboz arqonshotini panjaradan sekin ichkariga tortib olsa, bo‘ldi, – uqtirdi Alamazon. – Keyin, shotiga o‘rnashib olib, panjara-qopqoqni bemalol ko‘tarish mumkin.

Ho‘qqabozlar o‘yinini tomosha qilish judayam huzurbaxsh esa-da, ho‘qqaboz bo‘lish, aksincha, benihoyat mashaqqatli ish ekan. Dastlabki mashqlar boshlab yuborilgandan keyin oradan bir soat vaqt o‘tmayoq bandilarning a’zoyi badani momataloq bo‘lib ketdi. Ular devorga suyanib turib, bir-birlarining ustiga chiqib olishgandan so‘ng zindon shipining qoq o‘rtasida joylashgan tuynukka qarab yura boshlardilar. Lekin uch qadam yurmayoq, uchga bo‘linib ketishardi. Bunday paytda eng tepada turgan Alamazon ko‘proq jabrlanar, o‘rta halqadagi Shal pang esa Shippakdan balandroqda ekanidan oshkora nolib, Alamazondan pastroqda ekanligidan pinhona sevinardi.

Kechga yaqin ular muvozanat saqlashni ancha o‘rganib olishdi. Yana bir necha bor harakat qilinsa, tuynukkacha

yiqilmay borishga erishishlari mumkindek tuyula boshladi. Lekin haddan ziyod shalpayib qolgan ho‘qqabozlar hansiraganlaricha poxolning ustiga cho‘zilishdi.

– Qulog‘imni garovga qo‘yaman, yana picha mashq qilsak, hamma ish joyida bo‘ladi, – jabrdiydalarning ruhini ko‘tarishga tirishdi Alamazon. – Biz ozodlikka chiqamiz, sag‘ir piyodalarim!

Shu tobda ularga chetdan qaragan kishi zax va badbo‘y zindonda sulayib yotgan bu majolsiz bandilar, oradan ko‘p fursat o‘tmay, butun bir mamlakatni ostin-ustin qilishi mumkinligini xayoliga ham keltirmagan bo‘lardi.

## DUTORIYNING XAVFLI RAQIBLARI

Malika Mastonni ko‘pdan beri azoblab kelayotgan ko‘kyo‘talning biroz tiyilishi sharafiga saroyda katta ziyofat berilishini eshitib, Eshmatning avval ishtahasi, keyin chehrasi ochildi. „Burnimdan chiqquncha bedanakabob yeymen“, deya so‘lak yutib o‘yladi u. So‘ng shahanshohning qabulxonasiga kirib, odatdagidek uning oyoqlari ostidagi gilamcha chetidan joy oldi-da, ziyofat haqida xayol surishni davom ettirdi. Bir mahal, kalning ko‘ngli taroq tusabdi, deganlaridek, bazmda men ham o‘zimni ko‘rsatib qo‘ysam bo‘lardi, deb o‘ylab qoldi. Una soz chertishni, na qo‘sinq aytishni bilar, hatto o‘yin tushishni ham uddalay olmasdi. Oxiri miyasiga kelgan bir fikrdan quvonib, shahanshohga yuzlandi.

– Padari oliylari, – asta shivirlab murojaat qildi u, – bugun ziyofat vaqtida bitta she‘r o‘qivorsam, qalay bo‘larkin?

Isqirt Birinchi ikki tomonda qaqqayib turgan yasovul-larga ko‘z qirida qarab qo‘yib, Eshmatning qulog‘iga pichirladi:

– She'r yozishni eplar ekansan, nega oldinroq aytma-ding? Menga ham o'rgatib qo'ysang-chi, Eshmat Ishma.

– Mayli, – sira ikkilanmay rozilik bildirdi Eshmat. – Yotoqxonaga boravuraylik bo'lmasa.

Isqirt Birinchi Eshmatga o'z yotoqxonasidan joy ajratgan edi. Ular xonaga kirib keliboq, qog'oz-qalam-ga yopishishdi, keyin iflos ko'rpalarga cho'zilib olishib, shoirona qiyofada xayolga cho'mganlaricha jiddiy bosh qotira boshladilar.

– Men aytib turaman, – barmog'i bilan qog'ozni ko'rsatib, yosh xoqonga beixtiyor buyruq qildi Eshmat. – Siz yozib turavuring.

U shu paytgacha o'zida namoyon bo'lmanan otashin iste'dod bilan shahanshohga tumtaroq bir she'r o'rgatdi. So'ng o'zi uchun bundan ham tumtaroqroq misralar bitib, uni Isqirt Birinchiga bag'ishlab qo'ydi.

– Ayniqsa, meniki zo'r chiqdi, – qo'lidagi she'rga qayta-qayta ko'z yogurtirarkan, og'zi qulog'iga yetgudek bo'lib sevindi Isqirt Birinchi. – Buni o'qib berib, Dutoriyni rosayam o'sal qilaman.

Arbob-ulamolar har galgidek ziyofatga o'z vaqtida yetib kelishdi. Sozandalarning g'at-g'uti, xonandalarning oh-vohi, raqqosalarning to's-to'poloni, tomoshabinlar-ning qiy-chuvi ishratxona devorlarini yana larzaga soldi. Chaynalayotgan ovqatlarning chapillashi, g'ajilayotgan suyaklarning qitirlashi, simirilayotgan ichimliklarning xo'rillashi ham o'ziga xos bir ohang kasb etgan edi.

Ikki kishi gaplashib turganini ko'rsa, o'zining yangi bitil-gan g'azali bilan suhbatga fayz kiritish payida bo'ladigan shoir Dutoriy bunday katta anjumandan chetda qolishi mumkin emasdi. U har safargidek suyulib jilmayganicha o'rtaga chiqib, shahanshohning ijozati ila sallasiga qistirig'liq

qog‘ozni olarkan, ensasi qotgan arbob-ulamolar unga soxta iltifot bilan ko‘z qardashdi. Shoir parishon qiyofada biroz shipga tikilib turgach, yangi to‘qilgan g‘azalini qiroat bilan o‘qiy boshladi:

*„Hammomingga kirmayman, vijdonim bordir,  
O‘ldirsang ham ko ‘nmayman, imonim bordir...“*

G‘azalning oxirgi bayti quyidagi yangroq misralar bilan yakunlangan edi:

*„Kechib Sovun-lungidan, menman baxtiyor,  
Ey Dutoriy, ajoyib zamonim bordir.“*

Odatdagidek chor atrofdan qalbaki rag‘batlar yog‘ildi:

- Hay-hay-hay!
- Ofarin!
- Tasanno!

Bazmda o‘tirganlar Dutoriydan qutulganlariga shukur qilishib, endigina erkin nafas olishayotganida shahanshoh: „Navbat – do‘stim Eshmat Ishmaga“, deya daf‘atan yangi xurujni boshladi. Davradagilar o‘lganining kunidan qiy-qirib qo‘yishdi.

Eshmat iloji boricha oliftanamo qadam tashlab o‘rtaga chiqqach, tartib bo‘yicha Isqirt Birinchiga ta’zim qildi-da, cho‘ntagidan buklog‘liq qog‘oz chiqarib, uni shoshilmadan ocharkan:

– Shahanshohimiz va panohimiz Isqirt Birinchiga bag‘ishlayman! – dedi.

Yana yengil-yelpi qiy-chuv ko‘tarildi. Eshmat qo‘lidagi qog‘ozni ochib bo‘lgach, „iye-iye“ deb uni darhol qo‘yniga tiqdi va cho‘ntagidan boshqa qog‘oz olib, nihoyat, she’rni o‘qishga kirishdi:

*„Yashasin Isqirt Birinchi,  
Birinchi Isqirt yashasinlar!  
Toza yurgan xumboshlarni  
Qamoqqa, guldurgup, tashlasinlar!  
Yashasinlar!!!“*

Arboblar Dutoriyning hasaddan kuyib o‘lishini istasha-yotgandek, Eshmatning boshidan ayamay rag‘bat yog‘dirishdi. Olqish va maqtovlar to‘lqini pasaygach, Eshmat tantanavor ohangda e‘lon qildi:

— Padari oliylari ham bo‘s sh qolganlarida she‘r-per yozib turadilar. Mana endi navbat Isqirt Birinchining o‘zlariga!

Gulduros olqish to‘s-to‘polonga aylandi. Shahanshoh o‘tirgan joyida jilmayganicha yuqoriga qo‘l uzatib, sal-lasiga karnay qilib qistirilgan qog‘ozni sug‘urarkan, faxr bilan ustma-ust burun tortdi. U qog‘ozga sinchiklab ko‘z qadab turgach: „O‘zimga bag‘ishlayman!“ dedi chaynalib va birinchi misrani tatalay ketdi:

*„Bitta zo ‘r bola bor...“  
Piq...*

— Ofarin, ofarin! — ro‘molcha bilan shahanshohning burnini arta turib, xitob qildi Burbulit Idrik Ibrohim.

*„O ‘sha bola – shahanshoh...“*

— Ajabbo-o! — „takrorlanmas, go‘zal“ misralardan hayratlandi lashkarboshi Shalamon Shildir.

*„U doim kir yuradi,  
Chunki aqli ko‘p, e-voh...“*

– Hay-hay-hay! – rohatlanib ko‘zini yumdi bosh ayg‘oqchi Isom Ittu Iskabtopar.

*„O’sha bola sog‘ bo ‘lsin,  
Tozalarning yuragi dog‘ bo ‘lsin!“*

Xufiya ishlar boshlig‘i Fisqiddin Makru Maraz bilan endilikda qozikalon bo‘lib olgan Hoshim Heziddin Xum bab-baravariga na’ra tortishdi: „Tasanno!“

Garchi: „Bag‘oyat go‘zal! Bag‘oyat nafis!“ – deya qichqirib qo‘ygan bo‘lsa ham, shoir Dutoriyning yuragi tobora zil ketayotgandi. Bu ikki surbet shaxs qalami o‘tkirligi bilan emas, o‘z mavqelari bilan har qanday nomdor shoirmi oyoqosti qila olar, zero ularning biri shahan-shohning tuvakbardori, ikkinchisi esa shahanshohning o‘zi edi. „Bag‘oyat xavfli!“ deya ichida o‘ylab qo‘ydi Dutoriy.

Isqirt Birinchi xashaki she’rni piypalab chiqqach, saroya da ko‘tarilgan ommaviy qiyqiriq uzoq-uzoqlarga aks-sado berib, hatto Qoratuynuk yaqinida turgan chegarachilarni ham bir zum bezovta qildi. Bu qiy-chuvni soydan kechib o‘tib, o‘raqduuqqa yaqinlashayotgan Alamazon va uning sag‘ir piyodalari ham eshitishdi.

Xavfli josus va uch nafar tartibbzarning zindondan qochib ketgani haqidagi xabar Isqirt Birinchining qu-log‘iga bazm oxirlab qolganda yetib keldi.

– Lapashang! – yig‘lagudek bo‘lib, xufiya ishlar boshlig‘i Fisqiddin Makru Marazga o‘shqirdi shahanshoh. – Menga bunaqa ishlaring ketmaydi!

– Men ularni tutib keltirdim, – baloni o‘zidan soqit qilishga shoshildi Fisqiddin. – Ularni chuqurroq joyda saqlash bosh ayg‘oqchi janob Isom Ittu Iskabtoparning mas’uliga kiradi.

– Ikkalang ham merovsan! – chinqirdi Isqirt Birin-chi. – Endi qidirib top ikkalang. Topmay ko‘ringlar-chi!

Alamazon allaqachon juftakni rostlab qolganini eshitib, Eshmatning ko‘ngli o‘z-o‘zidan yorishib ketdi.

### „BAY-BAY-BAY“ ANSAMBLI

Alamazon boshliq sag‘ir piyodalar o‘raqduuqqa kiri-boq, hansiraganlaricha o‘zlarini yerga otishdi. Surunkali ho‘qqabozlik mashqlari va zindondan chiqib olgandan keyingi tinimsiz yugurishlar ularning tinka-madorini qu ritib tashlagandi.

– Ikkala zindonbon ham uyquni ja zaplarkan-da, – zavqlanib gap boshladi badaniga tobora rohat quyilayot-gan Shal pang. – Aytmoqchimanki, bunaqalar burnini kesib ketganiningni boshqalardan eshitib bilishadi.

– Agar Masalanvoy haligi paxmoqsoqolning oyog‘iga qoqinib ketmaganda, ular shu tobdgayam tush ko‘rib yotish-gan bo‘lardi, – kulib qo‘ydi Alamazon.

Shippakning esa jahli qo‘zidi:

– Odam degan sharpasiz yurishni bilishi kerak-da endi!

O‘raqduuq, hatto tepadagi tuynuk ochib qo‘yilgan paytda ham zindondan beshbattar qorong‘i bo‘lsa-da, zindondek zax va sassiq emasdi. Bolalar bir quchoqdan bug‘doypoxol keltirishib, taglariga to‘shab olishgach, bu maxfiy kulba yanayam huzurijon bo‘lib ketdi.

Isom Ittu Iskabtoparning ayg‘oqchilarini iniga kesak otilgan arilardek hamma joyda to‘zib yurishar, ularning tovush va sharpalari gohi o‘raqduq atrofida ham eshitilib qolar, o‘sha iskovuchlardan biri, hatto tuynuk og‘ziga surib qo‘yilgan toshni do‘qillatib bosib o‘tgandi. Bunday chog‘da bolalar soatlab o‘rada biqinib yotishar, yaqin ora-

da ayg'oqchi yo'qligiga to'la ishonch hosil qilganlaridan keyingina asta tashqariga chiqishib, tirikchilik tashvishi-ri tushishardi. Shal pang soydag'i kamarlarga qo'l tiqib, zoq'orabaliqlarni tutib olardi-da, ularni yaqinroqdagi qaynoq buloqlardan birida pishirib kelardi. Amazon diqqat bilan atrofga alanglab meva-cheva terayotganda, kichkintoy Masalan tustovuqlarni hurkitib, ularning tuxumini vig'ishga kirishardi.

Shippakning uzoq yo'q bo'lib ketganidan xavotirlana boshlagan bolalar uning bir dasta non qo'ltiqlab kelganini ko'rib, quvonib ketishdi. Ular nonni juda sog'inib qolishgandi. Shippak viloyat chetidagi mahallalardan biriga horib, odamlarning ko'ktoshga yopib qo'ygan tayyor kulchalaridan bir qismini yig'ishtirib kelganini aytdi.

– Biz odamlarni vaqtincha talayapmiz, – Shippakning xatti-harakatini oqlab, nonga birinchi bo'lib qo'l urdi Amazon. – Qulog'imni garovga tikib aytamanki, ularni baxtiyor qilib, qarzimizni uzamiz.

Amazon, asosan, pisib yotish bilan o'tayotgan bu qimmatli vaqtlnarni behuda ketkazmadı. Isqirt Birinchini masxaralovchi „Bay-bay-bay“ degan she'r yozib, uni piyodalariga yod oldirdi. Aka-uka sozandalar tashlandiq toshkapada qolib ketgan chirmanda va surnayni olib keli shgach, she'rni kuyga solishib, ayg'oqchilar ta'qibidan xorij paytlarida past tovushda kuylab o'rgana boshladilar. Qo'shiqni Shal pang aytar, Amazon bilan Masalan esa uning „bay-bay-bay“ degan qismiga jo'r bo'lib turishardi. Shippak qo'shiqning ana shu naqarotida surnayni yanada chinqirtirib yuborishi kerak edi.

– Ansamblimizni qo'shiqning nomi bilan atay qolaylik, – qo'shiq tayyor bo'lgach, taklif kiritdi Amazon. – „Bay-bay-bay“ ansambli. Zo'r, a?

– Ajdarobodliklarning kiyimi g‘alati desam, gapiyam boshqacharoqqa o‘xshaydimi? – to‘ng‘illadi Shippak. – Ansambul deganing nima?

– Yallachilar bir joyga to‘plansa, ansambl-da, – o‘ylab o‘tirmay javob qildi Alamazon.

Shunday qilib, Isqirt Birinchiga dastlabki ruhiy zARBANI berishga bel bog‘lagan Alamazon o‘z piyodalarini birinchi jangga shaylay boshladi.

Bosh ayg‘oqchi Isom Ittu Iskabtopar sohildan topilgan qalpoqchaga asoslanib, holdan toygan josus va uning sheriklari shoshilishda o‘zlarini soyning nishab joyiga otib, mushuklarcha cho‘kib o‘lganliklarini karomat qilgan kunning o‘zginasida „Bay-bay-bay“ ansambli kuppa-kunduzi viloyat bozorlaridan biriga kirib keldi. Ular zindonda qiyomiga yetkazilgan ho‘qqabozlik o‘yinini bozor o‘rtasidagi supada davom ettirishdi. Bir zumda olomon yig‘ilgach, Masalan „bak-baka, bo‘m-bo‘m“ga urib turgan chirmanda ohangini „daka-dung, daka-dung“ga o‘zgartirdi. Uning yoniga surnay ovozi qo‘shilgandan keyin, Shalpang yoqimli tovushda kuylay boshladi:

*,,Ana Isqirt Birinchi,  
Ahvolini ko‘ring-chi,  
Bay-bay-bay!*

*Boshda iflos sallasi,  
Ishlamasmish kallasi,  
Bay-bay-bay...“*

Dastavval odamlar uyoq-buyoqqa jalanglashib, xavotirlanganlaricha biroz so‘rrayib turishdi, keyin asta-sekin iljaya boshlashdi. Qo‘shiq esa davom etardi:

*,,Shohning bitta siri bor,  
Yetti qavat kiri bor,  
Bay-bay-bay!  
Burbulitga ulfatdir,  
El boshiga kulfatdir,  
Bay-bay-bay!..“*

Oldinda turganlardan biri qah-qah urib kulib yubordi. Boshqalar ham ancha jonlanib, „hiring-hiring“lar eshitildi. Bundan ko‘ngli ko‘tarilgan Shal pang yanada baralla kuylay ketdi:

*,,Kerilib gap sotarmish,  
Burnin birov artarmish,  
Bay-bay-bay!  
  
Haddan oshdi tirmizak,  
O‘nglanmaydi urmasak,  
Bay-bay-bay!“*

Qo‘sinqqa berilib ketib, ayg‘oqchilar haqida o‘ylamay qo‘ygan olomon endi qiyqirib kula boshladi. Sayoq yallachilar birdan qayoqqadir g‘oyib bo‘lib qolganlaridan keyin ham odamlar tarqalishmay, bu favqulodda tomoshani hazil-mutoyiba so‘zlar bilan muhokama qilib turishdi.

Shundan so‘ng „Bay-bay-bay“ ansambli o‘z gastrollarini surunkali davom ettirdi. Ayg‘oqchilar qariyb ikki hissa ko‘paytirilganiga qaramay, sayoq yallachilar kutilmagan joyda paydo bo‘lishar va juda ustalik bilan izni chalg‘itib ketishardi.

Ko‘p o‘tmay bu qo‘sinq mamlakatning ichki va tashqi siyosatini sariq chaqaga olmaydigan jirraki bolalarga bu-

tunlay yodaki bo‘lib ketdi va ular kattalarning kulgisini qistatib, ko‘cha-ko‘ylarda ming‘irlab kuylab yurishardi.

Saltanat va uning shahanshohini tahqirlovchi haqoratomuz qo‘sish qaroy arboblarining tobora g‘azabini oshirib, uni mamlakat sahnalaridan butunlay supurib tashlash yuzasidan keskin choralar ko‘rila boshlangan kunlarda sayoq yallachilar birdan zim-ziyo bo‘lib ketishdi. Tullaklarning tullagi hisoblangan Burbulit Idrik Ibrohimning ta’biricha, bu juda shubhali bo‘lsa ham, Isqirt Birinchining ko‘ngli ancha taskin topdi. Isom Ittu Iskabtoparning ayg‘oqchilari shahar ko‘chalarida kamroq izg‘iydigan bo‘lib qolishdi. Faqat Eshmatgina kutilmaganda jimib ketgan Alamazonning taqdiridan xavotirlana boshladi. Alamazonning sag‘ir piyodalari bu paytda irkitlar saltanatiga qarshi qaqshatqich zarba hozirlayotganidan u butunlay bexabar edi.

## JASORATGA UNDOVCHI XAT

Alamazon toshkapaostonasidan o‘tiboq cholga salom berdi. Xira ko‘zlarini pirpiratib turgan Humo Xartum uni tovushidan tanib, o‘zida yo‘q quvonib ketdi. Quyuq ko‘rishi, bir-birlaridan hol-ahvol so‘rab bo‘lishgach, ko‘rpachaga yonboshlaganlaricha gurungga zo‘r berishdi. Alamazon Tandirga kelib ko‘rgan-kechirganlarini bir boshdan so‘ylab berdi.

– Sallamno-o-o! – dedi Humo Xartum hayratdan yoqa ushlab. – Bundan chiqdi, kalamushlarning iniga ham cho‘p suqib yurgan ayg‘oqchilar sizlarni axtarishgan ekan-da?

– Ular bu yergayam kelishdimi?

– Kuniga o‘n martabal tumshuq tiqishardi. Hayronman, keyingi vaqtida daraklari yo‘q.

– Sizni...

Tozaligingiz uchun nega sizni qamab qo‘yishmadi, deb so‘rashga Alamazonning tili bormadi.

– Sizga tegishmadimi?

– Menga tegishmaydi, – kinoyali jilmayib qo‘ydi chol. – Axir, ularning nazarida, men jinniman-ku. Binining mamlakatda jinnilargina o‘z pokdamonligi bilan sog‘lardan ajralib turishadi.

Alamazon cholning alamnok qiyofada jimb qolgani ni ko‘rib, gapni uning qalbini kemirmaydigan mavzuga ko‘chirdi.

– Oldingizga bitta ish bilan keluvdim, – dedi u. – Menga ko‘magingiz kerak bo‘pqoldi, hazrat Humo.

Bu gapdan keyin cholning chehrasi yorishib ketgandek bo‘ldi. Chamasi, odamlar uchun butunlay yaroqsiz jussaga aylanib qolmaganini shu tobda qaytadan his qilgandi.

– Xo‘sh?

– Siz menga arvochlarning basharasi qanaqa bo‘lishini aytib berolmaysizmi?

– Buni Muqaddas dohiy biladi, – kului chol.

– O‘sha dohiyvachchalardan bittasi toshkapaning orqasida turibdi, – ulardan bir ish chiqarmidi, degandek qo‘l siltab qo‘ydi Alamazon. – Men uni minib keldim.

Alamazon haqiqatan ham bu mamlakatdagi erkatoy eshaklardan birini o‘ziga bo‘ysundirib olishga muvaffaq bo‘lgan, uning sag‘ir piyodalari esa yana o‘ntacha „ulug‘ dohiy“ni to‘plab olib, ularni dumida ikki bog‘dan poxol sudrab yurishga o‘rgatishayotgan edi.

– Unda, hech yo‘q, sal vahimaliroq gaplardan besh-ol-titasini o‘rgatib qo‘ying menga, – jiddiy qiyofada iltimos qildi u. – Masalan, Madumar avliyoning arvohi hozir shu kapaga kirib kelsa, gapni qayerdan boshlagan bo‘lardi?

Chol Alamazonning gaplarini kula-kula tinglagach, odamlarning arvohlar haqida to‘qib chiqargan rivoyatlari dan bir nechtasini so‘zlab berdi. Keyin: „Bular senga nega kerak bo‘lib qoldi?“ – deb so‘radi taajjublanib.

– Buning ta‘rifi uzoq, – ho‘qqabozlikdan ham ajoyibroq o‘yin boshlashga shaylanayotgani bolakayning ko‘zlaridan yaqqol sezilib turardi. – Yaqinda o‘zingiz hammasini ko‘rasiz.

– Shoshma, – qaytishga taraddudlangan Alamazonni to‘xtatib, toshkapa kovaklaridan birini timirskilay boshladi chol. – Omonatingni olib ketsang bo‘lardi.

Cholning qo‘lida yarqirab turgan tugmachiroqni ko‘rib, Alamazonning sevinchdan ko‘zları chaqnab ketdi.

– Daryoga tashlab yubordim demaganmidingiz? – tugmachiroqni qo‘liga olarkan, hovliqib so‘radi u. – Tirtiqni laqillatgan ekansiz-da?

– Bu chaqmog‘ingni o‘zing orqalab kelgan ko‘rpaning astariga tiqib qo‘yuvdim, – chol odamzodga xizmat qila boshlagan dohiyni o‘z ko‘zi bilan ko‘rish uchun Alamazonga qo‘silib, tashqariga qarab yurdi. – Qani, bo‘lmasa seni kuzatib qo‘yay-chi.

Alamazon o‘raqduqqa qaytib kelgach, uning sag‘ir pi-yodalari tugmachiroqni qiziqib tomosha qilishdi.

– Isqirt Birinchini suvarakka oshna qilganimizdan keyin, masalan, shu narsani menga berolmaysanmi? – so‘radi kichkintoy.

– Mayli, o‘shanda senga sovg‘a qilaman, – qat’iy va‘da berdi Alamazon. – Lekin oldin sen bitta zo‘r topshiriqni bajarishing kerak.

– Nima, yana eshak tutib kelamanmi? – Alamazonning ko‘nglidagini topishga harakat qildi Masalan.

– Yo‘q, bu safar eshakmiyalarni yashaydigan saroyga

borasan, – dedi Alamazon. – U yerda bitta shildirvoqi osh-nam bor. Mana bu xatni o’shaning qo‘liga tutqazasan.

Kechki payt saroy oldidagi maydonda ivirsib yurgan Eshmat o‘ziga o‘xshab badanini maysa surtib kirlatgan gadoy bolaga yo‘liqdi.

– Men hamma narsani bilaman, – kemshik tishlarini ko‘rsatib iljaydi gadoy. – Sen Eshmat shildirvoqisan.

– Yo‘lingdan boravur! – o‘shqirdi unga Eshmat. – Senga aytib qo‘yayin, achchig‘im chiqsa, ichagingni aralashtirvoraman!

– Nega meni haydayapsan? – ovsarlik bilan burnini ji-yirdi gadoy. – Masalan, senga xat olib kelgan bo‘lsam-chi?

Gadoy Eshmatning qo‘liga ehtiyyotkorlik bilan qistirgan maktubda quyidagilar bayon qilingandi:

*„Salom, oshna! Oxiri senga ham ishim tushib qoldi. Qo‘sinchalarimning hujumga o‘tishi uchun choyshab, das-turxon singari matolar yetishmay turibdi. Sen bularni saroydan o‘marishing kerak. Matolar iloji boricha rang-ba-rang bo‘lsin. Xatni olib borgan piyodam xizmatingda bo‘ladi. Ko‘rishguncha xayr, deb do‘sting Alamazon“.*

Alamazonning sog‘-salomatligini bilib, Eshmatning quvonchdan tili osilib ketdi.

– Saroyning orqasiga o‘tib, kaklikdek pisib turgin, – u yoq-bu yoqqa jalanglab, gadoy qiyofasidagi Masalanga uqtirdi u. – Men senga qubba yonidagi oltin darchadan tugun itqitaman. Tushundingmi, piyoda?

Keyin u salobat bilan qadam tashlab, saroya qarab yurdi. Qayerdaligi va son jihatidan qanchaligi noma’lum bo‘lgan qo‘shining hujumga o‘tish-o‘tmasligi hozirga ke-lib Eshmatning qahramonlik ko‘rsatishiga bog‘liq bo‘lib qolgan, umrida ilk marta „katta jasorat“ga bel bog‘layot-gan Eshmat esa bundan haqli ravishda faxrlanayotgan edi.

## MADUMAR AVLIYONING ARVOHI

Alamazon bet-qo‘liga un chaplab, yasama so-qol-mo‘ylovni iyakdan boshiga tortib bog‘lab olgach, ustiga oq choyshab yopinib, bo‘yniga harir ko‘k ro‘mol chandidi. Shalpang kattakon ola-bula dasturxonni did bilan uning boshiga o‘rab, so‘yilgan takaning uzun burama shoxini sallaning ikki chetiga mahkam qistirib qo‘ydi.

– Sen eshakni yasantir, – Shippakka qip-qizil yupqa matoni uzatib buyurdi Alamazon. – Buni ustiga yop. Keyin to‘rtala pochasiga sariq latta o‘ra.

– Masalan, juda qiziq tomosha bo‘larkan-da, a? – Alamazonning ham vahimali, ham kulgili qiyofasiga zavq bilan tikilib so‘radi Masalan.

– Avliyo bilan dohiy tomosha ko‘rsatmaydi, – kichkin-toyni tergadi Shalpang. – Aytmoqchimanki, ular tomosha ko‘rishadi.

Buni eshitib, mamlakatda o‘zini „avliyo“ deb e’lon qilish arafasida turgan Alamazon kulib yubordi. Keyin piyodalariga tayinladi:

– Ko‘proq temir-tersak yig‘ib qo‘yish kerak. Erkataltang eshaklar dumida yengilgina poxolni sudrab yurishgani yetar. Uqtilaringmi, sag‘ir piyodalarim?

Sag‘ir piyodalar Alamazonning farmonlariga hech qachon bo‘yin tovlashmas, bu topshiriqlar odamlar nomidan berilayotganini doimo yurakdan his qilib turishardi.

Onayulduzning simobrang nur ustuni haddan ziyod xiralashib ketgan, soyning boyta sutrang himarilayotgan to‘lqinlari endilikda qoramtilr tovlanayotgan, narigi sohildan uncha uzoq bo‘limgan Qoratuynuk ko‘zga elas-elas chalinayotgan sokin kechada chegarachilar qarorgo-

hi yonida dahshatli bir sharpa paydo bo'ldi. Uni birinchi bo'lib bukri daraxt ostida yotgan qorovullar ko'rishdi va „Buvi!“ deb baqirishga ham majollari yetmay, joylarida so'ljayib qolishdi.

Boshdan oyoq oppoq tovlanib turgan shoxdor maxluq qizg'ish tumanga o'ralgan sariqpocha Ulug' dohiyning ustiga minib olib, ularga tobora yaqinlashib kelar, uning bo'yniga ilondek o'ralashib olgan ko'k tuman esa tug' kabi hilpirab turardi. Shoxdor maxluq qorovullardan bor-yo'g'i besh qadamcha narida to'xtalib, tustovuqning oppoq tuxumiga yopishtirilgan sadafni eslatuvchi ko'zlarini chaqnatganicha xitob qildi:

– Hey, siz – to'ppa-to'g'ri yo'ldan adashgan kir-chir bandalar, tanib qo'ying, men Madumar avliyoning arvohiman. O'g'ri mushukdan tarqagan Isqirt Birinchining nog'orasiga o'ynashni to'xtatmasalaring, qulog'imni garovga qo'yib aytamanki, qo'limdag'i manavi yulduzning o'tida ko'zlarining o'yib olaman.

U shunday deya, oppoq qo'llarini oldinga cho'zib, tugmachiroq nurini qorovullarning ko'ziga to'g'riliadi. O'takasi yorilayozgan qorovullar yuzlarini shosha-pisha chetga burishdi.

Shundan so'ng avliyo ota es-hushlarini yig'ib olib, Isqirt Birinchiga xizmat qilishdan voz kechishlari, toza ko'ngil, pok badan bilan yashashga qaytishlari uchun ularga to'rt kun muhlat berib, ko'zlarini mo'ltilatib turgan sariqpocha dohiyni yo'rg'alatganicha ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Chegarachilar qarorgohida ertalabdan boshlangan shov-shuv kechga yaqin vahimali vasvasaga aylandi. Madumar avliyoning arvohi haqidagi hikoyani u bilan to'qnashganlarning o'z og'zidan eshitishga ishtiyoqmand-

lar soni ko‘paya borgani sari tobora qadri oshayotgan tungi qorovullar o‘zlarini yanada vazminroq tutishga harakat qilishar, bu hikoya qancha ko‘p takrorlansa, shuncha uzayib va vahimalashib borayotgandi.

– Ko‘zim ilinay deb turgan ekan, bir payt anavi do‘nglikning tepasidan kattakon, oppoq narsa otquloqdek o‘sib chiqayotganini payqab qoldim, – deya hikoya qila boshladi birinchi soqchi. – Bu o‘ngimmi, tushimmi – anglab ulgurganim yo‘q ediki, haligi narsa qo‘qqisdan ustimizga yurish boshladi. Shundan keyin To‘ychi bilan Jumanni uyg‘otdim.

– Yaxshiyam Xabar uyg‘oq ekan, – deya gapni ilib ketdi To‘ychi. – Bir mahal sonimdan chimchilab qoldi. Ko‘zimni ochib qarasam, to‘rt boshli ko‘m-ko‘k ajdarho-ni bo‘yniga o‘rab olgan qo‘shmuguzli maxluq qo‘lidagi yulduzni o‘yatganicha, bizni yutishga chog‘lanib turibdi. Bu Madumar avliyomizning arvohi ekanligini uning o‘z og‘zidan eshitib bildim.

– Avliyo ota hazrati oliylari tabarruk eshakning yelkasiga minib olgan edilar, – deya sipolik bilan hikoyani davom ettirdi Juman. – Qip-qizil tumanga burkanib olgan bemisl dohiymiz muqaddas dumini yelpig‘ichdek tebratib, sariq pochalarini yerga urib-urmay, havoda tekis suzib kelardi.

Ulug‘ eshakning yelkasiga minib olgan Madumar avliyo otaning arvohi ertasi kuni yarim kechada Tandirning qoq markazida paydo bo‘ldi. U hech bir tap tortmay lashkarlar o‘rdasining soqchilariga yaqinlashdi-da, ularga ham uzundan uzoq ma’ruza aytди. Jumladan, o‘rda lashkarlarining eslarini yig‘ib olib, haq yo‘lga o‘tishlari uchun uch kun muhlat berilishi haqida gapiarkan, qulq-

larini chimirib olgan zukko dohiyvachcha soqchilarga bu gaplar qay darajada ta'sir qilayotganini diqqat bilan kuzatib turardi.

Indiniga xuddi shu paytda esa sur avliyoning arvohi viloyatdagi badavlat xonadonlardan birida bo'layotgan to'yga bostirib kirdi.

— Yana ikki kundan keyin o'sha qasmoq bosgan Oltinsaroyning kulini ko'kka sovuraman, — gapni tantanali va'da berishdan boshladi u. — Yuvuqsiz arbob-ulamolarni yaxshilab savalashda bizga ko'mak berish uchun hamma odam bittadan tayoq yo'nib qo'yishi kerak. Tagimdan sizga qarab turgan Muqaddas zotning nomidan aytamanki, bizga ergashmagan ikkiyuzlamachilarni bir qarg'ashda ko'zini ko'r, og'zini maymoq qilib tashlaymiz.

Uzoqdan qondoshlaridan birining ovozini eshitib qolgan bo'lsa kerak, qizil choyshab yopingan eshak yer depsinib hangray boshladi. Atrofdagilar ikki qo'lni ko'krakka bosgancha itoatgo'ylik bilan ta'zim baho keltirishdi.

Madumar avliyoning arvohi bilan bog'liq mish-mishlar og'izdan og'izga, qulqoqdan qulqoqqa o'tib, mamlakatdagi borliq tirik jonning yuragini takapuka qildi, o'zining ahmoqona ishlari bilan dohiylar-u aziz-avliyolarni ham bezovtalantirayotgan Isqirt Birinchi olomonning ommaviy qarg'ishiga duchor bo'ldi. Saltanatga qarshi jangga avliyo otani yelkalab olgan daho eshakning o'zi shaxsan boshchilik qilishini eshitgan xalq, arvohning vasiyatiga ko'ra, darhol tayoq yo'nishga kirishdi.

Irkitlar sultanatini jig-jigidan larzaga solishga muvaffaq bo'lgan Amazon va uning sag'ir piyodalari so'nggi — hal qiluvchi jangga jiddiy tayyorgarlik ko'ra boshladilar.

## NOTINCH KUN

Isqirt Birinchi saroyda xonama-xona qochib yurganmish, yoppasiga tayoq bilan qurollangan olomon zing‘il-latib quvib kelayotganmish. Bir qarashda, odamlar juda imillab chopayotganga o‘xshar, lekin yosh xoqon qanchalalar jon-jahdi bilan yugurmasin, baribir ulardan olislab ketolmasmish. Oxiri ishratxonaga kirib, eshikni ichkaridan tambalab olibdi. Bir payt orqaga o‘girilsa, qo‘shmuguzli o‘sha arvoh qip-qizil tumanga o‘ralgan eshakvoyni minib olganicha, uning qarshisida vahimali tirjayib turganmish. Bu orada olomon eshikni pachaqlab tashlab, „ur-ho, ur“ bilan ichkariga yopirilibdi.

– Shoshmanglar, odamlar! – deya olomonga qarab qichqiribdi arvoh. – Avval men uning ko‘zlarini o‘yib olaman, ana undan keyin savalayverasizlar.

U shunday deya, qo‘lidagi chaqnoq yulduzning nurini uning ko‘ziga tutibdi.

Isqirt Birinchi tomog‘i yirtilgudek bo‘lib, „Buvijo-o-on!“ deb qichqirgan edi, „Men buvingiz emas, oshnangiz Eshmat Ishmaman“, degan tovushdan uyg‘onib ketdi.

Qabulxonaga lanj va motamsaro qiyofada kirib kelgan Isqirt Birinchi hali taxtga o‘tirib ulgurmay, Burbulitga qarab o‘shqirdi:

– Nega xo‘shshayyapsiz, tog‘a? Avliyolaringiz meni tinch qo‘yadimi, yo‘qmi?

– Bularning hammasi qup-quruq vasvasa, – shahan-shohni yupata boshladi Burbulit. – Men oldi-qochdi gap tarqatayotganlarni hibsga olishni, ularga ishonayotgan haromilarni ayamay kaltaklashni buyurdim.

– Yana-chi? – bu tadbirlardan ko‘ngli to‘lmay so‘radi xoqon.

– Qolaversa, o’sha avliyoning bevosh arvoхini gumdon qilish choralarini ko’ryapmiz, – tap tortmay gapirdi Burbulit. – Bu haqda xufiya ishlar boshlig‘i Fisqiddin Makru Marazga, bosh ayg‘oqchi Isom Ittu Iskabtoparga, lashkarboshi Shalamon Shildirga maxsus topshiriqlar berdim. Kandir Kaltaga maxfiy xat jo‘natdim.

Chegarachilar sardori Kandir Kalta bosh vazirning maktubini erta tongdayoq olgan edi. Maktubda bunday deyilgandi:

*,,Madumarning arvohi qarorgohingga yana tumshuq suqadigan bo‘lsa, kamonchilaring bilan darhol qurshab, bezbetni g‘alvir qilib tashlashiningni buyuraman. U tullakning yonini olib to‘polon qilgan yoki qattiq hangragan taqdirda, saltanatimiz shavkati yo‘lida ahmoq Dohiyini ham dangal qilichdan o‘tkaz. Aytganlarimni bajarsang, martabang ulug‘ bo‘ladi.*

*Burbulit Idrik Ibrohim“.*

Sardor maktubni o‘qib bo‘lib, o‘ylanib qoldi. Burbulitning Avliyoga qo‘shib Dohiyini ham qatl etishga undovchi sovuq gaplari uning ensasini qotirdi. Lekin „martabang ulug‘ bo‘ladi“, degan oxirgi jumla yuragiga dadillik bag‘ishladi.

„Balki, bosh ayg‘oqchi bo‘larman, – to‘lqinlanib o‘yaldi u. – E, bor-e, deyishsa, lashkarboshi bo‘pketishim ham hech gapmas“.

Mansabparastlik Kandir Kaltaning tug‘ma kasali edi. Hozir u o’sha kasallik isitmasida alahsirab o‘zi shu damgacha sig‘inib kelgan ilohiy siymolarga bo‘lgan hurmatini nafrat bilan almashtirdi va qilichning sopidan changallaganicha: „O‘ldiraman ularni“, deya chiranib qo‘ydi.

Bu paytda to‘rt kundan buyon halovat nimaligini bilmay qolgan chegarachilar o‘rtasida bahs tobora kuchayib borayotgandi. Haq yo‘lga o‘tib olish uchun ularga avliyo otaning arvohi tomonidan berilgan muddat bugun kechqurun tugashi kerak edi.

– Arvoh bilan jang qilsak, obro‘yimiz ikki pul bo‘ladi, – derdi birinchi kamonchi, – unga qilich ham o‘tmaydi, o‘q ham.

– Bordi-yu, avliyomizga otgan o‘qing xato ketib, Muqaddas eshakning o‘ziga tegadigan bo‘lsa, unda naq enangni ko‘rasan, – deya, shoshilishda yuz berishi mumkin bo‘lgan fojiali xatoni oldindan karomat qildi ikkinchisi. Boshqasi esa ularni kaltabinlikda ayblab dedi:

– Kamonni mo‘ljalga olguningcha arvoh bechora lallayib turarkan-da! Qo‘lidagi yulduzning chaqinida ko‘zingni o‘yvoladi, hov!

– Kandir Kaltaning gapiga kirib, o‘lib ketadigan ahmoq yo‘q, – nihoyat, dadillik bilan birinchi bo‘lib maqsadga ko‘chdi Xabar. – Jonidan to‘ygan bo‘lsa, arvoh bilan podshohning o‘zi urishsin. Bizga o‘zi nima keragi bor o‘sha Isqirtning? To‘g‘rimi, Juman?

Juman ikkilanganicha picha o‘ylanib qoldi. Keyin boshini qashib turib g‘o‘ldiradi:

– Gaping to‘g‘riku-ya, Xabar... Lekin nonko‘rlik bo‘lmasmikin? Nima bo‘lgandayam, Isqirt Birinchi padari oliylari hozirgacha qornimizni och qoldirgani yo‘q. Masa-lan, o‘zimni olaylik, bola-chaqalarim to‘q yashayapti.

– Shunaqa degin? – kelib-kelib dardimni senga gapirdimmi, degandek Jumanga hafsalasizlik bilan qaradi Xabar. – Agar biz faqatgina qornimizning to‘qligidan quvonadigan bo‘lsak, unda echkilardan farqimiz yo‘q

ekan-da? Hayvonlarning qornini to‘ydirib qo‘ysang bas, shilta go‘ngning ustida yotib ham ma’rashmaydi.

Keyin atrofdagilarga yuzlandi:

– Bir o‘ylab ko‘rsalaring-chi, birodarlar, – zorlanib murojaat qildi u. – Nahotki qo‘y-echkilardan afzalroq joyimiz bo‘lmasa? Agar biz hayvonlarga qaraganda ko‘proq narsani xohlamasak, nega unda o‘zimizni odam deb atayapmiz?

Poytaxtdagi o‘rdada ham vasvasa avjiga mingandi. Butunlay tarqalib ketishga yuragi betlamay, hayajonlanganlaricha ivirsib yurgan sipohilar: „Ulug‘ eshak hamma narsani ko‘rib-bilib turadi, biz unga o‘q otmasak, u birinchi bo‘lib bizga yomonlik qilmaydi“, deya o‘zaro shivirlashib qo‘yishardi. Lashkarboshi Shalamon Shildir o‘rdada intizomni mustahkamlash uchun jon kuydirayotgandek ko‘rinsa-da, aslida, nodon sipohilarning avliyo otaga hamla qilib, ishning pachavasini chiqarib qo‘yislari mumkinligidan qattiq xavotirlanayotgan edi.

Duch kelgan vasvasachini darhol zindonga tiqishga vakolatli ayg‘oqchilar o‘z boshliqlari Isom Ittu Iskabtopardon o‘rnak olishib, sultanat muhri kimning qo‘liga o‘tishi noma’lum bo‘lgan bu alg‘ov-dalg‘ov kunda birovga ozor berishdan o‘zlarini tiyib turishardi. Ular xo‘jako‘rsinga ko‘cha aylanib yurishar, hatto turli kesatiqlar bilan ermaklab, orqalaridan hushtak chalib qolganlarga ham parvo qilishmasdi.

Ayg‘oqchilarning bir guruhi Chiltonariq ko‘prigiga yaqinlashib qolganida tirjayganicha ularni kutib turgan Hojimat jinnini ko‘rishib, aftlari burushdi.

– Kelinglar, quvlash o‘ynaymiz, – odatdagি xurujini boshladi jinni. – Hey, eshittilaringmi?

Hech kim indamagach, u lo‘killaganicha borib, ayg‘oqchilardan biriga suykandi.

– Ke, quvlash o‘ynaymiz. Qo‘lga tushsang, burningga chertaman. Vah-vah-vah...

– Nari tur-chi, – uni chetga turtib, yo‘lida davom etdi ayg‘oqchi.

Hojimat esa uning ketidan ergashib, injiqlanganicha qistay boshladi. „O‘ynaysan, o‘ynaysan...“

– Yo‘qol ko‘zimdan! – uning ko‘kragidan itarib tashla-di ayg‘oqchi.

Hojimat arazchi boladek bo‘ynini qisib ortga qaytar-kan, uning qiliqlaridan ichaklari uzilgudek bo‘lib kulayot-gan odamlarga yig‘lamsiragan qiyofada yuzlanib, ming‘il-laganicha ayg‘oqchining ustidan shikoyat qildi:

– O‘ynamadi...

Ayg‘oqchilar ko‘prikan o‘tib, Janjalmahallaga kirib borishgach, bu yerdagi g‘ayritabiiy osoyishtalik-dan taajjubga tushishdi. Chunki bu mahallada musht-lashuv bo‘lmanan kunni yaqin-atrofdagi biron-bir qa-riya aniq eslolmasdi. Ko‘chaning o‘ng va chap tarafida yashovchilarning ikkiga bo‘linib jiqqamusht bo‘lishlari uchun ko‘chaning u tomonida turuvchilardan biri bu to-mondagilardan bittasining jig‘iga tegishi kifoya edi. Shapaloq bazmida mahallaning yetti yoshdan yetmish yosh-gacha bo‘lgan aholisi to‘liq ishtirok etar, goh chol bolani, goh bola cholni yumdalar, ayollar esa bunday chog‘da tomlarga chiqib olishib, „o‘zlariniki“ larga qiy-chuvtlar bilan dalda berib turishardi. Ur-yiqitlar ba’zan yarim kecha-gacha cho‘zilib ketar, oxiri u yoki bu tomonning mag‘lub bo‘lishi bilan yakunlanardi. G‘olib kelgan yoqdagilar mabodo yoqalashib hali xumordan chiqmagan bo‘lishsa,

shartta ikkiga bo‘linib, o‘zaro mushtlasha boshlardilar. O‘zaro olatasirdan ham qoniqmagan oxirgi janjalkash esa o‘zini o‘zi do‘pposlashga tushardi.

Bugun ko‘chaning har ikki yuzidagilar mahalliy nizoni vaqtincha unutib, butun bir mamlakat miqyosida bo‘ladi-gan katta janjalga ishtaha saqlab turishar va bu „sol-sol“ni boshlab beradigan Madumarning yetib kelishini sabrsizlik bilan kutishmoqda edi. Mamlakatdagi barcha aholi singa-ri ular ham avliyo otaning amriga ko‘ra bittadan tayoq yo‘nib qo‘yishgan, ayrim ehtiyotkorlar bu qurolni ertalab-danoq belbog‘lariga qistirib olishgandi.

Xonasida pishillaganicha bemalol uxbab yotgan Esh-matni hisobga olmaganda saroydagagi muhitni ham osoyish-ta deb bo‘lmasdi. Bu pallada shaxsan Isqirt Birinchining o‘zi, „Avliyolarning menda qanaqa qasdi borakan“, deya malika Mastonning pinjida yig‘lab o‘tirardi.

Qozikalon Hoshim Heziddin Xum sahardayoq ish-ga kirishib, yaxshilab yo‘nilgan tayoq va dehqon-cha kiyim-boshni allaqachon hozirlab qo‘ygandi. U to‘s-to‘polonda ko‘pchilikka qo‘shilib, avliyo ota qo‘li-dagi yulduzning shafoatidan bahramand bo‘lib qolishni mo‘ljallayotgandi.

Arboblar ichida eng tullaklardan hisoblangan xufiya ishlar boshlig‘i Fisqiddin Makru Maraz iloji boricha saroy-dagi ishlarga aralashmay turishning eng oson yo‘lini topdi. U kecha kechqurundan boshlaboq o‘zini betoblikka solib olgan va ishning nima bilan tugashini o‘g‘ri mushukdek poylab yotardi.

Shoir Dutoriy esa xonasini ichkarisidan tambalab olib, yangi g‘azal bitish bilan ovora edi. U ertaga shu paytda saroyda boshqa bir xoqon ziyofat berishi ehtimoldan xoli

emasligini bor vujudi bilan his qilib turar, yozib tugallanayotgan otashin madhiya o'sha noma'lum zotga atalgan bo'lib, quyidagi misralar bilan boshlanardi:

*„Keldi pok gulgun zamон, hammомга бoshlangлar meni,  
Yo suvi lim-lim hovuz, yo jomga boshlangлar meni...“*

Lekin bosh vazir Burbulit Idrik Ibrohim har qachongidek sovuqqon va dadil ko'rinar, uning qattiq asabiyla-shayotganini xonada tinmay u yoqdan bu yoqqa yurib turishidangina payqab olish mumkin edi. U Madumarning arvohi haqidagi vahimali gaplarga hozir ham ishonchsizlik bilan qarar, bu g'aroyib ishlarning hammasi qandaydir mug'ambirning juda ustalik bilan qilayotgan nayrangleri ekanini faqat ugina sezib turardi.

## TANDIRNING ISHG'OL QILINISHI

Chegarachilar sardori Kandir Kalta arvoхlar faqat kechalar izg'iy olishlarini nazarda tutib, Onayulduz xiralasha boshlagandan keyingina kamonchilarini ilohiy jingga safladi.

— Dadil bo'linglar, azamat takalarim! — uchi yerda sudralib yurgan qilichining sopini ushlab, kamonchilarga dalda berdi u. — O'sha arvoh ko'zimga ko'rindi deguncha, somsabop qilib qiymalab tashlayman.

Kamonchilar, „Qo'yib beringlar, o'zidan ko'rsin“, degandek bir-birlariga ma'nodor ko'z qadashdi. Sardor sadafgul qovoqdan nos kaplab olgach, kamonchilar safi bo'ylab u yoqdan bu yoqqa yura boshladи. Ora-sira: „Bu-naqa arvoхlarning ko'pini ko'rganmiz“, „Men uni shunday sharmanda qilayinki“, deya ko'krak kerganicha g'o'ldirab qo'yardi.

G‘azotga chiqqan avliyo otaning shamoyili namoyon bo‘lishdan ilgari borliqni uning vahimasi qamrab oldi. Do‘nglik ortidan dastavval jangira-jungur ovozlar eshitilib, keyin unga surnayning qayg‘uli nolasi va chirmandaning „daka-dung“i qo‘schildi. Biron-bir mardning birinchi bo‘lib qochishni boshlab berishiga muntazir turgan kamonchilar yon-veridagilarga umidvor jalanglay boshladilar. Kutilmaganda, sardorning tizzasiga ham qaltiroq kirdi. Lekin, „Martabang ulug‘ bo‘ladi“, degan sehrli so‘z uning miyasida tinimsiz qaytariqlanib turar, o‘zini iloji boricha dadilroq tutishga harakat qilardi.

Shovqin-suron borgan sari kuchayib, oxiri do‘ng ortidan o‘sha shoxdor maxluqning oppoq jussasi asta-sekin balqib chiqqa boshladi. Uning ketidan dumida allanarsalar ni sudrab kelayotgan zangboz eshaklar safi ko‘rindi va ni-hoyat, biri surnay puflab, ikkinchisi chirmanda urganicha, piyoda kelayotgan yana ikkita oq arvoh paydo bo‘ldi. Hangi daho boshchiligidagi bu to‘polonchi gala aralash-qurash sadolar ostida do‘ngdan pastlab kelarkan, maqtanchoq Kandir Kaltaning iyagi shaqillab, iligidan mador ketdi va asta-sekin orqaga tisarilib, kamonchilar safiga chaplanib goldi.

Madumar avliyoning arvohi bir-biriga qapishib turgan kamonchilar to‘dasiga yaqin kelib, salobat bilan dohiy hazratlarining yuganini tortdi. Orqadagi zangboz dohiy-vachchalar ham harakatdan to‘xtab, surnay va chirmanda sadolari birdan tindi.

– Nega qatorlashib turibsizlar, mushuklar? – gapni juda qaltis boshladi arvoh. – Sizlarni menga qarshi qayragan baroq qani?

Hammaning nigohi beixtiyor Kandir Kaltaga qadaldi. Vahimali sadolar eshitila boshlagan paytda og‘zidagi nos-

ni tuflash ham esiga kelmay qolgan sardor, uni „g‘o‘lq“ etkazib yutib yubordi.

– Tappa bosing uni! – qichqirdi avliyoning arvohi.

Alamzada Xabar birinchi bo‘lib o‘zini sardorning ustiga otdi. Keyin boshqalar ham mo‘tabar avliyoning ko‘zi oldida savobga qo‘l urishga shoshilishdi. Kandir Kalta hash-pash deguncha qurolsizlantirilib, oyoq-qo‘li chandib bo‘lingach, uning og‘ziga latta tiqib qo‘yish lozimligi haqida Madumar-arvohdan qo‘srimcha buyruq olindi.

Bir necha daqiqadan so‘ng o‘z qo‘sini yuz nafar kamonchi hisobiga mustahkamlab olgan Alamazon sho‘rusher sadolar ostida Tandirga yurish boshladи.

„Qadamni kattaroq olinglar, piyodalarim, – ko‘z qirida u yon bu yonga mamnun boqib, o‘zicha shivirladi Alamazon. – Muqaddas yurish davom etadi. Oldinda – jang!“

Bu vaqtida allaqachon Qoratuynukdan o‘tib olgan Shal pang Ajdarobod markazi tomon chopqillab borar, u Nodim Ulug‘ni so‘nggi yangilikdan tezroq xabardor qilishga shoshilayotgandi.

Shahar chetidagi yalanglikda to‘planib turgan janjalma-hallaliklar Madumar avliyoning arvohini birinchi bo‘lib kutib olishdi. Avvaliga ular asir tushgan kamonchilarini avliyo ota bizga kaltaklatish uchun haydab kelayotgan bo‘lsa kerak, deb o‘ylab, juda sevinib ketishdi. Vaziyat oydinlashgandan keyin, kamonchilaridan ham oldinroqqa o‘tib olishib, tayoqlarini qilichdek o‘ynatganlaricha shaharga qarab yurishdi. Yo‘l-yo‘lakay ularga boshqa mahallalarning odamlari ham qo‘sila borib, baqir-chaqirlar kuchaygandan kuchayib ketdi. Tarafdorlarning tez ko‘pabyib borayotganidan ruhlangan arvoh sozandalar yanada sho‘xroq kuyni boshlab yuborishdi. Eshaklarning dumiga

bog'lab qo'yilgan temir-tersaklar esa shaharning toshloq ko'chalarida maysazordagiga nisbatan o'n baravar kuchliroq dang'illay boshladi.

Dehqoncha kiyinib olgan Hoshim Heziddin Xum mahallalardan biridagi bo'sh qolgan hovliga kirib olib, ko'cha darvozasi ortida biqinib turar, u tobora yaqinlashib kelayotgan olomonga qo'shilib ketish uchun qulay fursat poylamoqda edi. Shu vaqt yelkasiga kimningdir og'ir panjasitushganini sezib, seskanganicha orqaga o'girildi. Tirjayib turgan Burbulitni ko'rib, tili gulala bo'lib qoldi.

– Sarupo muborak bo'lsin, – Burbulit unga boshdan oyoq massxaraomuz nazar soldi. – Qarangki, niyatimiz bir bo'lgani uchun, ikkimiz ham bitta hovliga berkinibmiz.

– Qanaqa... Qanaqa niyat? – g'o'ldiradi qozikalon.

– Farog'atimizni buzib, obro'yimizni oyoqosti qilgani uchun zotipast Madumardan qasos olishingizni bilardim, – bosiqlik bilan mug'ambirona qiyofada gap qotdi Burbulit. – Azbaroyi sizga bo'lgan zo'r hurmatim tufayli jasorat ko'rsatib, katta shuhrat qozonishingizga xalaqit bermayman. Istanqiz, hatto kamonimdan foydalanishingiz mumkin.

– Siz... nimalar deyapsiz, janob Burbulit?

– Demoqchimanki, avliyolarni qo'lingizdag'i tayoq bilan urib o'ldirish juda mushkul. Jonni garovga qo'yib, olomonning qurshoviga kirib yurasizmi?! Mana, yaxshisi kamonimni ola qoling.

– Qo'ysangiz-chi, – Hoshim Heziddin Xum ko'zlari kosasidan chiqqudek bo'lib, kamonni o'zidan nari itardi. – Axir, bu...

– Menga qara, Xum! – Burbulit qozikalonning yoqasidan tutib, xanjarini uning bo'g'ziga qadadi. – Kamonni olib, darrov tomga chiq. Madumar yetib kelguncha pisib

yot. U yoningdan o‘tib borayotganda sultanatimiz nomidan o‘q uzasan. Tushundingmi, haromi?

Hoshim Heziddin Xum boshini qimirlatsa xanjar bo‘g‘ziga kirib ketishidan qo‘rqib, „Ha, tushundim“, degan ma’noda kipriginı pirpiratdi.

– Mana bu boshqa gap, – Burbulit qozikalonning yoqasini qo‘yib yuborib, uning qo‘liga kamonni tutqazdi. – Nishonga olayotganingizda qo‘lingiz qaltiramasligi kerak, muhtaram qozi. Siz otayotgan paytingizda avliyo ota harakatda bo‘ladi, shu bois mo‘ljalni bir qarich oldiroqdan oling. Men anavi orqadagi tomga chiqib olib, gumbaz ortidan sizni duo qilib turaman. Mabodo, o‘qin-giz xato ketsa, unda manavi xanjarim sizni quvib yetadi.

Burbulit Idrik Ibrohim otgan xanjar nishonga bexato sanchilishini Hoshim Heziddin Xum boshqalardan ko‘ra yaxshiroq bilardi. U xanjarga qo‘rqa-pisa ko‘z qiri-ni tashladi va Burbulitning yordamida indamay tomga ko‘tarildi.

Tomga qapishib olgan qozikalon ko‘cha boshiga kirib kelayotgan muguzdor arvohning oppoq jussasiga dahshat bilan nazar solganicha miq etmay pisib yotar, gohi-gohida orqadagi tomning gumbaziga xavotirlanib qarab qo‘yardi. Yovuz Burbulitning allaqachon juftak rostlab qolganidan u tamoman xabarsiz edi.

Olomon yaqinlashgan sari Hoshim Heziddin Xumning yuragiga tushgan g‘ulg‘ula orta boshladi. Tayoq ushlagan odamlar va hamon safni buzmay tekis kelayotgan kamonchilar u turgan tom yonidan o‘ta boshlaganda qozikalonning yuragi bejo urib, o‘zini behol his qildi. Shu tobda u duch kelgan tomonga qarab qochish imkoniyatidan bahramand odam dunyodagi eng baxtiyor zot ekanligini anglatdi.

Bu chog'da Madumarning arvohi u turgan tomning yoniga yaqinlashib qolgandi. Hoshim Heziddin Xum hali zamon orqasiga kelib sanchilishi mumkin bo'lgan xanjarning sovuq tig'ini xayolan tasavvur qilib, badanlari uvushib ketdi, qo'li titrab kamonni o'qladi. U muqaddas arvohni nishonga olganicha biroz turib qoldi. Ipni qo'yib yuborishga yuragi betlamas, avliyo otaga o'q tekkan zahotiyiq qozikalonning egnidagi kiyimlar o't olib, uni bir zumda jizg'anak qilib tashlaydigandek tuyulayotgandi.

Ayni fursatda xanjarni otishga shaylanayotgan Burbulitning yovuz basharasi uning ko'z o'ngida namoyon bo'ldi-yu, bosh vazirni shahdidan qaytarish maqsadida kamonning tarang tortilgan ipini qo'yib yubordi. O'q Madumarning kallasiga borib sanchilganini ko'rib, vahimadan ko'zlar olayib ketdi, nafasi bo'g'ziga tiqilganicha o'zini tomdan tashladi. U shaloplab qandaydir suyuq alanganing ichiga tushgandek bo'ldi va jizillab kuya boshlagan badanidagi og'riqning zo'ridan telbalardek qichqira ketdi. „Avliyoning la'natiga uchradim, tiriklayin jahannamga tushdim“, degan o'y uning xayolida tinimsiz takrorlanar, jon-jahdi bilan o'zini u yoqdan bu yoqqa urib, bor ovozda dod solardi.

Tomdan sakrab, shoshilishda hovlidagi qaynoqbulloqning ichiga tushgan Hoshim Heziddin Xum bir zumdayoq qaynatilgan go'shtdek g'ujanak bo'lganicha qotib qoldi. Endi u na avliyolarning qahridan, na Burbulitning xanjaridan qo'rqrar, endi uni hech kim, hech narsa bezovta qilolmas edi.

Madumar muguzdorning arvohi sifatida olomonni Tandirga yetaklab borayotgan Alamazonning boshi nogahoniy bir zarbadan qattiq silkinib ketdi. U yuqoriga qo'l uzatib, sallasiga sanchilgan o'q-yoyni siltab sug'urib oldi.

Sallani haddan ziyod katta qilib o'ragani uchun shu tobda u Shal pangdan juda minnatdor edi.

O'g'ri mushukdek har tomonga jalanglab yurish avliyo ota arvo hining sha'niga to'g'ri kelmasdi. Shu tufayli Amazon o'q uzilgan tarafga o'girilib qarashdan o'zini tiyib, gerdaganicha oldinga yurishni davom ettirdi. Lekin ikkinchi o'q uning orqa kuragiga sanchilishi ehtimoldan xoli emasdi. Shuni o'y lab, yuragi sal jimirlab ketdi.

„Muhimi – o'q tekkan paytda qichqirib yubormasam bo'lgani, – o'zini chidamliroq bo'lishga undadi Amazon. – Og'riqqa chidashim, hech narsa bo'l magandek oldinga boraverishim kerak. Saroya yetib olguncha yiqilmasdan borolsam, qolgan ishni piyodalarim mensiz ham bplashadi“.

Xayriyatki, unga ikkinchi marta o'q uzishmadi.

Sipohilarini saroy oldidagi keng maydonga tizib qo'yib, talvasaga tushganini sezdir maslik uchun qovog'i ni uyib olganicha askarlar safi oldida aylanib yurgan lashkarboshi Shalom Shildir uzoqdan kelayotgan hay-qiriq va „dangir-dungur“ sadolarni eshitib, qulog'ini ding qildi. Birozdan so'ng ularga tayoq do'layib, old-ketiga qaramay yopirilib kelayotgan olomon ko'rindi. Olo mon to'lqini ichra avliyo otaning vahimali oppoq jus-sasi ko'zga chalingan mahali u avvaliga picha ikkilanib turdi, keyin lashkar safini chaqqonlik bilan yorib o'tib, noma'lum tomonga poyga qo'ydi. Unga doimo sodiqlik bilan ergashib kelgan sipohilar bu safar ham qo'mondon larini yolg'iz qoldirishmadi.

– Ular qochib ketishyapti, og'aynilar! – kuyukib qichqira ketdi Janjalmahallaning oqsoqoli. – Ular bilan musht lashmasdan qaytib ketadigan ahmoq yo'q.

Ana, qochishdi, – sevinib chapak chaldi olomon ichida o'ralashib yurgan Hojimat jinni. – Endi hamma quvlash-quvlash o'ynaydi, vah-vah-vah...

Olomon yuzlab tayoqlarni havoda o'ynatganicha, lash-karning ketidan quvib ketdi. „Ur, sol!“, „Ur-ha, u-ra!“ devon baqiriq-chaqiriqlar butun mamlakatni larzaga soldi.

Shippak xabar yetkazgan palladayoq jadal yo'lga chiqib, avliyoning piyodalari bilan izma-iz shaharga kirib kelgan Palaxmon polvon boshliq Ajdarobod qo'shirlari Tandirni hech bir talafotsiz ishg'ol qilishdi.

## HOJIMAT JINNINING TAKLIFI

Pokpadar el irkitlik isnodidan butunlay xalos bo'lgan qutlug' kun tongida Onayulduz ham odatdagidan yorqinroq chaqnadi. Tandir shahrining quyi qismidagi Yiltiroqdalada shag'aldek yoyilib yotgan dur-javohirlarning kamalakrang jilosi ufqni yana tovus patidek to'sib qo'ydi.

Oltinsaroy sahnidagi marmar maydon ertalabdanoq odamga liq to'lib ketdi. Olomon maydon o'rtasidagi shohsupa ostida chumchuqdek hurpayib turgan Isqirt Birinchi va uning arbob-ulamolariga musht o'qtalib, asabiy qiyofada tinmay hayqirar, bundan sal oldin o'z jiyanlari bilan birgalikda shaharga yetib kelgan Nodim Ulug', ko'zi tirikligida yaxshi kunlarni ko'rishga muyassar bo'lgan Humo Xartum Ali Abdurahmon va dovyurak sarkarda Palaxmon polvonlar shohsupa ustida nimanidir o'zaro muhokama qilib o'tirishardi.

Chamasi, bu tantananing asosiy qahramonlari hisoblangan jasur bolakaylarning kecha to'polonda birdan g'oyib bo'lib qolganlaricha hanuz bedarak yurganlari, shuningdek, hibsga olingen saroy arboblari orasida bosh vazir Bur-

bulit Idrik Ibrohimning yo‘qligi ularni jiddiy tashvishga solayotgandi.

Bu orada shovqin-suron yanada kuchayib, xaloyiq arbob-ulamolarning qattiq jazolanishini talab qila boshladi.

– Ularni toshbo‘ron qilamiz, toshbo‘ron! – qichqirdi kimdir.

– O‘zлari qurgan zindonda o‘zлari sulayib yotishsa yaxshi bo‘ldi, – shaxsiy fikrini bildirdi yana boshqa birov. – Bir achigan yuvindi ichib ko‘rishsin-chi!

– Yaxshisi, ularni bizga qo‘yib beringlar, – mahalladoshlari nomidan gapirdi Janjalmahalla oqsoqoli. – O‘sha bo‘yni yo‘g‘onlar bilan yakkama-yakka solishamiz.

Oqsoqolning nevarasi esa bobosining pinjida turib, o‘zidan bir-ikki yosh kattaroq bo‘lgan Isqirt Birinchiga qarab xo‘mrayganicha chinqirdi:

– Bittaga bitta chiqasanmi?

– Hey, odamlar, kelinglar, ularni quvlaymiz, – do‘ppisini yarimta qilib, qulog‘iga xashak qistirib olgan Hojimat jinni ham o‘z navbatida taklif kiritdi. – Unisini ushlab burniga chertamiz, bunisini ushlab burniga chertamiz... Mazza, a? Vah-vah-vah...

Odamlarning fikri har xil bo‘lib, Hojimat jinnidan tortib Janjalmahalla oqsoqoligacha – hamma eng to‘g‘ri taklifni men kirityapman, deb o‘ylayotgan edi. Nodim Ulug‘ asta Humo Xartumga o‘girilib: „O‘zingiz biron narsa deng endi“, deya undan iltimos qildi. Chol supaning chetrog‘iga borib, bir qo‘lini yuqori ko‘targanicha g‘ala-g‘ovur bosilishini biroz kutib turdi, so‘ng salmoqli qilib gap boshladi:

– Sizlarni tushunib turibman, sizga qiyin, – odamlarga mungli qiyofada termilib qoldi u. – Xalqqa juda qi-

yin. Shuning uchun qiyinki, u – mushtipar ona, mamlakat esa uning yo'rgagidagi go'dakdir. U o'zi holdan toyishi mumkin, lekin go'dagini baribir bag'rida opichlab yuraveradi. U o'zi och qolishi mumkin, lekin go'dagini baribir emizaveradi. U o'zi yupun yurishi mumkin, lekin go'dagini baribir yasantiraveradi. Xalqsiz qolgan mamlakat onaning sutidan, mehridan judo bo'lgan go'dak kabi o'limga mahkumdir. Xalqsiz qolgan mamlakatning xoqoni ham, arbob-ulamosi ham, mayda-chuyda amaldori ham go'dak vujudidagi kichik a'zolar sifatida u bilan birga halok bo'la-di. Zero, amaldor mamlakatning qo'l-oyog'i, ko'zi va qu-log'idir. Noshud amaldorlar mamlakatning ko'zini ko'r, qulog'ini kar, qo'l-oyog'ini shol qilib qo'yadi va bu nogiron go'dakka ona qanchalar mehr qo'ymasin, uni qanchalar to'ydirmasin, u baribir tirik murdaligicha turaveradi. Bu tirik murdaning vaqtincha yuragi urayotganidan ham cheksiz zavqlana oladigan ona, qanchalar nogiron, nechog'lik benaf bo'lmasin, o'z go'dagini hech qachon bo'g'ib o'ldirmaydi, begunoh go'dakni uning zaif a'zolari halok qiladi.

Humo Xartum shohsupa ostida boshlarini quyi solgani-cha hanuz hurpayib turgan arbob-ulamolarga g'azabnok ko'z qadab, so'zlashda davom etdi:

– Mana bu tekinxo'rlar tamoman benafligi bilan go'dakning zaif a'zolariga aylanib qolishgandi. Bu bilan ular butun bir mamlakatni halokat yoqasiga keltirib qo'yishdi. Lekin, baxtimizga go'dak halok bo'lmadı. Endi u qaytadan oyoq-qo'li but, ko'zi ravshan go'dakka aylandi, ona xalq mehri unga shifo berdi. Oqibatda, go'rso'xta arboblar go'dakning barmoqlaridan kesib tashlangan ortiqcha tirnoqqa aylanib qolishdi. Mana shuning o'zi bular uchun eng dahshatli jazodir.

Humo Kartum Feruzni yoniga chorladi va qo'llarini uning ikki yelkasiga qo'yanicha yana xalqqa yuzlanib, ma'rzasiga yakun yasadi:

– Yangi shahanshoh bir narsani umrbod yodida saqlashini istardim. Ona qanchalar to'q, qanchalar baxtiyor bo'lsa, go'dak shunchalar ko'rkam, shunchalar sog'lom ulg'ayadi. Go'daksiz qolgan ona g'am-g'ussadan ado bo'ladi, onasiz qolgan go'dak esa qarovsizlikdan nobud bo'ladi.

Ko'zlarida yosh tomchilari yiltillay boshlagan Humo Kartum olomonga tikilganicha bir zum turib qoldi.

– Ming qatla shukronalar bo'lsinkim, go'dak va go'dak-dek aziz tuproq ona bilan ona xalqning mislsiz mehridan abadiy bahramanddir. Hammamiz uchun arzanda bo'lgan bobomeros mamlakatimizning mavjudligi va boqiyligi ham ana shunda.

– Bu ajoyib so'zlarni bir umr esdan chiqarmayman, hazrat Humo, – qasamyod qilayotgandek cholning ko'zlariga qat'iylik bilan termildi Feruz, so'ng xaloyiqqa qarab qichqirdi:

– Ona xalqim, azizlarim, men sizni yaxshi ko'raman!!

Xaloyiq to'lqinlanib hayqira ketdi. Minglab yuraklar rishtasini larzaga solgan bu hayajonli soniyada maydonning bir chetidan surnay va chirmandaning sho'x sadosi yangradi. Bu tanish ohangni eshitgan kishilarning labiga beixtiyor tabassum qo'nib, asta jimb qolishdi, hibsga olin-gan arbob-ulamolarning esa afti burishdi.

Darz ketgan muzdek ikki tarafga ajralib, ularni qizg'in olqishlay boshlagan olomon o'rtasidan to'g'ri shohsupa sari yo'l olgan „Bay-bay-bay“ ansambli o'zining mashhur qo'shig'ini so'nggi bor kuylab kelayotgandi:

„Ana Isqirt Birinchi,  
Ahvolini ko 'ring-chi,  
Bay-bay-bay!..“

Shu payt durustgina kiyinib olgan lavoqyuz bolakay xaloyiq ichidan sirg‘alib chiqib, „Alamazo-o-n!“ deb qichqirganicha o‘zini quvnoq yallachilardan birining bag‘riga otdi. Bu uzoq ayriliqdan so‘ng qahramon yurtdoshi bilan qayta diydor ko‘rishishga muyassar bo‘lgan baxtiyor Eshmat edi.

## BURBULITNING QASOSI

Ikki viloyat o‘rtasidagi chegara yo‘qolib, Yulduziston avvalgidek yaxlit mamlakatga aylandi. Palaxmon polvon Ajdarobodga, Nodim Ulug‘ esa Tandir viloyatiga hokim etib tayinlandi. Humo Xartum Ali Abdurahmon yana bosh vazirlik lavozimini egalladi. Saroyda bosh ayg‘oqchi va xufiya ishlar boshlig‘i degan mansablar bekor qilindi. Saroy uchun yasovullar ajratib olinib, qolgan lashkar tarqatib yuborildi.

Shahzoda Feruz taxtga chiqqan dastlabkli kundayoq xalq qator imtiyozlardan bahramand bo‘ldi: Isqirt Birinchining arbob-ulamolari egallab olgan yerlar odamlarga bo‘lib berildi, yaylov va mevazorlar hammaning mulkiiga aylantirildi, mamlakatda ko‘plab hammomlar qurish uchun ulgurji mablag‘ ajratildi. Tug‘ilganidan beri yuvinish nimaligini bilmay ulg‘ayayotgan go‘daklarning erkini bo‘g‘ib, ularni majburan jomga botirishga to‘g‘ri kelganini hisobga olmaganda, irkit avom badanga toza kiyim kiyib, qichishqoq azobidan batamom xorij bo‘ldi. Bularni amalga oshirishda yorug‘ dunyo farzandi bergen maslahatlar Feruzga juda qo‘l keldi.

Alamazon saroy ahli bilan birgalikda Palaxmon polvonni Ajdarobodga kuzatib qo‘ygach, o‘zining sag‘ir piyodalarini yetaklab, saroy ishratxonasiga olib kirdi.

– Mana shu xona endi sizlarga, – dedi u dang‘illama koshonani anqayib tomosha qilayotgan bolalarga qarab. – Shal pang sizlarga boshliq bo‘ladi, mahallalardan yallachilikka ishqiboz bolalarni topib, katta to‘garak tuzasizlar. Saroy yallachilari endilikda shahanshohga emas, avomga tomosha ko‘rsatadigan bo‘ladi.

– Shularning hammasi bizgami? – ishonqiramay so‘radi Shal pang. – Aytmoqchimanki, oltin devorlar-u, zumrad darchalarga tegishmaydimi?

– Devorlarni buzib, darchalarni ko‘chirib ketishadigan bo‘lsa, sen yalandga qolasan-ku, galvars, – Shal pangning peshanasiga chertib qo‘ydi Alamazon.

– To‘g‘ri. Darrov esimga kelmaganini qara-ya!

Sag‘ir piyodalar yangi qarorgohlarining javohir shipini ko‘zdan kechirishayotganda Eshmat o‘rtog‘ini turkilab, asta maslahat so‘radi:

– Sen nima deysan, shularga qo‘shilib g‘ijjak-pijjak ishqab turavuraymi, a?

– G‘ijjakni o‘ynab nima qilasan? – hazillashdi Alamazon. – Qulog‘imni garovga qo‘yib aytamanki, sendan og‘ir vaznli ajoyib karnaychi chiqadi.

Shu mahal tashqaridan kimningdir: „Ah, battol!“ – degan tovushi va gursullab yerga yiqligani eshitildi. Alamazon yugurganicha zumrad darchaning yoniga borib, tashqariga qaradi va saroy ortidagi maysazorda orqasi ga xanjar sanchilgan Humo Xartumning mukka tushib yotganini, uzoqda – maysalar bo‘liq o‘sgran joyda kimdir engashvolib qochib borayotganini ko‘rdi. Alamazon

chaqqon sakrab, darchadan tashqariga chiqqan damda yuqoridan shahzoda Feruzning: „Nima gap, hey Alamazon“, degan ovozi yangradi.

– Qilichingni bu yoqqa tashla, Feruz, – qichqirdi Alamazon, – hazrat Humoni pichoqlab ketishdi.

U yosh xoqon tashlagan qilichni havodayoq ilib olib, „Hazrat Humoga poyidam bo‘linglar“, deganicha soy tarafga qarab chopib ketdi.

Bu paytda allaqachon Yiltiroqdalaga chiqib olgan qotil oyoq ostida qalashib yotgan javohirlarni g‘irchillatib, soy yoqalab qochib borar, goh marvaridlар uyumiga duch kelib, sirg‘alib yiqilar, uni quvib kelayotganlarini ko‘rib turgani uchun yana tezda oyoqqa qalqib, yugurishda davom etardi. U oltin xarsanglar orasiga kirib borgan vaqtda qadam olishi yanayam sustlashdi, ta’qib etuvchi esa xarsanglardan chaqqon-chaqqon sakraganicha, unga tobora yaqinlashayotgan edi.

Soy tugab, oldinda Yulduziston osmoniga tutashib ketgan la’l devor paydo bo‘lgach, qayoqqa qarab qochishni bilmay qolgan qotil potirlagudek bo‘lib noiloj orqaga o‘girildi.

– Mana, qotil kim ekan! – yengil hansirab qichqirdi, izma-iz yetib kelgan Alamazon. – Joningdan umiding bo‘lsa, o‘zingni himoya qil, Burbulit!

– Eshakka ming qatla shukurki, o‘zing panjamga tushing, – atrofga alang-jalang boqib, qilichini qinidan sug‘urdi Burbulit. – Qani, beriroq kel-chi, haromi.

Alamazon qilichini havoda bir-ikki vizillatib qo‘ygach, xotirjamlik bilan Burbulitga yaqinlashdi. Ikkala raqib bir-birining ko‘ziga tikilib olgan ko‘yi doira yasab aylana boshlashdi.

– Bilaman, bu g‘alvalarning hammasiga Humo jinni bilan sen sababchisan, – raqibini cho‘chitish uchun xomaki hamla qilib, tishlarini g‘ijirlatdi Burbulit. – Mug‘ambir kallang tanangdan alohida qilib qo‘yilsa, sen josus juda bezarar bo‘lib qolasan.

U shunday deya, zarb bilan qilich selpidi. Alamazon hozirjavoblik ko‘rsatib o‘zini himoya qilgan chog‘da, ikki qilich o‘rtasidan charsillab uchqun sachradi. Alamazon bиринчи зарбани усталик билан qaytargan bo‘lsa-da, raqibiga nisbatan jismonan kuchsiz edi. Uning suyak-suyaklari zing‘illab ketdi va muvaffaqiyat qozonish uchun keyinги zarbalarga iloji boricha chap berib, avval raqibni butkul charchatib olish lozimligini anglatdi. Shundan keyin u oltin xarsanglar ustidan sakrab-sakrab qocha boshladi, Burbulit „Ana sanchdim, mana yanchdim“ bilan uni qadamma-qadam ta’qib qila ketdi. Lekin aniq mo‘ljal bilan selpigan qilichi har safar raqibining biron joyini yalagudek bo‘lib o‘tar, bundan muvozanatini yo‘qotgan Burbulit goh o‘rnida chirpirak bo‘lib aylanar, goh mukkasi bilan yerga yiqilardi. U o‘rnidan turib, qayta hamлага otilar kan, bu safar uni, albatta, chopib tashlayman, deb o‘ylardi-yu, yana noumid qolardi.

Alamazon asta-sekin chekina borib, soy suvi varaqlaganicha la‘l devor ostiga kirib ketayotgan girdob yoqasidagi oltin xarsang ustida to‘xtadi. Yana bir qadam orqaga yurgudek bo‘lsa, tomog‘i taqillab turgan girdobga yem bo‘lishi mumkinligini tushundi.

– Oxiri qo‘lga tushding-ku, haromi, – o‘pkasi og‘ziga tiqilayozgan Burbulit tirjayganicha unga yaqinlasha boshladi. – Yanayam orqaga sakrab ko‘r-chi.

U bor kuchini jamlab raqibining qanshariga qarab qilich tortdi. Alamazon bu safar ham sovuqqonlik bilan

himoyalanib, boshi ustida vizillagan qilichni osonlikcha chetga sirpantirib yubordi. Ammo, kutilmaganda, qirrali xarsang ustida muvozanatini yo‘qotib, bir daqqa himoyasiz qoldi. Bu – bolakayning butun jang davomida yo‘l qo‘ygan birdan bir xatosi edi. Mana shu bir lahzalik qulay imkoniyatni ko‘pdan buyon zoriqib kutayotgan Burbulit bor diqqatini raqibining ko‘kragiga jamlab, o‘ljaga tashlanayotgan yirtqich hayvonga xos o‘kirib oldinga otildi va qilichini zarb bilan mo‘ljalga niqtadi. Qilich qovurg‘alarni mayaqlab o‘tib, „Hayot, hayot, hayot“, deya tinimsiz zorlanib turgan o‘sha begona yurakka sanchilishi kerak edi, negadir sanchilmadi. Himoyasiz ko‘krak qilichdan tilka bo‘lishiga bir bahya qolganda, Burbulitning ko‘z o‘ngidan qo‘qqis g‘oyib bo‘ldi va Burbulit qanday jodugarlik ro‘y bergenini anglab ulgurmey, o‘zini yovuz girdobning chan galida ko‘rdi.

Bolakayning navbatdagi nayrangiga laqqa tushgan Burbulit bor basti bilan oldinga sapchigan onda Alamazon qushdek yengil sakrab, yon tomondagi xarsang ustiga o‘tib oldi-da, maqtanchoq raqibining soyga qanday kalla tashlayotganini bemalol kuzatib turdi. Dahshatdan ko‘zlarini olayib ketgan sobiq bosh vazir qichqiriqqa og‘iz juftlagan damda unga allaqachon bo‘g‘ma ilondek chirmashib olgan girdob o‘ljani zudlik bilan domiga tortdi, keyin go‘yo hech narsa ko‘rmagandek, yana o‘z maromida buralib-buralib o‘ynay boshladi.

„Tapir-tupur“ qadam tovushlarini eshitib, Alamazon keskin ortga o‘girildi, yordamga oshiqqanlaricha harsillab chopib kelayotgan saroy yasovullarini ko‘rib, beixtiyor hamlaga shaylangan qilichini asta pastga tushirdi.

– Qoyil, janob Alamazon, barakalla! – endilikda yasovulcha kiyinib olgan Tirtiq kechagina eski gina-kudu-

ratlarini unutib, u bilan picha chaqchaqlashib olgan Alamazonidan biroz narida to‘xtalib, pishillaganicha hayrat izhor qildi. – Xix, tfu! Biz yugurib kelayotib, barini ko‘rib turdik. Qoyil-e!

– Ha, ko‘rib turdik, – girdob tarafga bo‘ylanib, odadagidek ko‘pira ketdi Shilpiq. – Siz u junboshni boshingizdan oshirib, soyga uloqtirdingiz. Hatto, mashhur qilichboz Barri Baraka ham bunaqa jang qilolmagan bo‘lardi.

Uchinchi yasovul nafasini rostlab olish uchun xarsanglardan biriga o‘tirib, qo‘ynidan sadaf gulli nosqovoqni chiqardi-da, zo‘r ishtaha bilan nos kapladi. U, Qoratuy-nuk yonidagi unutilmas to‘qnashuvda avliyo ota arvoхining amri bilan o‘z sardori Kandir Kaltaning ustiga birinchi bo‘lib otilgan o‘sha shaddod kamonchi edi. Alamazon uning qo‘lidagi nosqovoqqa yana qiziqib qaradi va „Bir ko‘rsam maylimi“, deya asta qo‘l uzatdi. Bu vaqtda nimanidir o‘ylab o‘tirgan yasovul uning gaplarini eshitmay qoldi.

– Hey, Xabar, – unga qarab o‘shqirdi Tirtiq, – janob Alamazon nosqovog‘ingni so‘rayaptilar. Qani, irg‘it-chi, ho‘p-pa!

– Ho‘p-pa! – shang‘illadi Shilpiq ham.

Alamazon guldir nosqovoqni havas bilan ko‘zdan kechirarkan, oldin ham xuddi shunga o‘xshagan qovoqni qayerda ko‘rganini eslashga harakat qildi. Esladi-yu, birdan yuragi hapriqib ketdi. Ular hali Jandag‘orga yurish boshlamaslaridan bir necha kun avval Qo‘chqorsoyda cho‘milib yurgan bolalar suvdan xuddi shunga o‘xhash nosqovoq ushlab olishgandi.

– Buni qayerdan oldingiz? – yasovuldan so‘radi Alamazon.

— Kandir Kaltadan esdalik bu, — nos achishtirayotgan tilini kildiratib javob qildi Xabar. — Ochig‘ini aytsam, qovoqni undan shilib olganman. U chalasavodga bunaqa chiroyli narsalar hayf.

Shunda Kandir Kaltaning bitta nosqovoqni ehtiyyotsizlik qilib soyga tushirib yuborgani haqida ilgari Tirtiqqa aytgan gaplari ham Alamazonning yodiga tushdi.

„Bundan chiqdi, Qo‘chqorsoy mana shu girdobning davomi ekan-da“, deya hozir shu yerdan sho‘ng‘isa, zum o‘tmay Toshtaqa sharsharasi ostidagi buloqdan chiqadi-gandek quvonib o‘yladi u.

Bu yorug‘ dunyoga olib chiqishi mumkin bo‘lgan uchinchi yo‘l edi.

## **YORUG‘ DUNYO HAQIDA QO‘SHIQ**

Alamazon savol nazari bilan tikilib turgan Nodim Ulug‘ga hamma ish joyida degan siyoqda bosh qimirlatib qo‘yib, Humo Xartum yotgan o‘rindiq yoniga tizzaladi. Chol zo‘riqib-zo‘riqib nafas olar, tabib uning yarasiga giyoh suvini tomizgan chog‘da zorlanib ixrar, dam-badam ko‘zini ochib, atrofdagilarga ma’nosiz nazar tashlardi. Uning yuzlaridan tinimsiz quyilib kelayotgan terlarni malika Ruzvon peshma-pesh artib qo‘yar va peshanasiga barmoqlarini bosib, uning isitmasini chandalab ko‘rardi.

Bu yerga kirgandan beri fikr-u yodi chol bilan band bo‘lgan Alamazon munchoqko‘z Xazinaning anchadan buyon miq etmay unga tikilib turgani, har bir harakatini diqqat ila kuzatayotganini sezmadni ham.

— Jarohat unchalik xavfli emas — dedi tabib, Humo Xartumning yarasini bog‘lab bo‘lib. — Lekin ko‘p qon ketgan. Qariya buni ko‘tara olarmikan?

So'ng, dori-darmonlarini yig'ishtirib xaltachaga solar-kan, „Unga Muqaddas eshakning o'zi shifo bersin“, deya iltijo qildi. Bechora tabib o'sha oliy zotning eng yaqinlaridan biri bo'lgan Madumar avliyoning arvohi o'zidan boryo'g'i bir qadam narida turganligidan bexabar edi.

Alamazon lohas odim tashlab saroydan tashqariga chiqib borayotgan paytda „Alamazon“ degan ipakday mayin va yoqimli tovushni eshitib, sehrlangandek to'xtab qoldi.

– Alamazon, – Xazina qo'ng'ir sochlarini selkillatgani-cha dirkillab kelib, uning yonida to'xtadi. – Hazrat Humoni kim chavaqlabdi? Tuttilaringmi uni?

„Qaniydi, shu qiz yaqin o'rtog'im bo'lsa“, deb o'yladi Alamazon, mayin tovushidan samimiylilik, porpiroq ko'zlaridan mehribonlik aks etib turgan xushtabiat qizga tikilib. Xazina o'zining nozik jussasi, gulday yuzi, bejirim xulq-atvori bilan Alamazonning yorug' dunyodagi sinfdoshi Azizaga judayam o'xshab ketar, faqat malika-larga xos bashang kiyimlari-yu, yarqiroq taqinchoqlari ila farqlanib turardi.

– Qotilni ushholmadik, – yurishda davom etib, noxush javob qildi Alamazon, – narigi dunyoga qochib qoldi.

Ular saroydan chiqishib, marmar haykallar qatorlashib turgan maysazor tomon yura boshladilar.

– Nega xafasiz, Alamazon? – boyadan beri nimanidir o'ylab, jim odimlab kelayotgan Alamazonga sinchkovlik bilan ko'z qadadi Xazina. – Sog'inyapsizmi... yorug' dunyoni?

– Ha!

Xazina yorug' dunyo haqida unga turli-tuman savollar berishga tutindi. Uning savollari shunaqayam sodda, shun-aqayam jo'n ediki, Humo Xartumning ahvoli og'irligidan

ko‘ngli g‘ashlanib turgan Alamazonning beixtiyor kulgisi qistab ketdi. Ayniqsa, Xazina: „Yorug‘ dunyoga chiqsak, akam o‘sha yoqda ham shahanshoh bo‘ladimi“, deganida, qah-qah otib yuborishdan o‘zini zo‘rg‘a tiyib qoldi.

– Feruz juda esli bola, – sir boy bermay javob qildi Alamazon. – Balki, keyinchalik ministr bo‘paketar. Lekin dastlabki paytlarda mahallaga oqsoqollik ham qilolmaydi.

Shunda Xazina ministrning kimligini so‘radi. Alamazon ministr, ya’ni vazirning katta odam ekanligini, telefonda uzoq-uzoqlarga buyruq berishi mumkinligini tu-shuntirdi. Buni eshitib, Xazinani telefon qiziqtirib qoldi. Oxiri uning fikri ayqash-chuyqash bo‘lib ketib, yorug‘ dunyoda g‘aroyib tilsimotning ko‘pligidan tashvishlana boshladi.

– Yorug‘ dunyoga chiqsak, rosayam boshimiz qotib qolmasmikan, Alamazon?

– Zarari yo‘q, o‘qitamiz, o‘rgatamiz.

– Kerakmas, – zarda bilan qo‘l siltadi Xazina. – Keyin siz anqovlarni biz donolar odam qildik, deb maqtanishga tushasizlar.

– Qo‘ysang-chi, Xazina, – ranjib, yurishdan to‘xtab qoldi Alamazon. – Nahotki sen bizlarni shunaqa pastkash odamlar deb o‘ylasang?

Shu vaqt saroy tarafdan Shippakning do‘rillagan ovozi eshitildi:

– Ho‘-ho‘y, Alamazon!

– Nima? – gapning beliga tepding-ku, degandek jahl bilan javob qildi Alamazon.

– Ke, bizning ishimizni hal qilib ber.

Alamazon: „Sen hazrat Humoga birpas qarab tur, men keyinroq kiraman“, deya Xazinani kuzatib qo‘yib, sag‘ir piyodalarining yoniga yo‘naldi.

– „Bay-bay-bay“ endi eskirib qolganmish, – Alamazon hali yetib kelmay turib javrashni boshlab yubordi Shal pang. – Aytmoqchimanki, bular ansambulning nomini o‘zgartirish kerak deyishyapti.

– Yangi nom topdilaringmi? – so‘radi Alamazon.

Shal pang „yo‘q“ degandek bosh qimirlatganini ko‘rib, Masalanning jahli chiqib ketdi.

– Sen topmasang, mana, men topganman, – qichqirdi u gerdayib. Keyin Alamazonga yuzlandi: – Masalan, shunday deb atasak-chi: „Avliyo otaning arvohiga ergashib, mamlakatni kirlikdan qutqarib qolgan shovvoz ansambul“.

– Iye-iye, – sipolik bilan iljayib qo‘ydi Eshmat, – chalasavod odam munaqa nomni bir yil o‘qiydi-ku.

– Unda, qisqarog‘ini o‘zing top, – Alamazon sovg‘a qilgan tugmachiroqni qo‘ynida paypaslab turib gapirdi Masalan. – Menga desa „Sharaqapachaq“ deb atagin.

Keyin u Eshmatning ko‘zlariga masxaraomuz tikilib, quvlik bilan piching qotdi:

– Yoki, masalan, „Shildirvoqi“ desakmikan?

– O‘tgan safar xat berayotganingdayam jig‘imga teguvding, – kichkintoyni qorni bilan turtib, jirillay ketdi Eshmat. – Senga aytib qo‘yayin, yana achchig‘imni chiqaradig‘on bo‘lsang, sulaytirib qo‘yaman.

– Topdim, topdim! – boshlanib kelayotgan janjalga barham berishga intilib, shosha-pisha gapirdi Alamazon. – Ansamblimizga „Yorug‘ dunyo“ deb nom qo‘yamiz.

– Tushunmadim, – qulog‘ini ding qildi Shal pang. So‘ng Shippak bilan Masalanning ham ko‘zi gildirab qolganini ko‘rib, endi ko‘pchilik nomidan takrorladi:

– Tushunmadik! Aytmoqchimanki, nima u... yorug‘ dunyo?

Alamazon Eshmatga zimdan ko‘z tashladi. Ustida quyosh charaqlab turuvchi bepoyon olamning nomini Shal-pang hech bir his-hayajonsiz tilga olayotgani Eshmatga og‘ir botgan bo‘lsa kerak, yana afti burishdi.

Alamazon sodiq piyodalariga bor haqiqatni aytish lozimligini, aytmasa keyinchalik ular o‘z qo‘mondonlaridan qattiq ranjishlari mumkinligini his qildi. Lekin, hozir laqillab o‘tirishning vaqt emasligini sezib, ishni biroz kechroqqa surishni ma’qul topdi. U Humo Xartumning ahvoldidan xabar olishi kerak edi.

– Yorug‘ dunyomi? – haqiqatga yaqinroq javob topish uchun xiyol o‘ylanib qoldi Alamazon. – Yorug‘ dunyo, bu – Onayulduz! Men unga atab bitta she‘r yozib beraman.

U piyodalarini endigina ichkariga boshlamoqchi bo‘lib turganda, „Hey!“ degan muloyim tovushni eshitib, asta orqaga o‘girildi. Yulduzistonning eng quvnoq bandsi bo‘lgan Hojimat jinni ulardan picha narida barmog‘ini tishlaganicha tirjayib turardi.

– Yuringlar, quvlash o‘ynaymiz, – bolalarni qiziqtirish uchun turgan joyida bir shataloq otib qo‘ydi u. – Kimni ushlasak, burniga chertamiz. Vah-vah-vah...

Bolalar kulganlaricha ichkariga qarab yurishdi.

Sog‘inchdan ilhomni jo‘shib ketganidanmi, Alamazon yorug‘ dunyo haqidagi she‘rni juda tez yozib tugatdi. Uni bolalarga yodlatishni Eshmatning zimmasiga yuklab, o‘zi Humo Xartumdan xabar olgani jo‘nadi.

Humo Kartum hanuz behush yotardi. Shunday bo‘lsa ham, uning boyagidan ancha tekis nafas olayotganini ko‘rib, Alamazonning ko‘ngli sal taskin topdi. Bu orada xonaga saroy tabibi kirib kelib, bemorning jarohatiga yana malham qo‘ya boshladi. U ham cholning ahvoli yaxshilanayotganini mamnun ta’kidlab o‘tdi.

Tabib chiqib ketgach, Alamazon oltin darcha pardalari-ni keng ohib qo'yib, Yiltiroqdalaning kamalakrang ufqiga singib ketayotgan suronli soyning shovullashiga qulq sol-ganicha uzoq-uzoqlarga termilib turib qoldi.

– Nimalarni tomosha qilyapsiz, Alamazon? – unga ya-qin kelib, o'sha yoqimli tovushda so'radi Xazina.

– Ho', soy tugagan tomonga qaragin-a, Xazina, – qo'li bilan o'sha yoqni ko'rsatdi Alamazon. – La'l devorni ko'ryapsanmi?

– Ha, ko'ryapman, – avvalda ham ming marta ko'rgan o'sha yiltiroq qoyalarga bu safar negadir diqqat bilan tikildi Xazina.

– Qiziq, a?

– Voy, uning nimasi qiziq?

– Shunisi qiziqki, o'sha devorning orqasida la'l bilan javohirlardan ham chiroyliroq Yorug' dunyo bor. Lekin yarqiroq toshlar uni ko'zimizdan to'sib turibdi. – Humo Kartum bir paytlar Majiddin Ravshaniyning „G'urbatno-ma“ kitobidan o'qib bergen jumlanı takrorladi u.

Xazina biroz jimb qoldi. Keyin ularning bu mamlakatga nima sababdan kelganliklarini so'radi. Alamazon g'orlar ichida bekinib yotgan xazinani topmoqchi bo'lganliklarini aytdi. Xazina deyilganda Yulduzistonda faqat odamning ismi tushunilardi. Shu tufayli: „Kim u... Xazina?“ – deb savol berdi qiz va birdan qizarib ketdi. Alamazon o'z yonida turgan qizning ismi ham Xazina ekanligini shundagina eslab, asta jilmayganicha, „U – sensan“, dedi.

– Meni aldayapsiz, Alamazon, – quvonib ketgandek ko'ringan bo'lsa-da, Alamazonning lofchiligini avaylab yuziga soldi Xazina. – Siz meni ilgari ko'rmagansiz-ku!

– Ko'rmaganman, to'g'ri, – tom ma'noda rost, ko'chma ma'noda yolg'on gapira boshladi Alamazon. – Lekin

Xazina shu tarafda bo'lsa kerak, deb taxmin qilganman. Ishonmasang, Eshmatdan bu yoqqa nima uchun kelganimizni so'rab ko'r. Agar u: „Xazinani qidirib kelganmiz“, demasa, quloqlarimdan kechganim bo'lsin.

- Yorug‘ dunyo haqiga qasam iching-chi.
- Yorug‘ dunyo haqiga qasam ichib aytamanki, men bu yoqqa xazinani topish uchun kelganman.

Xazinaning ko'zlarini hayajonli porpirab ketgan pallada pastdan yoqimli musiqa sadosi yangrab, uning allalovchi ohangi butun saroy xonalari bo'ylab tarala boshladi. Amazonning shovvoz piyodalari uning yorug‘ dunyo haqidagi she'rini bastalab bo'lishib, endi uni yurak-yurakdan baralla kuylayotgan edilar:

*Olisdagi chaqinsan,  
Hey, Yorug‘ dunyo!  
Ko'nglimizga yaqinsan,  
Hey, Yorug‘ dunyo!*

*G'orlarga nur tutib tur,  
Hey, Yorug‘ dunyo!  
Bizni biroz kutib tur,  
Hey, Yorug‘ dunyo!..*

## NOYOB DORI YOKI XOTIMA

Qissaning dastlabki boblaridan birida Amazon bilan Eshmat professor Og'abek Turkoniying sehrli dorisini ichganlaricha Zimistonsaroyda uqlab qolishgandi. Yana o'sha joyga qaytishga to'g'ri keladi.

Shirin tabassum bilan asta ko'zini ochgan Amazon o'zini Zimistonsaroyning ichida ko'rib, seskanib ketdi.

„Bu yerga qanday kelib qoldik, – birdan yuragi xijil tortib, atrofga alanglab o'yladi u. – Boshqalar qani?“

Dunyoni suv bossa menga nima, degandek bemalol pishillab u xlabelotgan Eshmatning tinimsiz og‘iz chapil-latayotgani uning battar jahlini chiqardi. Eshmat lunjini shishirib yamlanganicha, „Endi kavobni opkelavur“, deb xirqiragan paytda, u ortiq chidab turolmadi. „Mabodo, shapaloq yesalar qalay bo‘larkin“, deya g‘ijinib o‘yladi Alamazon va Eshmatning bo‘g‘zidan ushlab, qattiq siltay boshladi.

– Qani, tur o‘rmingdan, tur deyapman senga! O‘lib qolganmisan? Ko‘zingni och, hey! Ko‘zingni ochsang-chi, Ishma!!!

Ko‘zini g‘ira-shira ochgan Eshmat birdan alahsirab valdirashga tushdi:

– A? Nima? Qo‘yvor! Nimaga buzyapsan, yaramas? Buzma oshxonani!

– Haliyam ovqatning dardida yuribsanmi, ishkamba? – uni siltashda davom etdi Amazon, – Feruz bilan Xazina qani? Humo Xartum-chi?

– Nimalar deyapsan o‘zing? – ko‘zlar olayib o‘shqirdi endi ancha o‘ziga kelib qolgan Eshmat. – Qandaqa xartum?

– Mana bunaqa xartum deb gardaningga qarab tortaymi hozir? – kuyukib ketdi Amazon. – Nima, tanimay qoldingmi uni? Sen bilan qo‘shiq aytayotgan sag‘irlarim qani? Hali ularni ham bilmayman dersan?

– Qilar ishni qipqo‘yib, gapni boshqa yaqqa burma. Oldin menga ayt-chi, nimaychun oshxonamni buzib tashlading?

Ular bir-biriga baqira-chaqira, tuyrukdan sog‘-omon o‘tib olishib, bu yerga dastlab kirishayotganda yarim yo‘lda tashlab ketgan osmaqopchiqlarini unutib qoldirganlaricha Jandag‘ordan chiqib kelishayotganda ham bir-biri ni bo‘ralashdan tiyilishmadi.

Dom-daraksiz ketgan ikki daydini qidirib, tuni bilan mijja qoqmay chiqqan qishloq ahlining bir qismi bu mahal-

da tog‘da izillab yurishgandi, bolalarning tovushini eshitib, halloslagan ko‘yi ular tomonga yugurishdi. Bolalar esa ularga parvo ham qilmay, janjallashgancha qishloq tarafga borishardi. Yaylov etagida ivirsib yurgan odamlar ham uzoqdan ularning qorasini ko‘rishgach, g‘ala-g‘ovur bilan yuqoriga qarab chopishdi. Ikkala sayoq bir zumda olomonning qurshovida qoldi.

Fig‘oni falakka chiqqan ota-onalar besaranjom bo‘lgan butun qishloq ahli nomidan bu ikki bevoshning boplаб ta’zirini berib qo‘yishga tirishayotganda ham Alamazon bilan Eshmat o‘rtasidagi dahanaki jang qizg‘in davom etayotgandi.

– Menga tegmay turing, – allaqachon kamarini shiman dan sug‘urib olgan dadasingin qo‘lidan siltanib chiqib, Eshmatga bo‘yin cho‘zdi Alamazon. – Bu ishkamba, hatto hazrat Humoni tanimay qolgan mish.

– Munaqa tuhmat qiladig‘onni birinchi ko‘rishim, – ikkala mushtini ko‘ksiga tirab qichqirdi Eshmat. – Kattakon oshxonamni buzvorib, endi gapni aylantiryapti.

– Sotqin! – uning surbetligiga toqat qilolmay, jon-jahdi bilan o‘shqirdi Alamazon. – Isqirt Birinchining yuvindixo‘ri!

Professor Og‘abek Turkoniy bularga tegmanglar, hammasi o‘tib ketadi, degandek odamlarga ma’noli qarab qo‘yib, o‘zi jiyanining yelkasidan ushlaganicha bosiqlik bilan so‘radi:

– Xo‘s, jiyan, qayoqlarda sayr qilding? Nimalarni ko‘rding?

Alamazon dunyoda haqiqatni surishtiradigan odam ham bor ekan-ku, degandek tog‘asiga yuvoshlanib ko‘z qadadi va jiddiy qiyofada, alamzadalik bilan dedi:

– Men Yulduzistonda bo‘ldim, tog‘a. U yerdagi odamlar quyosh nimaligini bilmay yashashyapti. Ular to‘q, ham-

ma yoqda dur-javohirlar sochilib yotibdi, lekin u yerda quyosh yo‘q. Do‘stlarimga sizlarni Yorug‘ dunyoga olib chiqaman, deb va‘da bergen edim. Ular qorong‘i g‘orda qolib ketishdi. Men yolg‘onchi bo‘lib qoldim. Ularga yaxshilik qilolmadim, tog‘a.

Alamazon gapni tugatib, tog‘asidan va odamlardan sekin-asta uzoqlasha boshladi. U boshini tik tutganicha qishloq ko‘chalarini kesib o‘tib, to‘g‘ri soy tomonga qarab yurdi. Sohil yaqinida qo‘y boqayotgan Usmon podachining yonida to‘xtalib, „Mabodo, soydan bironta o‘lik oqib o‘tmadimi“, deb so‘radi.

– Yo‘g‘-e, yo‘g‘-e, – shaytonlagudek bo‘lib javob berdi Usmon podachi. – Lekin, Xudo yolg‘onchi qilmasin, ham o‘lgan qo‘yning oqib o‘tganini ko‘ruvdim.

– Aldayotgan bo‘lsam, qulog‘im garovda turibdi, – podachining ko‘zlariga sovuq nigoh tashladi Alamazon. – Siz Burbulitning o‘ligini ko‘rgansiz. O‘lgandan keyin hamma odam ham qo‘yga o‘xshab ko‘rinadi, degandi Ahmad go‘rkov.

Tuturiqsiz boshlanib, mujmal tugagan bu sovuq gaplardan Usmon podachining eti junjikib, sharshara tarafga qarab yo‘l olgan Alamazonning ortidan xo‘shshayganna-mo kuzatib qoldi.

Alamazon sharshara ostiga yetib borgach, tizzasigacha suvgaga tushib, yulduzistonliklarning hayqirig‘idek betinim sharqirayotgan ulkan buloqqa termilganicha uzoq sukut saqlab turdi. Keyin muqaddas joyga sig‘inayotgan kabi asta shivirlay boshladi:

– Men sizni og‘ir paytda tashlab ketdim, kechiring, hazrat Humo! Feruz, Xazina, qadrdonlarim, sizlarning oldingizda yolg‘onchi bo‘lib qoldim, kechiringlar. Xushchaqchaq sag‘ir piyodalarim, sizlarga Yorug‘ dunyo haqidagi gapirib berishga ulgurolmadim, kechiringlar meni.

So'ng yangroq tovushda qichqira ketdi:

– Azizlarim, menga ishoning, baribir sizlarni yolg'iz qoldirmayman. Sizlarni, siz bilan birga Yulduzistondagi hamma odamlarni qorong'i g'ordan yetaklab chiqaman. Hammangiz quyoshni ko'rasiz, quyoshni! He-he-he-eey, eshityapsizlarmi? Men Yorug' dunyo nomidan gapiryapman!

Uning lojuvard buloqqa armon bilan tikilib turgan chaqnoq ko'zlaridan bola qalbidek top-toza yosh tomchilari quyilib kela boshladi. Bu ko'zyoshlar asov Qo'chqorsoy suvlariga tong shabnamidek yarqirab-yarqirab tomchilar va dalli to'lqinlarga qo'shilib g'alayon ko'tarardi.

Alamazonning tayini yo'q dur-javohirlar haqida aljiraganicha soy tomonga qarab jo'nab qolgani, Eshmatning qandaydir buzib tashlangan oshxonha to'g'risida to'xtovsiz valdirayotgani hammani lol qilib qo'ygandi.

– Voy, Xudo-yeys! – boshini changallab, yig'lashga tutindi Eshmatning onasi. – Donogina bolam galdir bo'lib qolsa, nima qilaman?

– Vahima ko'tarmasangiz-chi, axir! – biroz asabiyla-shib iltimos qildi Og'abek Turkoniy. – Aytayapman-ku, ular dori ichishgan, hademay o'zlariga kelib qolishadi.

Professor Turkoniyning arxeolog do'sti Afrosiyobda qazilma ishlari olib borayotgan chog'da namxush tuproq ichida bezavol yarqirab turgan kumush quticha topib olgan edi. Gugurt qutisidan sal kattaroq bo'lgan bu mo'jaz bezakning qopqog'iga o'yib yozilgan harflar uning e'tiborini jalb etib, lupa yordamida hijjalab o'qiy boshladi: „Ichgil-u, maqs... gil“. Quticha qopqog'inining bir chetiga o'sha qadim vaqlarda qandaydir narsaning zarbi tekkan bo'lib, o'yib bitilgan harflarning bir qismi chaplashib ketgandi. Shunga qaramay, keyinchalik u qopqoq ustiga yozilgan so'zlarni to'liq tiklab

olishga muvaffaq bo‘ldi va bu sirli so‘zlar da’vati bilan qu-tichadagi to‘rt dona doridan bittasini o‘zi ichib ko‘rdi.

Ichib ko‘rdi-yu, g‘aroyib sariq tugmachalar jodusidan hayratga tushib, uni o‘zining eng yaqin do‘sti bo‘lmish professor Og‘abek Turkoniya ko‘rsatishga ahd qildi. Agar keksa arxeologning gapi rost bo‘lsa, bu sariq tugmachalar yaqin kelajakda butun meditsina olamini lar-zaga solishi mumkinligini tushungan professor Turkoniya tabobatning noma'lum allomasi bundan bir necha asr il-gari kashf etgan noyob dorining xususiyatini katta qizi-qish bilan o‘rgana boshladi. U dorining turli kasbdagi odamlarga qanday ta’sir qilishi mumkinligini tekshirish, qolaversa, uning sehriga qat’iy ishonch hosil qilish uchun tugmachalardan birini iste’dodli yosh arxitektorga ichirib ko‘rdi. Arxitektor o‘n besh soatdan ko‘proq miq etmay uxladi. Uyqudan uyg‘oniboq, hali sarxushligi tarqamay turib, keyinchalik me’morchilikning mislsiz yutug‘i deb tan olingan ulkan va shinam zamonaviy binolar suratini chizishga kirishdi.

Ma‘lum bo‘lishicha, dorini ichib uyquga ketgan arxi-tektor minglab g‘aroyib binolar qad ko‘tarib turgan noma'lum shaharda go‘yo bir necha hafta sayr qilganmish. O‘sha binolardan bir nechtasining mukammal tuzilishi uning xotirasida mustahkam saqlanib qolganligi ajablanarli hol edi.

– Bu yeryutgurlar shunday qimmatbaho dorini indamay ichib qo‘yishganiga kuyaymi, – taqdirga tan berib uyga qaytib kelishgach, dorining nojo‘ya isrof bo‘lganiga achi-na ketdi Alamazonning oyisi.

Alamazonning akasi esa boshini chayqab turib: „Uni dori emas, kitoblar xarob qildi“, deya kitobtaxmon tarafga zimdan nazar soldi.

To‘qsonni urib qo‘ygan kampir ham odatdagি xurujini boshladi:

– Bolani erkalatsang, mana shunaqa bo‘ladi. U mahnadananing allaqachon tizginini tortib qo‘yish kerak edi.

– Bizning Alamazon g‘orda qandaydir odamlar bor, degandek bo‘ldimi? – qaytadan shimga o‘tkazib olgan kamarni bir paypaslab qo‘yib, professordan so‘radi Alamazonning dadasi. – Yana, tilla-marvaridlar sochilib yotibdi deydimi-yey. Yo uniyam gapida jon bormikan, a?

– Odamlar xususida bir nima deyish qiyin, – biroz o‘ylanib javob qildi professor. – Lekin oltinlar masalasiga kelsak... Geologlar Jandag‘or atrofini yaxshilab tekshirib ko‘rishsa chakki bo‘lmasdi.

– Bundan chiqdiki...

– Ha, rost bo‘lishi mumkin, – pochchasining so‘zini bo‘ldi Og‘abek Turkoniy. – Masalan, arxeolog do‘stim o‘sha doridan bittasini ichib olgach, tushida moziyadagi Afrosiyobga borib qolibdi, hatto qo‘qqis bostirib kelgan dushmanlarga qarshi jangda ham ishtirok etibdi. Bir payt u zarrin choponga burkangan keksaroq odamning saroy devori ostiga qandaydir sandiqcha ko‘mayotganini ko‘rib qolibdi. Do‘stim uyqudan uyg‘ongandan keyin arxeolog sheriklariga tushida ko‘rgan o‘sha joyni kovlashni buyuribdi. Xarobaga aylangan saroy devori ostidan zebziyatga liq to‘la sandiqcha topilganda, hayratdan behush yiqilayozibdi.

Yana picha suhbatlashib o‘tirishgach, professor Turkoniy haydovchiga mashinani yo‘lga hozirlashni buyurdi.

– Hindistonga otlanib turgan edim, – deb qo‘ydi u kasumini kiyayotib. – Men o‘sha dorini nishopurlik do‘stim doktor Radha Krishanga ko‘rsatib, fikrini bilmoqchi edim.

– Bu bevosh bola bizdan ko‘ra ko‘proq sizni kuydirdi, – noyob dorilarning isrof bo‘lganiga achinishda davom etdi Alamazonning oyisi. – Endi bunaqa dorini topib bo‘lmaydi deng?

– Yo‘q, – asta bosh tebratdi professor. – Biz uning tarkibini aniqlab ulgurolmadik.

Professor Og‘abek Turkoniy shlapasini boshga qo‘ndirib, eshik sari yo‘nalarkan: „Bu mendan Alamazonga esdalik“, deya kumush qutichani tokchaga qo‘yib qo‘ydi. Bo‘m-bo‘sh bu quticha endilikda o‘zining noyobligini yo‘qotib, oddiy bir bezak shakliga kirgan, uning qopqog‘iga o‘yib yozilgan jimjimador so‘zlarning ham hech qanday sehrni qolmagandi. Qopqoq ustiga „Ichgil-u, maqsadga yetgil“, degan so‘zlar bitilgan edi.

*1976–1978-yillar,  
Oltiariq*

# PASHSHAVOYNING BOSHIDAN KECHIRGANLARI

*Mitti roman-fojia*



## I QISM

### XONADONNING YEMIRILISHI

#### *Birinchi bob*

Uzoq-yaqindagi odamlar iloji boricha „Sharq“ oshxonasida ovqatlanishga harakat qilishadi. Chunki bu yerdagi taomlar xilma-xil, eng muhimi – judayam arzon. Biz ana shu oshxonaning shipidagi kandikda yashaymiz.

Odamlarning fe'l-atvoriga sira tushunib bo'lmaydi. Ochqagan paytlarida oshxonaga mung'ayib kirib keli-shadi-yu, qorinlari to'ygach, birdan gerdayishib, ichki-likbozlik qila boshlashadi. Birpasdan keyin qarabsizki, biri chiyabo'ridek uvlasa, boshqasi qo'tosdek bo'kirib turibdi. Ayamning aytishicha, pashshalar orasidan chiqqan araqxo'rlar ichishni shunaqa odamlardan o'rganishgan ekan.

Araqxo'r pashshalardan bittasi – mening dadam. Kuniga kayfi taraq kelib, ayam bechorani do'pposlagani-do'pposlagan. Uyimizda tinch kun yo'q. Akamning jahli chiqib, dadam bilan bir-ikki marta aytishib ham qoldi. Ayam, o'zi hozirgina kaltak yegan bo'lsa-da, dadangning ko'ziga hech qachon tik qarama, deb akamni koyib berdi. Hayron qoladigan hol, to'g'rimi?

Ammo qanchalar dag'alligi qo'zimasin, dadam menga sirayam tixirlik qilmaydi. Aksincha, meni bo'lar-bo'lmasga erkalataveradi. Bu qanchalar yoqimli tuyulmasin, baribir yuragimning bir cheti g'ashligicha turaveradi. Axir, ayang piqillab o'tirganida, erkalanish ko'nglingga sig'armidi?

Araq deganlari juda kasofati narsa ekan. Sog‘-salomat ulg‘ayib olsam, shu la’natining yaqiniga yo‘lamaganim bo‘lsin-ey!

### *Ikkinchи bob*

Bugun kunbotarga yaqin dadam sho‘rlik qadahga quyilgan araqqa cho‘kib ketib, olamdan o‘tdi. Ayam bilan akamga qo‘silib men ham rosa yig‘ladim. Qanchalar jan-jalkash bo‘lmasin, dadam biz uchun nihoyatda aziz ekanligini shu tobda tushunib yetdim.

– Rahmatlining o‘ziyam keyingi vaqtarda haddidan oshib ketuvdi, – deya kuyindi ayam. – Avvallari araq yuqi idishlarni yalab yurardi. Bora-bora, qadahlarga odamlardan oldinroq tumshuq suqadigan bo‘ldi.

Keyin u sodda pashshalarni yo‘ldan ozdirayotgan mayxo‘r odamlarni bo‘ralab qarg‘ay ketdi.

Umrimda bir marta bo‘lsa ham kattalarga aql o‘rgatgim kelib, „Yaxshisi, odamlardan uzoqroqqa ko‘chib ketish kerak“, deb gap qistirdim.

– Bu joylar bizni! – birdan o‘dag‘aylab berdi akam. – Odamlar butun binoni surbetlik bilan egallab, bizni kovakka tiqib qo‘yishdi. Aksincha, kelgindilarning tinimsiz g‘ashiga tegib, bu yerdan bezdirishimiz kerak.

Haqiqatan ham, tug‘ilmasimdan ancha ilgari „Sharq“ oshxonasida faqat pashshalargina yashashar ekan. Bu yerga dastavval oshpazlar bostirib kirishibdi, so‘ng xo‘randa-lar keladigan bo‘libdi.

– Endi ularni haydab bo‘psiz, – dedim akamga. – Ish-qilib, o‘zimizni tiraqaylatib qolishmasa bo‘lgani.

Akam „Qismatda borini ko‘ramiz“, deya beparvo qo‘l siltadi. Undan: „Qismat nima?“ – deb so‘ragan edim,

o‘qrayib turib: „Enang!“ – dedi. Demak, akamning bundan oldingi gapini „Enamizni ko‘ramiz“, deb tushunish kerak bo‘ladi.

### ***Uchinchi bob***

Dadamning vafot etganiga hali ko‘p bo‘lmasidan, uyimizga sovchilar kirib kelishdi. Novvoyxonadagi tandirning yonida yashaydigan qari pashsha ayamni yoqtirib qolganmish. Uning kampirini bir yallachi qurbaqa kap otib qo‘yganini eshitganday bo‘luvdim.

– O‘sha uyatsiz cholni boshimga uramanmi? – dedi ayam. – Unga tul qolgan bironta Itپashshani topinglar!

Bezbet sovchilarni ayam tuzlabgina jo‘natganini ko‘rib, juda zavqlanib ketdim.

Sovchilardan endigina qutulib turganimizda, akamning Layzon ismli o‘rtog‘i uyimizga gandiraklab kirib keldi-yu, gursullaganicha yerga yiqildi. Ayam uni qano-ti bilan yelpib turib, nima bo‘lganini surishtirdi. Layzon qisqa-qisqa nafas olarkan, uzuq-yuluq tarzda tushuntira boshladi.

Uning aytishiga qaraganda, akam jangari o‘rtoqlarini yig‘ib, odamlarga qarshi kurashuvga yetaklabdi. Odamlar oldiniga bu xurujlarga parvo qilmayotgandek ko‘rinishib-di. Keyin, oq kiyimli kimsa kelib, pashshalarning ustidan allaqanday sassiq dorini purkashga tushibdi.

– Sheriklarim tutdek to‘kilib qolishdi, – hansiragan ko‘yi, alam bilan ingradi Layzon. – Bu odamzod degani oxiri hammamizni bitta qo‘ymay qirib tashlaydi!

Layzonning ko‘zlarida yosh yiltilladi. Bir-ikki marta chuqur-chuqur nafas oldi-yu, qanotini qattiq zirillatib, oyog‘i osmondan bo‘lganicha miq etmay qoldi. Akamning

o'lganini bilib, ayam behush yiqildi. Men: „Aka! Aka-jonim!“ – deya yig‘lab, tashqariga otildim. Ho'ngrak otib uchib borarkanman, Layzonning so‘nggi gapi qulog‘im ostida qayta-qayta jaranglardi: „Bu odamzod degani oxiri hammamizni bitta qo‘ymay qirib tashlaydi! Bitta qo‘ymay qirib tashlaydi!! Qirib tashlaydi!!!“

### **To‘rtinchi bob**

Yo dadamdek araqxo‘r, yo akamga o‘xshagan urishqoq bo‘lib ketishimdan cho‘chidi shekilli, ayam oshxonada ovqatlanishimga ruxsat bermay qo‘ydi. Qornimiz ochsa, tamaddilanib olish uchun meni boshqa joylarga boshlab boradigan bo‘ldi.

Qimirlab turgan qisinib o‘lmas ekan – goh choyxonadan rizqimizni topamiz, goh molxonadan. Bir kuni tushlikda ayam ikkalamiz ityaloqqa borib qo‘ndik. Balki, siz itdan nimayam ortardi, dersiz. Yuvilman idish borki, u yerda biz g‘ariblarga yarasha ovqat topiladi. Keksa pashshalar aytganidek, hali hech kim yuvilgan ityaloqni ko‘rish sharafiga muyassar bo‘lman. Shu bois, hech bir joydan ovqat topilmagan mahalda, uzoq o‘ylab o‘tirmasdan, yo ityaloqni, yo bo‘lmasa, bet-qo‘li shatmoq bolani axtarib qolamiz.

Xullas, ayam ikkovimiz ityaloqqa tushib olib, boshqa pashshalar bilan esh-qo‘s sh tirikchilik qilishga kirishdik. Birov birovga xalaqit bermay, har kim o‘zining oldidagini talamonlab turgan vaqtda, qandaydir befarosat odam ustimizdan yuvindi quyib yuborsa bo‘ladimi. Yirik maxluqlar „Axir, bu mittilarning ham joni bor-ku“, deb o‘ylashmas ekan. Qochgan qochib qoldi, qocholmaganlar yuvindi hisobida To‘rtko‘zga yem bo‘ldi.

Oh, sho'rlik ayaginam! Hozir u o'sha itvachchaning oshqozonida pitir-pitir suzib yurganmikin? Balki, allaqachon hazm bo'pketgandir... Uyga qaytib kelganimdan so'ng yuragimni negadir vahima bosdi. Huvullagan xonda tun bo'yi mijja qoqmay o'tirib chiqdim. Ko'zim yumildi deguncha, tushimga To'rtko'zning tishlari kiradi-yu, bir seskanib ketaman.

Shu damda mendan dunyodagi eng dahshatli narsa nima, deb so'rashsa, sira ikkilanmasdan: „Yolg'izlik!“ – deya javob qilgan bo'lardim.

## II QISM

### DARBADARLIKDA

#### *Birinchi bob*

Pochcham bilan opam kelib, meni o'z uylariga olib ketishdi. Tug'ilgan joyimdan uzoqlashar ekanman, o'zimni xuddi yana bir jigarbandimdan judo bo'lgandek his etdim. Bu – uqubatli darbadarlikning boshlanishi ekanligini o'shanda bilmagandim...

Opamlar bir boy odamning dang'illama uyidagi qimatbaho javon ortida turisharkan. Xonaga kirib, og'zim lang ochilib qoldi. Devorning eshik-derazalaridan bo'lak hamma joyiga gilamlar qoqilgan, shipdagi naqshlar ko'zni qamashtiradi, idish-tovoqdan tortib qoshiq-cho'michgacha – bari yalt-yult qiladi.

Borgan kunim katta ziyofatning ustidan chiqib qolibman. O'sha badavlat odam endigina emaklayotgan o'g'lining tug'ilgan kunini nishonlash bahonasida o'z ulfatlarini yig'ib, katta isrofgarchiliklar qilayotgan ekan. Dasturxon-da oymomodan boshqa hamma narsa bor deng.

Pochchamning qari buvisi bilan birga u taomdan bu taomga sakrab yurib, rosa yayradik. Sho'rva ichdik, oh, oh, oh, qovurma yedik, oh, oh, oh, xorijiy baliqning ivuldirig‘idan totdik, oh, oh, oh, asal yaladik, oh, oh, oh... Chanqab ketib, olma sharbatiga tumshuq tiqqan chog‘imda ochko‘z kampir „Yur, anavi murabboniyam sinab ko‘raylik-chi“, deb yelkamga turtkiladi. Uning ko‘ngli uchun borib, murabboga ham og‘iz tekkizgan bo‘ldim.

Murabboxo‘rlik qilib turganimizda, kayfi oshib qolgan odamlardan bittasi: „Quy quyadiganingni!“ – deya hayqirganicha stolni mushtladi-yu, murabboli piyolani ag‘darib yubordi. Men-ku tepaga bir sapchib, osongina qutuldim, biroq pochchamning buvisi murabboga aralashib ketib, dimiqib o‘ldi. Buni birov sezmadiyam, achinmadiyam.

Bilaman, sezganlaridayam baribir achinishmasdi. Ular bizni azaldan yomon ko‘rishadi, irkit maxluqlar deb ijirg‘anishadi.

Bu voqeadan keyin pochcham „he, poyi qadamingdan o‘rgildim“, degandek menga sovuq qaraydigan bo‘lib qoldi. Na iloj, o‘qraysa o‘qrayib yuraversin. Endi pochchadan qo‘rqish yetmay turuvdi menga.

### ***Ikkinci bob***

Dod-voyni eshitib, zing‘illaganimcha qo‘shni xonaga kirib bordim. Kirib qarasam, opam bechora ustiga allanarsa surtib qo‘yilgan qog‘ozga qo‘nib olib, zirillab turibdi. U jon-jahdi bilan tinmasdan qanot qoqar, lekin harchand chiranimasin, oyoqlarini qog‘ozdan uzolmasdi.

Shu pallada qayoqdandir pochcham kelib qoldi. O‘sha sirli qog‘ozning tevaragida bir-ikki aylanib chiqib, tumtaygan holda yonimga qo‘ndi.

– Odamlar bizga qarshi yelimli dori ishlatishyapti, – dedi u. – Opangni tug‘ma kallavaramsan desam, jirillab ayyuhannos solardi. Mana, o‘zing ko‘rib turibsan, esi joyida bo‘lsa, kelib-kelib, yopishqoq qog‘ozga qo‘narmidi?

Opamga ko‘maklashish uchun endigina qo‘zg‘almoq-chi bo‘lganimda, pochcham shosha-pisha yo‘limni to‘sdi:

– Nima balo, joningdan to‘ydingmi? He, tirrancha!

Pochcham shunday deya, meni qanotlari orasiga mahkam qisib oldi. „Qo‘yvoring meni, qo‘yvoring!“ – deb qancha tipirchilamay, ezg‘ilab ushlab turaverdi. Opamga rahmim kelib, ko‘zlarimdan yosh tirqiradi.

– O‘zingni o‘ylasang-chi, uka, – menga joni achishgan bo‘ldi pochcham. – Opang endi peshanasiga yozilganini ko‘radi.

U so‘zini tamomlamay turib, sho‘rpeshana opam yelimga butunlay qorishib ketdi. Pochcham nihoyat meni qo‘yib yuborib, xomushlangan kepatada boshini egdi.

– Men haqimda yomon o‘ylamagin, – ko‘zimga qaramay, asta gapirdi u. – Opangga yordam berishim mumkin edi. Lekin, unda, sevimli pochchangdan ham ayrilib qolgan bo‘larding.

Sevimli emish! Bunaqa so‘takni qaysi ahmoq yoqtirarkan?

Nima bo‘lgandayam, kunim shu qo‘rqoqqa qoldi...

### ***Uchinchi bob***

Hovlidagi laychaning „vak-vak“lashini eshitib, so‘-laktumshuq To‘rtko‘zga yem bo‘lgan rahmatli ayam beixtiyor esimga tushdi. Deraza tokchasidagi telefonga qo‘nib olib, ezgin-ezgin yig‘lay boshladim. Agar, mehribon ayajonim tirik bo‘lganida, hozirgidek och-nahor o‘tirarmidim?

O‘zi yemasa yemasdiki, biror narsa topib, papalaganicha og‘zimga tiqardi.

Eshikning tirqishidan chimrilib kirib kelgan pochcham yig‘layotganimni ko‘rib, telefon yonidagi kitobga kelib qo‘ndi-da: „Nega xunob bo‘lyapsan?“ – deb so‘radi. Men gapni cho‘zib o‘tirmay, qornim surnay chalayotganini aytdim.

– Judayam bo‘sang bola ekansan! – deya koyib berdi pochcham. – Shuni esdan chiqarmaginki, yaxshilab qidi-rlsa, tuyadek joydan kuyadek ushoq hamma vaqt topiladi. Ushoqning o‘zi pashshani axtarib kelganini hali hech kim ko‘rmagan. Vaholanki, sen tengilar...

Yana nimalar demoqchi bo‘luvdiykin – buni birgina pochchamning o‘zi biladi. Uning nasihatni chala qoldi. Xonada ivirsib yurgan semiz xotin qo‘lidagi charm shalpildoqni bir siltadi-yu, pochchamni kitobga paqqos chaplab qo‘ydi. Hozirgina kekkayib va’z aytayotgan pashshanning birdan chalpakka aylanib qolganini ko‘rib, ko‘nglim battardan buzilib ketdi.

Shunda o‘ylanib qoldim – pochcham-ku baribir o‘lar ekan, o‘shanda opamga ko‘mak berib, mabodo omadi kelmasa, yelimga birga qorishib ketaversa bo‘lmasmi-di? To‘g‘ri, bir necha kun oldinroq o‘lardi, lekin o‘zidan yaxshi nom qoldirardi. Uning bu ishini boshqa pashshalar uzoq-uzoq vaqtgacha eslab, bola-yu nevaralariga ham gapirib yurishardi.

... Bu olamda hech kimim qolmadi.

### ***To‘rtinchi bob***

Haqiqiy darbadarlik boshlandi. Ko‘p joylarda bo‘ldim. Ahvolingni so‘rab, darddoshlik qiladiganlardan ko‘ra,

seni nohaq masxaralab yoki do‘pposlab, o‘z ko‘nglini xushlaydiganlar toifasi ko‘proq ekan. Hamma maxluq o‘zining o‘rniga begonani qo‘yib ko‘rolsa-ku, olam guliston bo‘lardi-ya.

Bir kuni sang‘ib yurib, o‘zimdan picha yoshroq Pashshaoy bilan tanishib qoldim. U boshpanasiz yetimcha ekanligimni eshitib, juda achinib ketdi. Umrim bino bo‘lib, bunaqangi rahmdil qizni ko‘rmagan edim. Rahmdillar oliyanob bo‘lishadi, deganlari to‘g‘ri ekan, u meni mehmondorchilikka taklif etdi.

Och bo‘lganim uchun uyalib o‘tirmadim. Unga er-gashib, qassobxonaga kirib bordim.

– Biz ho‘ ilgakning tepasidagi teshikda turamiz, – dedi Pashshaoy. – Xohlasang, avval shu yerda bir go‘shtxo‘rlik qilib olaylik. Keyin uyimizni ko‘rsataman.

Oldin qorin to‘ydirib olinmasa, har qanday tomosha ham yurakka sig‘masligini mendan tuzukroq bilasiz. Shu tufayli, Pashshaoyning so‘ziga tezda ko‘nib qo‘ya qoldim.

Endigina go‘shtga borib qo‘ngan edik, orqamizdan bir Qovog‘ari dirillaganicha kelib qoldi. Men zo‘r berib qas-sobning burni atrofida aylana boshladim. Chunki, odamlar paskash arilarni o‘zlarining muqaddas burunlariga hech qachon yaqin yo‘latishmaydi. Buni yoshligimda dadam-dan eshitganman.

Ha, men ustamonlik bilan qutulib qoldim. Ammo, Pashshaoy nodonlik qilib, qayroqtoshning panasiga yashi-rinmoqchi bo‘ldi-yu, Qovog‘arining changaliga tushdi. Oliyanoblar sodda bo‘lishadi, degan gap ham to‘ppa-to‘g‘ri ekan.

Donolar aytganidek, bu dunyoda istagancha dushman orttirish mumkin-u, biroq durustroq do‘sst topish juda

mushkul. Men zo'rg'a bitta do'st orttirganimda, shu zahotiyoyq undan ayrilib qoldim.

Shu payt jangari akamning qachonlardir gapirgan bir so'zi to'satdan esimga tushdi. „Qismatda borini ko'-ramiz“, degan edi u. O'zingni qismatning oqimiga tashlab qo'yib, anqayib yuraversang, yashashdan nima ma'ni chiqadi? Qiziq!..

### Xotima

Men bu „roman“ni baxtsiz bir Pashshaning cho'ntagidan topilgan yondaftarchadagi esdaliklari asosida yozdim.

Musibat haqida gapirish qanchalar og'ir bo'lmasin, axborotingiz uchun yana bir narsani bildirib qo'yishim shart: o'sha darbadar Pashsha 1978-yilning 8-avgustida men tanovul qilib turgan qaynoq sho'rvaga tushib, fojiali halok bo'ldi...

*1978-yil,  
Oltiariq.*



## M U N D A R I J A

Toshtaqlik qilichboz yoki muqaddima.....	4
Eshmatning Frensis bo‘lgani.....	9
Zimistonsaroy .....	13
Qonxo‘r qoyalar .....	20
Ajal panjasida.....	23
Tirtiq va Shilpiq .....	27
Humo Xartum .....	33
Qo‘tirlar sulolasining inqirozi.....	40
Isqirtlar mamlakati .....	45
Birinchilar .....	50
Eshmat ishmaning kashfiyoti .....	54
Eshakning dohiy bo‘lgani .....	59
Isqirt Birinchi .....	65
Alamazonning sag‘ir piyodalari .....	72
Dutoriyning xavfli raqiblari .....	77
„Bay-bay-bay“ ansamblı .....	82
Jasoratga undovchi xat .....	86
Madumar avliyoning arvohi .....	90
Notinch kun.....	94
Tandirning ishg‘ol qilinishi.....	100
Hojimat jinnining taklifi.....	107
Burbulitning qasosi .....	111
Yorug‘ dunyo haqida qo‘sishq .....	117
Noyob dori yoki xotima .....	123

## PASHSHAVOYNING BOSHIDAN KECHIRGANLARI

I QISM. Xonadonning yemirilishi .....	132
II QISM. Darbadarlikda .....	136

*Adabiy-badiiy nashr*

ANVAR OBIDJON

**G'ORDAGI OLISHUV**

*Qissa va hikoya*

„Ziyo nashr“ nashriyoti  
Toshkent – 2019

Muharrir

*Abdurahmon Jo'rarev*

Badiiy muharrir

*Hojakbar Saydaliyev*

Musahhih

*Miryusuf Mirsoliyev*

Sahifalovchi

*Rayhon Yaxshiboyeva*

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019  
25.10.2019-yilda bosishga ruxsat etildi. Qog‘oz bichimi 84x108 1/32.  
Offset qog‘ozi. „Times“ garniturasida offset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog‘i 7,56. Nashriyot-hisob tabog‘i 7,2.  
Adadi 10000 (1-zavod 5000). Sharhnomha № 79–19.  
Buyurtma raqami 1050.

„Ziyo nashr“  
Mas’uliyati cheklangan jamiyat  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ  
Kitob fabrikasida chop etildi  
Toshkent sh., Bog‘ishamol k. 160.  
Tel.: 71 234-44-01/05  
[www.credoprint.uz](http://www.credoprint.uz)





ZIYO NASHR



t.me/ziyonashr  
 fb.com/zoyo.nashr  
 ziyonashr@mail.ru



SCAN  
ME

ISBN 978-9943-5937-1-8



9 789943 593718